

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A.A. ISADJANOV, N.S. ISMAILOVA**

# **JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI**

*O‘quv qo‘llanma*

**5A231101 – “Jahon iqtisodiyoti ” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha)  
magistratura mutaxassisligi uchun tavsiya etiladi**

**TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019**

UO‘K: 339.9 (2.100)

KBK: 65.5.200 Э55

**Isadjanov A.A., Ismailova N.S. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O‘quv qo‘llanma. –T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 154 b.**

“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” fanidan o‘quv qo‘llanma 5A231101 – “Jahon iqtisodiyoti ” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalari uchun mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanmada “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” fani bo‘yicha namunaviy va ishchi o‘quv dasturlarida birinchi semestr uchun belgilangan boblarning asosiy mazmuni yoritilgan, nazorat savollari va tayanch iboralar keltirilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” fanini yanada chuqurroq o‘zlashtirish uchun hamda ma’ruzalar davomida olingan bilimlarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha adabiyot sifatida ishlatilishi mumkin.

Учебное пособие «Глобализация мировой экономики» предназначено для студентов магистратуры, обучающихся по специальности 5A231101 – “Жаҳон иқтисодиёти ” (по регионам и видам деятельности). Данное учебное пособие соответствует утвержденным учебному и рабочему программам курса и будет способствовать более глубокому изучению данного курса и может быть использовано в качестве дополнительной литературы при изучении курса “Глобализация мировой экономики”

Mazkur o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti O‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashr uchun tavsiya etilgan

**Taqrizchilar:**

D.M. Rasulev– TDIU “Ekonometrika” kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Sh.O. Sharifxodjaev– JIDU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

**ISBN 978-9943-6058-7-9**

UO‘K: 339.9 (2.100)

KBK: 65.5.200 Э55

© «IQTISODIYOT», 2019.

© Isadjanov A.A., Ismailova N.S., 2019.

## MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI		5
1-bob.	«JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI» FANIGA KIRISH	6
1.1.	“Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” fanining predmeti, mohiyati va vazifalari	6
1.2.	“Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchasi va uning tasnifi	7
1.3.	Xalqaro mehnat taqsimoti – jahon iqtisodiyotning asosi sifatida	15
1.4.	Jahon iqtisodiyoti asosiy sub’ektlari	17
2-bob.	JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI	22
2.1.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	22
2.2.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ob’ektiv manbalari va asosiy omillari	41
2.3.	Global iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari	50
3-bob.	BAYNALMINALLASHUV, TRANSMILLIYLASHUV VA GLOBALLASHUV JARAYONLARI	54
3.1.	Baynalminallashuv va transmilliylashuv: rivojlanish tendensiyalari va uning xususiyatlari	54
3.2.	Globallashuv - taraqqiyotning yangi tarixiy davri	55
3.3.	Jahon xo‘jaligining transmilliylashuvi	59
4-bob.	JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING RIVOJLANISH INDIKATORLARI	62
4.1.	Indikatorlar tushunchasi va turlari. Global barqaror rivojlanish indikatorlari	62
4.2.	Global iqtisodiyot rivojlanishining umumiy indikatorlari	68
4.3.	Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri	72
4.4.	Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga baho berishning mavjud uslublari tahlili	73
4.5.	Milliy iqtisodiyot globallashuvining ko‘rsatkichlari	79
4.6.	Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash	84
5-bob.	JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING INSTITUSIONAL JIHATLARI	87
5.1.	“Institut” tushunchasi va global iqtisodiyotning institusional jihatlari	87
5.2.	Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari.	90
5.3.	Mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar	94
5.4.	Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar (G7, G20 va boshqalar).	94
6-bob.	GLOBAL MOLIYA VA VALYUTA TIZIMINING	

	SHAKLLANISHI	97
6.1.	Jahon moliyaviy bozorlarning maqsadi va asosiy vazifalari	97
6.2.	Moliyaviy bozorning asosiy ishtirokchilari	98
6.3.	Xalqaro moliyaviy bozor va globallasuv jarayonlari	99
6.4.	Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida	100
6.5.	Jahon valyuta tizimini shakllanishi	101
7-bob.	JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI RIVOJLANISHINING EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLARI	108
7.1.	Jahon iqtisodiyoti globallasuvda texnologik ukladlar	108
7.2.	“Innovatsion iqtisodiyotning” xususiyatlari va rivojlanish jihatlari	113
7.3.	“Innovatsion iqtisodiyotning” shakllanishida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni va uning rivojlanish tendensiyalari	114
7.4.	“Yashil iqtisodiyotning” mazmun-mohiyati va rivojlanish mexanizmi: BMTning atrof-muhitni saqlash va rivojlanishida Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (1992- yil)	115
8-bob.	JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING GEOIQTISODIY VEKTORI	120
8.1.	Global hudud va uning xususiyatlari	120
8.2.	Global taraqqiyotning asosiy jihatlari va yo‘nalishlari	122
8.3.	Jahon iqtisodiyoti globallasuvi va geoiqtisodiy modellar	124
8.4.	Markaziy Osiyoning geosiyosiy, geoiqtisodiy, geostrategik xususiyatlari	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR		
IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)		

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim bir jihatlaridan biri bu ochiq iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy masalalarni xal qilish va o‘zaro keng qamrovli jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv, hamda xalqaro moliyaviy – iqtisodiy tashkilotlar, chet davlatlar bilan o‘zaro ikkitomonlama va ko‘ptomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va chuqurlashtirish bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida” mamlakatimizni globallashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirokchi sifatida qatnashish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga o‘zining salmoqli ta‘sirini o‘tkazadigan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining muhim tendensiyasi bu uning globallashtirishidir.

«Jahon iqtisodiyoti globallashtirish» fani ixtisoslik fanlari qatoriga kiradi.

Fanni egallashda quyidagi jarayonlar va hodisalar haqida tushunchalar va ma‘lumotlar beriladi: jahon iqtisodiyotining globallashtirishining xususiyatlari va rivojlanish omillari, jahon iqtisodiyoti global muammolari mohiyati, transmilliy korporatsiyalar va ularning globallashtirish jarayonlarda tutgan o‘rni, jahon iqtisodiyoti globallashtirishidagi ziddiyatlar va tahdidlar, baynalmillashuv, transmilliylashuv va globallashtirish jarayonlari, jahon iqtisodiyoti globallashtirishining rivojlanish indikatorlari, jahon iqtisodiyoti globallashtirish rivojlanishining ekologik va innovatsion omillari.

“Jahon iqtisodiyoti globallashtirish” fani magistrantlarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

O‘quv qo‘llanma tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur fanning predmetining asoslarini, nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘liq holda yoritishga qaratilgan.

## **1-bob. «JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI» FANIGA KIRISH**

Reja:

- 1.1. “Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” fanining predmeti, mohiyati va vazifalari
- 1.2. “Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchasi va uning tasnifi
- 1.3. Xalqaro mehnat taqsimoti – jahon iqtisodiyotning asosi sifatida
- 1.4. Jahon iqtisodiyoti asosiy sub’ektlari

### **1.1. “Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” fanining predmeti, mohiyati va vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlanishning muhim bir jihatlaridan biri ochiq iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy va tashkiliy masalalarni xal qilish va global iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasi bilan keng qamrovli aloqalarni rivojlantirish va chuqurlashtirishdan iborat.

“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” fani global muamomlar, globallashuv jarayonlarning mohiyati, rivojlanish omillari va uning qayd etilgan.

«Jahon iqtisodiyotining globallashuvi» fanining asosiy maqsadi – talabalarda jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

«Jahon iqtisodiyotining globallashuvi» fanining asosiy vazifalari talabalarda global muammolari mohiyati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ularning mintaqaviy va tarmoqlararo oqimlari, transmilliy korporatsiyalar va ularning globallashuv jarayonlardagi tutgan o‘rni, xalqaro savdo va jahon xo‘jaligi erkinlashuvi, jahon savdo tashkiloti va unga a‘zo bo‘lish jarayonlari, globallashuv sharoitida global va milliy iqtisodiy xavfsizlik to‘g‘risida ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

«Jahon iqtisodiyotining globallashuvi» o‘quv fani doirasida magistrant jahon iqtisodiyotining global muammolarini, jahon iqtisodiyoti globallashuvining xususiyatlari va rivojlanish omillarini, uning rivojlanish tarixiy davrlari: baynalmilallashuv va transmilliylashuv jarayonlarini, iqtisodiyotning globallashuv

jarayonlarida transmilliy kompaniyalar (TMK)lar faoliyatini, ekologik va innovatsion omillarni, «global va milliy iqtisodiy xavfsizlik» va oziq-ovqat xavfsizligi tushunchalari va mohiyati, ko'rsatkichlari va miqdoriy chegaralarini o'zlashtirishi kerak.

«Jahon iqtisodiyotining globallashuvi» fani asosiy ixtisoslik fani xisoblanib, 1-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan ixtisoslik (jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari va x.k.) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida, ochiq iqtisodiyotni barpo etishda va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda, eksport va import operatsiyalarini bajaruvchi milliy muassasalar, tashkilotlar, korxonalarni xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonlarini yaxshi o'rgangan bo'lishlari lozim.

## **1.2. “Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchasi va uning tasnifi**

A.Vahobov ta'kidlashicha, jahon iqtisodiyotiga keng va tor ma'nolarda ta'rif berish mumkin<sup>1</sup>. Keng ma'noda jahon iqtisodiyoti - bu milliy iqtisodiyotlar yig'indisi sifatidagi tizim hisoblansa, tor ma'noda - bu milliy iqtisodiyotlarning tashqi dunyoga tovarlar, xizmatlar va iqtisodiy resurslar yetkazib beruvchi qismlarini qamrab oluvchi tizimdir.

Jahon iqtisodiyotiga berilgan tor ma'nodagi ta'rif iqtisodiy nazariyadagi sotiladigan mahsulotlar va omillar tushunchasiga mos keladi. Ma'lumki, sotiladigan mahsulotlar va omillarga asoslangan xo'jalik aloqalari yuzlab milliy xo'jaliklarni “jahon iqtisodiyoti” deb ataladigan bir tizimga birlashtirishini e'tiborga olish lozim.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarda “Jahon iqtisodiyoti” yoki “Jahon xo'jaligi” tushunchalari mustahkam kirib bo'ldi, biroq uning mazmuni turlicha talqin qilinadi.

Ayrim mutaxassislar jahon iqtisodiyotini barcha mamlakatlarning o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklari majmui sifatida ifodalaydi, boshqa mutaxassislar esa

---

<sup>1</sup> Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. / A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, Sh.X. Xajibakiyev. – Toshkent.: «Baktriy press», 2015. – 15 b.

“bu o‘ziga xos funksiyalariga, maxsus institutlariga ega organizmdir va biz jahon xo‘jaligi haqida ayrim mamlakatlar xo‘jaliklari yig‘indisidan farq qiladigan xo‘jalik deb so‘z yuritishga to‘la haqlimiz”, deb aytadi<sup>2</sup>. Bu ta’rif shakllanayotgan global iqtisodiyot mohiyatini aniqroq aks ettiradi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi kuchayadi.

Bu hodisa iqtisodiyotning baynalminallashuvi deb ataladi. *Iqtisodiyotning baynalminallashuvi* – bu ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi kuchayishidir.

Globallashuv jarayoni turlicha qabul qilinadi va baholanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda unga turlicha munosabatda bo‘lishadi. Bir tarafdin, xorijiy raqobat uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdo, kapital va mehnat resurslari ko‘chib yurishining kuchayishi jahon ishlab chiqarish omillaridan samaraliroq foydalanish, jahon ishlab chiqarishini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun yutuq deb atash mumkin.

Boshqa tarafdin, global bozorlarda raqobatning kuchayishi, xo‘jalik faoliyatining keng erkinlashuvi mamlakatlar uchun xavf-xatarlar tug‘dirishi muqarrardir.

Rivojlangan mamlakatlar uchun buning foydali jihatlari aniq ko‘rinib turibdi, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar haqida, ayrim hollarda, bunday deb bo‘lmaydi. Ularning ko‘pchiligi baynalminallashuvda xomashyo va mehnat resurslari yetkazib beruvchilar sifatida ishtirok etib, rivojlangan va qudratliroq davlatlarga qaram bo‘lib qolishini e’tirof etish mumkin.

Sobiq AQSH Prezidenti B.Klinton huzurida iqtisodiy maslahatchilar guruhiga rahbarlik qilgan J.Stiglits iqtisodiy siyosat xususiyatlarini ta’riflayotib, davlat va bozor munosabatlar o‘zaro hamkorlikka qaratilgan bo‘lishi kerakligini hamda davlat bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni yumshatishda va ijtimoiy adolatni ta’minlashda

---

<sup>2</sup> Кучински Ю. Очерки по истории мирового хозяйства. – М., 1954. – С. 8.



muhim rol o‘ynashi kerakligini qayd etgan. U ochliq, hayot standartlari pasayishi, ishsizlikni globallashuvning salbiy oqibatlari qatoriga kiritgan<sup>3</sup>.

“Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchasi bilan birga “global iqtisodiyot” tushunchasi keng qo‘llanib kelinmoqda. Hozirda, yagona yaxlit bir “global iqtisodiyot” tushunchasi shakllanmagan bo‘lib, murakkab tizim sifatida e‘tirof etilib kelinmoqda va ayniqsa, so‘nggi yillarda bu tizimda katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvi va globallashuvi; xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global tus olishi va jahon moliya bozorining tez sur‘atlarda rivojlanishi; jahon va mintaqaviy inqirozlarning kelib chiqishi; turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida farqlarning chuqurlashuvi, shuningdek, ahborot-kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi va “raqamli”, “yangi” iqtisodiyot tushunchalari kirib kelishi.

“Global iqtisodiy tizim real voqeaga aylangan va uning qonunlari hamda rivojlanish shakllari jiddiy o‘zgarishni talab qiladi”<sup>4</sup> va “Global iqtisodiyot taraqqiyotimizning ko‘p jihatlariga ta‘sir ko‘rsatadigan hozirgi zamonning eng muhim fenomenini ifodalashini isbotlaydigan qo‘shimcha dalillar kerak emas”, deb qayd etadi O. Bogomolov<sup>5</sup>.

Globallashuv jarayonlarning hozirga kelib bir qator xususiyatlarini e‘tirof etish mumkin.

Birinchi, globallashuvning muqobilligi – globallashuvning ichki qarama-qarshiligini aks ettiruvchi globallashuv jarayonlarining turli variantlaridir<sup>6</sup>. Globallashuv muqobilligi globallashuv jarayonlarining o‘rnini bosadigan biror narsa taklif qilmay, ularning ichki variabelligini ifodalaydi. Bu, eng avvalo, globallashuv

---

<sup>3</sup> Stiglitz J. Globalization and Its Discontents. New York, W.W. Norton. 2002. P. 248.

<sup>4</sup> Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник /О.Т. Богомолов. – М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. – С.7.

<sup>5</sup> Ўша манба. – 11-б.

<sup>6</sup> Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь./Гл.ред. И.И. Мазур, А.Н. Чумаков, – СПб. – Й.: ИЦ “ЕЛИМА”, ИД “Питер”, 2006. – С. 26.

ro'yobga chiqariladigan quyidagi modellarga taalluqli: liberal model (ba'zida "neoliberal" terminidan foydalaniladi) yoki ijtimoiy mo'ljal olgan model.

Ikkinchidan, globallashuv muqobillari mintaqalarga bo'linishda namoyon bo'ladi, unga muayyan izchillik beradigan va uning eng salbiy oqibatlarini kamaytiradigan o'ziga xos shakli sifatida qaraladi. Globallashuvning muqobilligining borligi jahon globallashib borayotgan bir paytda globallashuvning o'zi uchun salbiy oqibatlarini kamaytirib va bu jarayonlardan imkon qadar ko'p foyda olib, inson uchun globallashuv jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Globallashuv jarayonlari to'liqsimon rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, uning rivojlanishida bir qator to'liqlarni keltirish mumkin.

XIX va XX asrlarda globallashuvning birinchi to'liqini nazariyachilari (R. Kobden va J. Brayt) erkin savdo shubhasiz iqtisodiy o'sishga olib kelishi va misli ko'rilmagan taraqqiyot tufayli xalqlar o'zaro adovatni unutishi haqidagi qoidani ishonch bilan asoslab berishdi. Britaniya o'zining dengizdagi, sanoatdagi va moliyaviy quvvati bilan globallashuvning birinchi to'liqiga kafil bo'ldi.

Globallashuvning jahondagi nizoli muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi g'oya N. Eynjelning "Buyuk illyuziya" nomli kitobida (1909) ishonchli ta'riflab berildi. Asarda muallif jahon mamlakatlarining bir-biriga iqtisodiy bog'liqligi natijasida global nizolar paydo bo'lishi mumkin emasligini isbotlab berdi: 1914 yil arafasida Britaniya va Germaniya (asosiy tashqi siyosiy antagonistlar) bir-biri uchun ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan savdo hamkorlari edi. Britaniya va Germaniya yalpi milliy mahsulotining tegishli ravishda 52 foizi va 38 foizi tashqi savdoga to'g'ri kelardi. Biroq 1914 yil avgustda millatlarning global yaqinlashuvi muqarrarligi haqidagi taxmin asossizligini ko'rsatdi. Birinchi jahon urushi millatlarning iqtisodiy-axborot-aloqaviy yaqinlashuviga qattiq zarba berdi.

Jarayonni jonlashtirish uchun ko'p vaqt talab etildi. XX asrning oxirgi o'n yilligidagina (ikkita jahon urushi, Buyuk turg'unlik va ko'p sonli ijtimoiy sinovlardan keyin) XX asrda yaratilgan liberal iqtisodiy tartib jahon amaliyotiga qaytadan joriy etila boshlandi. Rejali iqtisodiyot bilan raqobatlashishda G'arbning bozor iqtisodiyoti tizimi jahonni yagona bozor iqtisodiyotiga aylantirib, g'olib bo'lib chiqdi.

Globallashuvning ikkinchi bosqichi (tiklanish) 1970-yillarning oxirida ahborot va telekommunikatsiyalarda yuz bergan inqilob asosida boshlandi va globallashuv jarayonlarining yangi xususiyati yaqqol namoyon bo'ldi. Transmilliy korporatsiyalar va nohukumat tashkilotlar milliy chegaralarni osonlik bilan yorib o'tib, barcha mamlakatlarda faoliyat yurita boshladi.

Hozirga kelib, ko'pchilik mualliflar globallashuv tushunchasini "global" so'zi etimologiyasiga yaqin ma'noda, ya'ni yaxlit, umumiy, umumjahon ma'nosida talqin etadi va qo'llaydi. Jahon hamjamiyati uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, umuminsoniy hisoblangan, barcha xalqlar va fuqarolar, mamlakatlar hamda madaniyatlar manfaatlariga daxl qiladigan va ehtiyojini ifodalaydigan omillar, tendensiyalar va jarayonlar global hisoblanadi hamda shunday qabul qilinadi va baholanadi<sup>7</sup>.

*Global muammolar* bu umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq, hozirgi zamon muammolaridir. Global muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin:

*Birinchi*dan, *xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar* – jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mavqei katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g'oyat kuchaydi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo'lgan ijtimoiy munosabatlar avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo'ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko'rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi.

*Ikkinchi*dan, *Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bulgan global muammolar* – jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti

---

<sup>7</sup> Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь./Гл.ред. И.И. Мазур, А.Н. Чумаков. – СПб. – Й.: ИЦ "ЕЛИМА", ИД "Питер", 2006. – С. 163-167.

rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farq o'sib bormoqda. XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86 foizini ishlab chiqargan bo'lsa, kambag'al davlatlar atigi 1 foizni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir. Jahon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Masalan, milliy bozorni siqib qo'yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatni keltirib chiqardi.

*Uchinchidan, ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar – jahon aholisi muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va umuman fan-texnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklar tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi.*

*To'rtinchidan, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar - ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlaminin yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi natijasida qishloq xo'jaligida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi.*

*Jahon iqtisodiyoti globallashuvining makro va mikro darajalari.*

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni, ya'ni uzviy ravishda o'zaro bog'langan bir butun jahon xo'jaligining shakllanishi tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Mazkur jarayonning ibtidosi asrlar tubida yashirinib yotibdi.

Bu o'zgarishlar xalqaro infratuzilmada iqtisodiyot globallashuvining makro va mikro darajalariga olib keldi. Globallashuvning mikro darajasi kompaniyaning milliy chegaralardan tashqarida ishlab chiqarishni va bozorni kengaytirish strategiyasi bilan belgilanadi.

Globallashuvning makro darajasida milliy iqtisodiyotni xalqaro hamjamiyatga boshlovchi kuchlarning birligi tushuniladi. Bu kuchlarga birinchi darajada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni, texnologiyalarning almashinuvi, tovarlar va xizmat savdosining o'sishiga aytishimiz mumkin.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsiya uyushmalarining iqtisodiy faollikka tortib, savdo va investitsiya to'siqlarini olib tashlaydi, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi.

Globallashuv jarayonlari davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik TMK lar global miqyosda harakat qiladi. TMKlar globallashuv jarayonining sub'ekti bo'lib, globallashuvning asosini, ya'ni uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchidir.

Globallashuvning mikro darajasiga zamonaviy informatsion texnologiyalar sabab bo'lishi bilan bir qatorda, ko'pgina firmalar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qilingan sa'iy harakatlari, standartlashtirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish, o'lchash, ishlab chiqarilayotgan tovarning sifatini tekshirish va nazorat qilish, xalqaro savdoning tez o'sishiga yordam beradi.

Zamonaviy jahon xo'jaligi - bu nafaqat jahon ishlab chiqarish kuchlarining globallashuv natijasidir, balki ularning o'zi global moliya-kredit va valyuta to'lovlarining yaqin aloqasidir.

Barcha ob'ektiv o'zgarishlar, ishlab chiqarish, kommunikatsiya, savdo, xorijiy sarmoyalar va moliya soxalarida jahon iqtisodiyotini butun bir yaxlit organizmga aylantirdi.

Shu o'rinda globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlarini to'g'ri aniqlash ham maqsadga molikdir. Globallashuv jarayonining ijobiy tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashish chuqurlashib boradi. Bunda mablag' va resurslar samarali sarflanadi;

- globallashuv jarayonining asosiy ustunliklaridan yana biri xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqaror o'sishni ta'minlab berishi;

- globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi;

- globallashuv raqobatning kuchayishini yangi texnologiyalarni yaratilishini, shuningdek mamlakatlar o'rtasida keng tarqalishini ta'minlashi;

- xorijiy davlatlarnig ilg'or ilmiy-texnik, texnologik yangiliklarini amaliyotga tatbiq etish natijasida iqtisodiy qulaylikka erishilishi;

- globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo'shiladi va natijada narxlarni pasaytirish va tanlash imkoniyatini beradi;

- globallashuv ilg'or texnologiyalarning tarqalishi va global miqyosdagi ishlab chiqarishning ratsion almashuvi natijasida mehnat unumdorligi oshishiga olib keladi. Bunda jahon miqyosidagi innovatsiyallarni amaliyotga uzluksiz tatbiq etishi mumkin bo'ladi;

- globallashuv moliyaviy resurslarning asosiy qismi aylanishini ta'minlashga keng imkon yaratadi.

Globallashuv jahon hamjamiyatini turli sohalarda harakatlarini faollashtirib, insoniyat uchun umumiy muammolarni, eng avvalo ekologik muammolarni xalq etish uchun jiddiy asos yaratadi.

Xullas, ko'pchilik mutaxassislar, globallashuvning pirovard natijasi jahondagi mamlakatlarda farovonlikning oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlar rivojlangan mamlakatlarda xayrixoxlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning sababi shundaki, globallashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun ham globallashuvdan kim foyda ko‘radi, degan savol turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeyini mustahkamlab, ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi iqtisodiy kam rivojlangan mamlakatlar mavqeyi salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globallashuv jarayoni sub’ektlariga emas, balki ob’ektlariga aylantirishi mumkin.

### **1.3. Xalqaro mehnat taqsimoti – jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosi sifatida**

Milliy iqtisodiyotning yaxlit bir jahon xo‘jaligiga birlashishi, shuningdek xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmunini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir.

Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida u yoki bu jihatlari bilan birga xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) katta ahamiyatga ega<sup>8</sup>. Uning chuqurlashuvi esa-ilmiy-texnikaviy inqilobning (ITI) ta’siri ostida bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi qarashlar konsepsiyasi XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida yashab o‘tgan ingliz klassik ta’limotchilari A. Smit va D. Rikardo ishlarida asoslanib, rivojlantirilgan edi. A. Smit “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” kitobida (1776 y.) xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlikda erkinlik zarurligini isbotlagan. Uning fikricha, savdo erkinligida ro‘y berayotgan turli *to‘siqlar* butun bir davlatlar o‘rtasida ro‘y berayotgan xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuviga xalaqit beradi. To‘siqlarning tugatilishi va xalqaro almashuv maydonlarining kengayishi natijasida

---

<sup>8</sup> Назарова Г.Г., Халилов Х., Ханова И.М., Хакимов Н.Э., Бобожонов Б.Р, Жаҳон иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДИУ, 2006. - 51 б,

milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuvi va o‘zaro bog‘liqligi kengayishi, umumjahon xo‘jaligi yuzaga kelishi ro‘y beradi.

A. Smit keyinchalik o‘zining juda mashxur bo‘lgan erkin savdo shiorini olg‘a surgan edi. Uning konsepsiyasini esa keyinchalik ingliz iqtisodchilari D. Rikardo, R. Torrens va Jon Styuart Mill rivojlantirdi. Ushbu klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi ilmiy nazariyasiing asosiy yutuqlarini biz ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlar nazariyasida ko‘ramiz. Bu nazariya xalqaro savdo to‘g‘risidagi iqtisodiy ta‘limotning “klassik” asosi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qiladi? Birinchidan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, ikkinchidan, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, uchinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilish zarurati kabi omillar ta’sir qiladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishi – ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Xalqaro kooperatsiya va xalqaro ixtisoslashuv xalqaro mehnat taqsimotining asosiy shakllari hisoblanadi.

Turli davlatlardagi korxonalarining ma’lum bir tovarlarni chiqarishga ixtisoslashuvi zamonaviy ilmiy-texnika inqilobiga chambarchas bog‘liq. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ikkita yo‘nalish (ishlab chiqarish va hududiy yo‘nalish) bo‘yicha rivojlanib boradi, o‘z navbatida ishlab chiqarish yo‘nalishi:

- a) sohalararo;
- b) davlatlararo;
- v) alohida korxonalarining ixtisoslashuviga bo‘linadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli – xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning ob’ektiv asosi, ishlab chiqarish rivojlanishining o‘sib borayotgan darajasi hamda mamlakat tashqarisida ro‘y berishidan qat’iy nazar, mustaqil korxonalar o‘rtasida ro‘y berayotgan barqaror ishlab chiqarishdagi aloqalar jarayoni hisoblanadi.



Ishlab chiqarish kooperatsiyasi ma’lum bir munosabatlar tizimi sifatida xizmat ko‘rsatayotgan faoliyatning sohasi va hamkorlikning usuli hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o‘zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD) ma’lumotlariga qaraganda, global qo‘shilgan qiymat zanjirlari (GQQZ) xalqaro mehnat taqsimotida borgan sari rivojlanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida korxonalarining GQQZga ulanishini nazarda tutuvchi jarayonlarini jadallashtirish katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda<sup>9</sup>. Hozirga kelib, xalqaro savdoning 80 foizi GQQZ orqali amalga oshirilib<sup>10</sup>, mazkur jarayonda transmilliy korporatsiyalar yetakchi rol o‘ynamoqda<sup>11</sup>.

#### **1.4. Jahon iqtisodiyotning asosiy sub’ektlari**

Jahon iqtisodiyotini uning tarkibiy qismlari yoki asosiy qatnashchilari – sub’ektlaridan iborat mexanizm ko‘rinishida ifodalash mumkin. Ushbu sub’ektlarning asosiylari milliy iqtisodiyotlar, transmilliy korporatsiyalar (TMK), transmilliy banklar (TMB), integratsion birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy sub’ekti sanaladi. Milliy iqtisodiyotlarga xos asosiy xususiyat shundaki, dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiy suverenitetni saqlab kelishmoqda. Globallashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan, mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga tayanish lozim. Ba’zi integratsion birlashmalarda iqtisodiy suverenitet qarorlar qabul qilishning umumiy

---

<sup>9</sup> Industri\*al Development Report 2018: Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development, UNIDO, 2017.

<sup>10</sup> Global Value Chains and Development: Investment and Value Added Trade in the Global Economy. UNCTAD, 2013.

<sup>11</sup> Аъзам С.Э. Перспективы включения Узбекистана в глобальные производственные цепочки и рынок услуг аутсорсинга // “Рынок, деньги и кредит”. – Ташкент, 2015. – № 6. – С. 12-17.

mexanizmi bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Oxirgi o'n yilliklarda TMKlar darajasi ko'tarildi va butun dunyo ularning faoliyat (savdo, sanoat, moliya) yuritish maydoniga aylandi.

Natijada TMKlar global iqtisodiyotining muhim mustaqil tarkibiy qismiga aylanishdi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 1/5—1/4 qismi to'g'ri kelmoqda. TMKlarning aksariyat qismi o'z mamlakatlari ichki bozori uchun ishlashiga qaramasdan, globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblashadi. Globallashuv jahonni yagona bozorga aylantirish vositasi sifatida TMKlar uchun manfaatli hisoblanadi, chunki ular ushbu bozorda eng kuchli xo'jalik sub'ektlari sanaladi.

Shu bilan birga, TMKlarning manfaatlari doimo milliy iqtisodiyot manfaatlari bilan mos kelavermaydi. Shunga qaramasdan, globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida TMKlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va jahon xo'jaligining boshqa sub'ektlariga ta'siri ortib bormoqda.

Transmilliy banklar (TMB) hozirgi davrga kelib katta moliyaviy salohiyatga va bank xizmatlari bozorida yetakchi universal tijorat banklariga aylanishdi va TMKlar bilan birga jahon iqtisodiyotining asosiy sub'ektlariga aylandi.

Ular jahon moliya bozorlarida yetakchi mavqeyiga va murakkab va samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lib, dunyoning bir nechta mamlakatlarida faoliyat yuritadi. A.Bulatovning fikriga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyat transmilliy banklarning muhim yo'nalishiga aylandi. Masalan, 1960 yilda faqat 8 ta AQSH banki xorijiy davlatlarda o'z filiallariga ega bo'lgan bo'lsa, XX asrning 90-yillarining oxiriga kelib, ularning soni 100 tadan oshdi<sup>12</sup>.

AQSH, Germaniya va Yaponiyaning yirik tijorat banklari turli mamlakatlardagi ko'p sonli korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hajmini tobora oshirmoqdalar<sup>13</sup>.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab moliya bozorlarining globallashuv jarayoni kuchaydi. Bu holat moliyaviy oqimlarning universallashtirishida, moliyaviy

---

<sup>12</sup> Булатов А. Мировая экономика.-М.:Юрист, 1999.-с.208

<sup>13</sup> Жуков Е.. Банки и банковские операции.-М.:ЮНИТИ, 1997.- С.30

hamkorlikning yagona tamoyillarini ishlab chiqilishi va qabul qilinishida, moliya mexanizmlari va instrumentlarining unifikatsiyalashuvida namoyon bo'ldi.

Transmilliy banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga xilma-xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Lekin shu bilan birga, transmilliy banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar ichida quyidagi xizmatlar yuqori salmoqni egallaydi:

- yevrovalyuta bozorlari va xorijiy bozorlardan depozitlar jalb qilish;
- xorijiy valyutalar bilan xalqaro diling operatsiyalarini amalga oshirish;
- boshqa banklarga kreditlar berish;
- nodir metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- xalqaro savdoni moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro investitsion bank xizmatlarini ko'rsatish;
- kompaniyalarga muddatli kreditlar berish;
- trast xizmatlarini ko'rsatish.

TMBlarining kredit operatsiyalariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni e'tirof etish mumkin: birinchidan, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi yirik miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi, bu mablag'larni esa, faqat TMB bera oladi; ikkinchidan, TMB diversifikatsiyalashgan depozit bazasiga ega bo'lganliklari sababli uzoq muddatli kapital quyilmalarni amalga oshirish imkoniyatiga egadir.

TMB faoliyatining yo'nalishlari, ularning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirishdagi roli ular aktivlarining tarkibi va dinamikasida namoyon bo'ladi.

Dunyoning ayrim yirik transmilliy banklari aktivlarining tarkibida kreditlar, salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Banklarning aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar egallaydi. Bu esa, ularning fond birjalaridagi faoliyati ko'lamining kengayayotganligidan dalolat beradi.

TMB faoliyatining rivojlanishi bevosita ularni yetarli darajada resurs bazasi bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

TMB va TMKlar faoliyati natijasida aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti o'zaro birlashib, xalqaro hududiy iqtisodiy birlashmalarni tashkil etmoqda. Ushbu birlashmalar jahon xo'jaligining muhim mexanizmiga aylandi, ba'zilar, jumladan Yevropa Ittifoqi (YI) tashqi dunyoda o'z a'zolari nomidan faoliyat olib bormoqda.

Ammo ko'pchilik mintaqaviy integratsion birlashmalar (YI va Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasidan (NAFTA) tashqari) o'z a'zolari milliy iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Hozircha xalqaro iqtisodiy integratsiya jahonning nisbatan rivojlangan hududlarida muvaffaqiyatli amalga oshmoqda, boshqa hududlarda esa ushbu jarayon ularning rivojlanish darajasining ortishi bilan chuqurlashib boradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning soni va ahamiyati tubdan oshdi. Ushbu tashkilotlarda jahon iqtisodiyotidagi ulushi katta mamlakatlar hal qiluvchi rolga ega. Ayrim hollarda, boshqa mamlakatlar tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiya jihatdan qayd etib o'tilgan mamlakatlarga bog'liqligi sababli xalqaro tashkilotlarda ularning fikrini qabul qilishga majbur bo'lmoqda.

Shu bilan bir vaqtda, globallasuv jarayoni milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli milliy iqtisodiyotlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishga intilishi kuchayib bormoqda va ushbu tashkilotlarga a'zolik ko'plab iqtisodiy muammolarni ko'ptomonlama kelishuvlar asosida hal etish imkonini beradi. Natijada xalqaro tashkilotlar jahon iqtisodiyotining (avvalo, rivojlanayotgan kichik va o'rta mamlakatlarga nisbatan) kuchli sub'ektlariga aylanib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri global iqtisodiyotining rivojlanishi to'g'risida statistik tahlillar, hisobotlar tayyorlashdan iborat. Amaliyotda Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Umumjahon banki guruhi, YUNKTAD, Umumjahon savdo tashkiloti va boshqa tashkilotlarning nashrlaridan keng foydalaniladi.

*Tayanch so'zlar:* global iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, jahon bozori, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, kooperatsiya, transmilliy korporatsiyalar.

**Nazorat savollari:**

1. Jahon iqtisodiyotining tor va keng ma'nolaridagi tavsifi nima bilan farqlanadi?
2. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida nimani ifoda etadi?
3. Jahon iqtisodiyotining sub'ektlariga nimalar kiradi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qanday shakllari mavjud?
5. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday xususiyatlarga ega va global iqtisodiyot nimalar bilan farqlanadi?
6. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi nima va uning qanday belgilari mavjud?
7. Xalqaro mehnat taksimotining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
8. Xalqaro mehnat taksimoti rivojlanishigata'sir etuvchi kanday omillarni bilasiz?
9. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini xarakterlab bering.
10. Xalqaro ixtisoslashuv nima?
11. Ishlab chiqarish kooperatsiyasining mazmuni va mohiyatini tavsiflab bering.

## **2-bob. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI**

Reja:

- 2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ob‘ektiv manbalari va asosiy omillari
- 2.3. Global iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari.

### **2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari**

XX asrning oxiri – XXI asrning boshida globallashuv jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy, fundamental tendensiyasi sifatida qaror topdi.

“Globallashuv” deganda ko‘pincha iqtisodiy ochiqlikning oshishi, savdo-sotiq va xalqaro kapital erkinlashishi tushuniladi<sup>14</sup>.

*Globallashuv* jahon mamlakatlari iqtisodiyotlarining o‘zaro bir-biriga kirib borishini, o‘zaro bog‘liqligini va bir-biri bilan qo‘shilib ketishini ifodalaydi. Bunda bir mamlakatda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar boshqa mamlakatlarda o‘z aksini topadi, u yangi axborot texnologiyalariga asoslangan bo‘ladi va butun dunyoni bir butun sifatida ifodalaydi.

Globallashuv jarayoni turlicha qabul qilinadi va baholanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda unga turlicha munosabatda bo‘lishadi. Bir tarafdin, xorijiy raqobat uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdo, kapital va mehnat resurslari ko‘chib yurishining kuchayishi jahon ishlab chiqarish omillaridan samaraliroq foydalanish, jahon ishlab chiqarishini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun yutuq deb atash mumkin.

Jahon iqtisodiyoti (jahon xo‘jaligi, butunjahon iqtisodiyoti), eng qisqa ta’rifga ko‘ra – bu jahonning barcha milliy iqtisodiyotlarining yig‘indisidir. Agar jahon xo‘jaligi jahon mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi negizida

---

<sup>14</sup> Янченко Е. Глобализация мировой экономики: объективные тенденции и субъективные факторы. //Журнал международного права и международных отношений. 2010. № 3. <http://evolutio.info/content/view/1729/232/>

hisoblansa, 2018 yilda ularning hajmi taxminan 84,835.46 trln. dollarni (xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha taxminan 90 trln. doll.) tashkil qiladi.

Jahon iqtisodiyotida uning eng dinamik qismi – global iqtisodiyot ajratiladi. Bu milliy iqtisodiyotlarning resurslar va mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar)ni tashqi dunyoga yetkazib beruvchi va (yoki) ulardan oluvchi qismidir. Iqtisodiy nazariya bunday resurslar va mahsulotlarni, savdo qilinmaydigan, ya'ni milliy chegaralarni hatlab o'tmaydigan resurslardan farqli ravishda savdo qilinadigan resurslar va mahsulotlar deb nomlaydi. Tushunarliki, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ham eng avvalo global iqtisodiyot bilan bog'langan.

Global iqtisodiyotni miqdoriy baholashga urinib ko'rilsa, uning hajmi jahon iqtisodiyotidan bir necha marta kam bo'ladi. Bu shuning uchun ro'y beradiki, jahonning yetakchi iqtisodiyotlari (masalan, jahon YaIM hajmining 90 %ini ishlab chiqaruvchi YaIM hajmi bo'yicha eng yirik 20 ta mamlakat) avvalgidek, tashqi bozordagi emas, balki ustun ravishda ichki bozordagi mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifga yo'nalgan bo'ladi. Masalan, Rossiyada import, tovarlar va xizmatlar iste'molining 13-14%ni ta'minlaydi, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 16-18% eksportga yo'naltiriladi, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimi Rossiya iqtisodiyotiga umumiy kapital qo'yilmalar hajmiga eng ko'pi bilan 16% (ya'ni Xitoy va Braziliya darajasida) hissa qo'shadi, mamlakatga doimiy va vaqtincha ishlash uchun kirib kelgan ishchi kuchi, baholashlarga ko'ra ish joylarining 10 %ga yaqinini tashkil qiladi. AQSH va Xitoyda ushbu ko'rsatkichlar bundan yuqori emas.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi ko'p jihatdan global muammolar tushunchasi bilan bog'liqdir. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat oldida juda ko'p murakkab muammolar vujudga keldi. Ularning asosiy qismi ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi.

XX asrning 60 yillariga kelib global muammolar tor doiradan keng doirada ishlatilishiga o'tib qoldi. Ushbu davrdan boshlab jamiyatning ushbu bobga qiziqishi intensiv ravishda oshib bordi va uning muhokamasi keng doiradagi majlislarda ko'rila boshladi.

Ushbu bobga juda katta qiziqishning sababi bo'lib birinchi o'rinda insoniyatning yer kurrasining hatto bir chekkasida yuzaga kelgan jiddiy muammo bir kun kelib butun planetaga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkinligini tushunib yetganligi bo'ldi.

Global muammolarni o'rganish va insoniyatni kelajagini tahminlash jarayoni bo'yicha ilmiy ishlarni olib borishda italiyalik menedjer Aurelio Pechchei tomonidan tashkil etilgan xalqaro nohukumat tashkiloti bo'lmish – Rim klubi alohida o'rin egallaydi.

Rim klubi a'zolari o'z oldilariga ikkita maqsadni qo'yadi:

birinchisi, insoniyat oldida turgan asosiy global muammolarni aniqlash,

ikkinchisi, jamiyatga ushbu global muammolarni taqdim etib, ularning bartaraf etish borasidagi eng dolzarb ishlarini belgilab olib amalga oshirish.

Rim klubidagi ma'ruzalar ushbu izlanishlar natijasi bo'ldi va ularda mashhur olimlar global muammolarni hal etishning turli yo'llarini yoritgan edilar.

Rim klubini birinchi ishlaridan biri bo'lib, umumjahon rivojlanishini matematik modelga qo'yish bo'ldi. Ushbu model rivojlanishning asosiy parametrlari bo'lgan aholi, kapital qo'yilma, qayta tiklanmaydigan resurslarning ishlatilishi, atrof muhitning ifloslanishi, iste'mol mollarini ishlab chiqarilishi kabilarni e'tiborga olgan edi.

Rim klubi a'zolari orasidan keyinchalik bir qancha ma'ruzalar tayyorlandi. Bu ma'ruzalarda sivilizatsiyani qayta tiklash va atrof muhitni ifloslovchi insonlar ongini yangilash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Darhaqiqat, global muammolarni bu qadar chuqurlashib ketishiga asosiy sabablardan biri bo'lib, odamlar hayotining har jihatiga o'z ta'sirini o'tkazib bo'lgan ilmiy - texnik taraqqiyoti desa bo'ladi.

Uning ijobiy natijalari bilan birga, ilmiy, texnikaviy, texnologik imkoniyatlar insonlar uchun kimyoviy, baktireologik, yadroviy qurollarini yaratish imkonini ham berdi.

Shu jihatdan, butun dunyoni va insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan



birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deb atash mumkin.

Global muammolar, o'z navbatida, aholi iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyoti va atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasidir.

Global muammolar:

birinchidan jami insoniyatga, barcha mamlakatlar, xalqlar, ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va taqdirlariga ta'sir ko'rsatuvchi;

ikkinchidan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta talofatlarga, inqirozlarga sabab bo'luvchi, chuqurlashgan taqdirda esa jahon sivilizatsiyasining mavjudligiga ham xavf soluvchi;

uchinchidan yechimini topishga umumplanetar miqyosdagi hamkorlikni barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishini talab qiluvchi muammolardir.

Global muammolarning orasida eng muhimlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqlikdan chiqarish muammosi;
- tinchlik va qurolsizlanish muammosi;
- ekologik muammolar;
- energetik muammolar;
- xom - ashyo muammosi;
- gumanitar muammolar;
- oziq - ovqat muammosi kabi muammolar alohida ajralib turadi.

*Rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqlikdan chiqarish muammosi.*

Hozirgi kunda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30 foiziga yaqini qoloq hisoblanadi. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Oxirgi paytlarga qadar kambag'allik, asosan daromadning borligi yoki yo'qligi nuqtayi nazaridan qarab kelingan. Ammo kambag'allik daromadning yoki qabul etilgan kaloriyalarning kamligiga qaranda g'oyat keng ko'lamdagi tushunchadir.

Bu – uzoq, sog‘lom va ongli hayot kechirish hamda yaxshi turmush darajasi, qadr-qimmat, g‘urur va o‘zgalarni ham qadrlash darajisiga erishish uchun keng ko‘lamda zarur bo‘ladigan imkoniyatlar va tanlash huquqidan maxrumlik demakdir.

Yer kurrasining, pana-pastkamlarda, omonat boshpanalarda, noqonuniy kirib olgan kulbalarda, eng kam ijara haqi to‘lanadigan uylarda, salomatlik borasida bir olam muammolari mavjud dunyo aholisining katta qismi o‘z hayot tarzini yaxshilash imkoniga ega bo‘lmagan holda kambag‘allik iskanjasida yashamoqdalar.

Eng rivojlangan davlatlar va uchinchi dunyo davlatlari o‘rtasidagi rivojlanishda va yashash sharoitida o‘sib borayotgan farq muammosi yechimini topmayapti.

#### *Tinchlik va qurolsizlanish muammosi.*

XX asrning eng asosiy hodisalaridan bo‘lmish ikki qutbli tizimni yo‘qolganidan so‘ng ko‘pchilik endi dunyoda faqat tinchlik bo‘ladi, eng asosiy qarama - qarshi kuchga barham berildi deb hisoblagan edi.

Urush va tinchlik muammosi XX asrning ikkinchi yarmining deyarli 40 yili mobaynida haqli ravishda insoniyatning eng muhim muammosi bo‘lib kelgan.

Albatta bizning asosiy maqsadimiz yerda tinchlikni saqlash, insoniyat uchun qaytarib bo‘lmas kulfatlar keltiruvchi turli ziddiyatlarni oldini olish, geosiyosiy tenglik va barqarorlik muammolarini hal etishdir.

Insoniyatning shu vaqtgacha ortirgan harbiy potensiali yerdagi barcha tiriklikni bir necha marta yo‘q qilish imkonini beradi, shu sababli bunday xolatlarga javobgarlik va mas‘uliyat hukumat va davlat boshliqlariga tegishlidir.

BMTning ma‘lumotlariga qaraganda, har bir daqiqada dunyoda 30 ga yaqin bola to‘yib ovqat yemaslik, ochlik va bedavo kasallar tufayli hayotdan ko‘z yumadi. Huddi shu muddat mobaynida harbiy maqsadlarga 1,7 mln. AQSH dollar xarajat qilinadi. Ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun o‘zi yetishmay turgan resurslarni harbiy xarajatlar yana ham qisqartirib yubormoqda.

Qurollanish poygasining iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlari borasida quyidagi ayrim raqamlarni keltirish mumkin:

- bitta askarni o‘qitish xarajatlari 80 bolani o‘qitish xarajtlariga teng;

- bitta bombani ishlab chiqishga ketgan xarajatlar chechak kasalligini 10 yil bartaraf etishga ketadigan xarajatga teng;

- bortida yadro raketasi bo'lgan bitta suvosti kemasini qurishga ketgan mablag'ga 450 ming uy qurish mumkin <sup>15</sup>.

Ma'lumki, odatdagi va o'qotar qurollar bilan birga XX asrda yadro, kimyoviy va bakteriologik qurollar ham keng tarqala boshladi.

*Yadro qurollari.* 1945 yilning avgustidan, jahon yadro urushlari davriga kirishi bilan dunyo butunlay o'zgarib ketdi. Yadroviy qurollarni keng ko'lamda taqiqlash to'g'risidagi shartnoma yadroviy qurolsizlanish va yadro qurollarini tarqatmaslik uchun kurash tarixida muhim bosqich hisoblanadi.

*Kimyoviy, bakteriologik qurollar* ham yadro qurollari singari o'lim sochishi va vayronagarchiliklar keltirishi mumkin. Kimyoviy va biologik qurollar ham, yadro qurollari singari ommaviy qirg'in qurollari deb hisoblanadi.

*Odatdagi qurollar* tarkibiga quruqliqda, dengizlarda va havoda foydalaniladigan an'anaviy qurol-yarog' kiradi. Butunjahon harbiy xarajatlarning 80 % dan ortiqrog'i odatdagi qurollar va qurolli kuchlarga to'g'ri keladi.

*Ekologik muammolar.*

Hozirgi vaqtda global ekologik tizimning degradatsiyalanishi to'g'risida so'z yuritilmoqda. Ushbu jarayonni shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- ilmiy asoslanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof muhitning degradatsiyalanishi;

- atrof muhitni inson faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishi;

- atrof muhitni ushbu chiqindilar bilan zaharlanishi;

Shunday qilib, ishlab chiqarishning o'sishi, ilmiy - texnik inqilob natijalari va tabiat imkoniyatlaridan o'ylamay foydalanish dunyo olidida global ekologik inqiroz oldida turganligini bildirmoqda.

---

<sup>15</sup> We the Peoples, The Role of the United Nations in the 21 st Century. UN. Briefing Papers for Students. Tashkent. 2003. p. 239.

Bunga isbot sifatida Shimoliy yarim sharning o'zida so'nggi yillarda tabiiy ofatlar suv bosish, kuchli shamol, quruqlashish xolatlarini 2,5 barobar oshganini, Arktika muzlarining qalinligi o'zgarganligini keltirish mumkin. Oxirgi yillarda qorning erishi tezlashib, yiliga 10 sm ga etgan va bu jarayon kundan kunga o'sib bormoqda.

Ishlab chiqarish xajmi va sur'atini nazoratsiz o'sishini davom etilishi va bu bilan bog'liq bo'lgan tabiatdan o'ylamay foydalanish keyinchalik insonlarga zarur bo'lgan resurslarni ham topish imkonsizligiga olib kelishi mumkinligini tushunish zarur.

Resurslarni to'xtamay va betartib iste'mol qilinishi insoniyatni jahon inqirozi poyonida turganligini anglatmoqda. Planetaning ekologik ifloslanishiga alohida hissa qo'shayotgan manbalar butan, gaz, avtomobil gazlari, ximikatlardir.

Atmosferaga uglekislrod gazi kuniga 5 milliard tonna miqdorida chiqarilmoqda. Natijada atmosferaning ozon qatlamini yo'qolishi muammosi vujudga kelmoqda. 1992 yili AQSH olimlarining fikriga ko'ra, ozon qatlami Shimoliy yarim sharda 30-40 % ga kamaygani tasdiqlangan. Yerlarning saxrolashishi davom etishi bir milliarddan ortiq odamning hayotini xavf ostiga solmoqda.

Dunyo mamlakatlari bu jarayon oqibatida ko'rayotgan zarari har yili 42 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda. Muammo global xususiyatga ega bo'lib Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham juda dolzarb hisoblanadi.

#### *Energetik muammolar.*

1973 yilda yuz bergan energetika inqirozi va uning oqibatlari hozirgi kungacha sezilmoqda.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, hozirgi kundagi yoqilg'i iste'moli hajmida (agar yoqilg'i iste'molining hozirgi kundagi hajmi o'zgarmasa) Yer sayyorasida shu kungacha aniqlangan yoqilg'i zaxiralari yana 150 yilga etishi mumkin. Xususan, neft zaxiralari 35 yilga, tabiiy gaz – 50 yilga va ko'mir 425 yilga etadi.

Ma'lumki, qazilma boyliklar konlari bir tekisda joylashmagan. Jahon neftining 35 % va tabiiy gazning 17 % O'rta Sharqda jamlangan bo'lib, Shimoliy Amerika ham ushbu turdagi yoqilg'i zaxiralariga boydir.

Jahon tabiiy gaz zaxiralari esa neft zaxiralariidan ko'ra nomutanosib joylashgan bo'lib – atigi uchta davlatga (Rossiya, Eron va Qatar) 60% to'g'ri keladi. 2007 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jahon bo'yicha tabiiy gaz zaxiralari 175.1 trln.kub.m.ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining hududlari ham neft va tabiiy gaz bo'yicha yuqori potensialga ega, zero respublika hududining qariyb 60 % i istiqbolga egadir. Neft va tabiiy gazga boy bo'lgan bir qator mintaqalarda (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Surxondaryo va Farg'ona) ko'plab konlar ochilgan.

Ma'lumki, hozirgi zamonda yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab butun dunyoda oshib bormoqda. Shu tariqa, jahon va milliy tabiiy zaxiralarning kamayib borish tendensiyasining ob'ektiv jihatlari, atrof muhitning ifloslanib borishi, neft-gaz qazib chiqarishning globallasuvi, sanoati rivojlangan davlatlar tomonidan uglevodorod xom - ashyo bilan o'zini ta'minlanishining pasayib borishi, neft va gaz narxlarining tez o'sib ketishi natijasida va to'lash qobiliyatga ega yirik iste'molchilarning paydo bo'lishi global energetik xavfsilik muammolarini kelib chiqishiga olib kelayapti <sup>16</sup>.

*Xom - ashyo muammosi.*

Energetik muammo va undan keyingi chuqurlashgan xom - ashyo muammosi yoqilg'i va xom - ashyoga bo'lgan talab va taklif nisbati bilangina belgilanmasdan balki ularni qazib chiqarish sharoitlari, xom - ashyo qazib olinayotgan va u birlamchi qayta ishlanayotgan hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi bilan ham bog'langandir.

Global muammolarni hal qilishning asosiy yo'nalishi bo'lib o'sish chegarasini aniqlash, planetaning resurslarini oqilona foydalanishga o'rganish, qayta tiklash imkonsiz yoki qiyin bo'lgan resurslarni tejab ishlatishdan iborat.

---

<sup>16</sup> Сергеев П.А. Проблемы мировой энергетической безопасности. //Мировая экономика и международные экономические отношения. 2007. №12. С. 15-24.

Resurslarni saqlash muammosi ularni ratsional ishlatish va insoniyatga optimal va to'g'ri taqsimlanish zaruriyatini ko'rsatadi. Chunki buning orqasidan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar yuzaga kelib, ularning hal etish yo'li to'g'ridan - to'g'ri atrof muhit bilan hal etish lozimligi bilan ham belgilanadi.

#### *Gumanitar muammolar.*

Bugungi kunda gumanitar muammolar asosiy va jiddiy masalalardan bo'lib ko'rinmoqda. Hozirda bir milliard aholi o'ta qashshoqlikda va ochlikda yashashini hamda 4,8 milliard aholi zamonaviy tibbiyot xizmatlaridan mahrumligi, bir yarim milliard aholi munosib yashash sharoitiga ega emasligi juda achinarli xoldir. Rivojlanayotgan davlatlarning aholisi o'z daromadlarining 90 foizini oziq - ovqat xarajatlari uchun sarflaydi, ammo bu ularga normal oziq - ovqat bilan ta'minlashga yetmaydi, oddiy amerikalik esa daromadining 20 foizini oziq - ovqatga xarajat qiladi va bu u uchun yetarli hisoblanadi.

Bu muammo ko'rinishidan yuzaki bo'lgani bilan, chuqur muammolardan biridir. Kambag'allik hukm surgan rivojlanayotgan davlatlarda OITS, gepatit, saraton (rak) kabi kasalliklar asosiy muammolardan biriga aylanmoqda. To'g'ri, hozirda rivojlangan davlatlar tomonidan gumanitar yordamlar ko'rsatilmoqda, ammo bu yordamlar yetarli darajada bo'lmayapti.

Juda jiddiy muammolardan biriga hozirgi kunda *ichimlik suvi muammosi* ham aylanib bormoqda. Chunki ichimlik suvining umumiy zahirasi barcha mavjud suvlarning atiga 3 foizini tashkil etadi.

#### *Oziq- ovqat muammosi.*

Global oziq - ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi. Ocharchilik qadimgi davlatlarda ham, o'rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insonlarni boshiga tushgan eng katta muammodir.

Ocharchilik ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shaklda ocharchilik surunkali davom etadi, uning natijasida odamlarning ahvoli yomonlashadi, tinkasi quriydi va xavfli kasalliklarga chalinish ehtimolligi kuchayadi. Ocharchilikning bu shakli to'yib ovqat yemaslik deb nomlanadi.

Ikkinchi shaklda ma'lum bir vaqtda va ma'lum bir hududda qurg'oqchilik yoki boshqa bir sabablar bilan bog'liq bo'lgan ocharchilik oqibatida millionlab insonlar halok bo'ladi.

Insonning bir kunlik oziq - ovqat normasi 2400-2500 kkal dan past bo'lmasligi lozim. Ovqat to'yib yemaslik holati 1800 kkal dan tushgan paytda sezila boshlaydi. Ocharchilik esa ushbu ko'rsatkich 1000 kkal dan kam bo'lganda kuzatiladi.

G'arbda yashovchi 1,2 mlrd. kishi organizmlari talab qiladigandan ko'proq oziq-ovqat iste'mol qiladilar. Masalan, AQSHda ortiqcha ovqatlanish oqibatlarini bartaraf etish uchun har yili 100 mlrd. AQSH doll. dan ko'proq mablag' sarflanadi. AQSH, Fransiya, Belgiya va Avstriyada eng ko'p reklama qilinadigan tovarlar oziq-ovqatlar hisoblanadi. Har ikki AQSH fuqarosining biri (aholining 55 foizi) ortiqcha vaznga ega.

BMT Bosh Assambleyasining 55 - maxsus sessiyasi - Ming yillik sammiti (2000 yil, 6-8 sentyabr) arafasida tayyorlangan ma'ruza BMTning globallashtirish davridagi roliga bag'ishlangan. Bosh kotib o'zining "Biz, xalqlar: XXI asrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli" ma'ruzasida insoniyat oldida turgan muammolar obzorini taqdim etdi va ularni amaliy hal etishni tavsiya etdi. Ushbu xujjat "Ming yillik ma'ruzasi" nomi bilan mashhur bo'lib, ma'ruzada Bosh kotib globallashtirish hammaga foydasi tegishi uchun bo'ysundirishga yo'naltirilgan xarakterli rejasini tavsiya etdi.

Hozirda bir milliardga yaqin aholi o'ta qashshoqlikda yashamoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish asosiy masalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli 2000 yilgi BMT ning Ming yillik uchun rejalar Sammitida ushbu muammoga qarshi kurashish deklaratsiyasi qabul qilindi.

Natijada, global muammolar dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari bilan bog'liqdir. Ma'lumki ushbu muammolarni hal qilishga hozirda turli tashkilotlar hamda davlatlar katta miqdorda mablag' ajratishgan va ajratishmoqda.

Globalashuvning foydasi ko'z oldimizda: yanada tezkor iqtisodiy o'sish, yanada yuksak turmush darajasi, yangi imkoniyatlar. Biroq bu jarayonda, allaqachon

salbiy ta'sir o'zini namoyon etmoqda, chunki bu foydalar haddan tashqari notekis taqsimlanayapti, chunki hozirga qadar global bozor hamjihatlikdagi ijtimoiy maqsadlarga asoslangan qoidalarga amal qilmaydi <sup>17</sup>.

1945 yilda BMT asoschilari xalqaro dunyoning ochiq va hamkorlikga assolangan tizimini yaratgan edilar. Bu tizim o'z vazifalarini bajarayapti va globallashuvni hayotiy haqiqatga aylantirdi.

Bularning hammasi jahon hamjamiyati tomonidan Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM) ning ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. MRM 2015 yilgacha amalga oshirilishi zarur bo'lgan 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hukumatlarining hamda xalqaro tashkilotlarning maqsadga yo'naltirilgan va o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari Mingyillik Deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishishning asosiy mexanizmi sanaladi.

O'zbekistonning MRM ga erishish yo'lida olib borayotgan harakatlari taxsinga loyiq. Zero mamlakatda buning uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjud. Ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetarli tajribaga ega bo'lgan hukumat siyosiy institutlari va mexanizmlari, shuningdek, ko'p sonli xalqaro tashkilotlar bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari shular jumlasidandir.

2.1 - jadval

### Ming yillikning global maqsad va vazifalari

1-maqsad. O'ta qashshoqlikka va ochlikka barham berish	1-vazifa. Kuniga 1 dollardan kam mablag' hisobiga hayot kechirayotgan kishilar miqdorini 2 barobar kamaytirishga erishish. 2-vazifa. Ochlikdan azob chekayotgan kishilar miqdorini 2 barobar kamaytirishga erishish.
2-maqsad. Umumiy boshlang'ich ta'limga erishish	3-vazifa. Hamma qizlar va bolalarning boshlang'ich ta'lim maktablarida qatnashishi hamda uning to'la

<sup>17</sup> We the Peoples, The Role of the United Nations in the 21 st Century. UN. Briefing Papers for Students. Tashkent. 2003., p. 6.



	kursini tamomlashiga erishish.
3-maqsad. Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish	4-vazifa. 2015 yilga kelib ta'limning barcha darajalarida gender tengsizligini bartaraf etish.
4-maqsad. Bolalar o'limini qisqartirish	5-vazifa. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasini uchdan ikkiga qisqartirish.
5-maqsad. Onalar salomatligini yaxshilash	6-vazifa. Onalar o'limi sonini to'rt dan uchga qisqartirish.
6-maqsad. OIV(OITS), bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash	7-vazifa. OIV(OITS) kasalligining tarqalishini to'liq to'xtatish va kasallikka chalinish holatlarini qisqartirish tamoyiliga asos solish. 8-vazifa. Bezgak va boshqa o'tkir yuqumli kasalligining tarqalishini to'liq to'xtatish va kasallikka chalinish holatlarini qisqartirish tamoyiliga asos solish.
7-maqsad. Ekologik barqarorlikni taminlash	9-vazifa. Ayrim mamlakatlar strategiyasi va dasturlariga barqaror rivojlanish tamoyillarini kiritish va tabiiy zaxiralardan maxrum bo'lish jarayoniga barxam berish. 10-vazifa. Toza ichimlik suvidan doimiy baxramand bo'lish imkoniyati bo'lmagan kishilar miqdorini 2 barobar kamaytirish. 11-vazifa. 2020 yilga borib xarobalarda yashovchi kamida 100 mln. kishining hayotini yaxshilashni ta'minlash.
8-maqsad. Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish	12-vazifa. Ochiq, boshqariladigan, faoliyatini oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan hamda nodiskriminatsion savdo va moliya tizimini shakllantirishni davom ettirish. 13-vazifa. Eng kam rivojlangan mamlakatlarning alohida ehtiyojlarini qondirish, jumladan, eng kam rivojlangan mamlakatlarning eksport tovarlarini tarif va kvotalardan ozod qilish, qashshoq davlatlarning qarz yukini engillashtirish va rasmiy qarzlarning ikkitomonlama voz kechilishi bo'yicha dasturlarni kengaytirish, qashshoqlikni qisqartirish yo'lidan borayotgan mamlakatlarga yanada katta yordam ko'rsatish. 14- vazifa. Dengiz yo'llariga ega bo'lmagan davlatlar hamda rivojlanayotgan kichik orol-davlatlarning alohida ehtiyojlarini qondirish. 15-vazifa. Uzoq muddatda tashqi qarzlari darajasini qisqartirish maqsadida milliy va xalqaro miqyosda tashkil etiladigan choralar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzдорlik masalalarini ijobiy xal qilish. 16-vazifa. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlikda yosh mutaxassislariga o'zi uchun mos va samarali ish topishlarida ko'maklashadigan strategiyalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish. 17-vazifa. Dori-darmon ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan hamkorlikda arzon dorilarni yetkazib berishni ta'minlash. 18-vazifa. Yangi texnologiyalar yutuqlaridan (ayniqsa telekommunikatsiya sohasidagi) barcha foydalanishi

Manba: Ekonomicheskoe obozrenie. 2004, № 10.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarishiga qaramay, zamonaviy dunyo yuzma-yuz kelayotgan taxdidlar yo'qolmay kompleks (majmuaviy) ahamiyat kasb etmoqda.

«Parranda grippi»ning keng tarqalib ketishi buning yaqqol isbotidir. Ushbu muammo yuzasidan Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti 2005 yilning 7-9 noyabr kunlari 10 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirokida xalqaro yig'ilish o'tkazdi va bu kasallika qarshi kurashish dasturining asosiy masalalarini belgilab oldi.

So'nggi yillarda BMT ushbu tahdidlarga kopleks tarzda qarshilik ko'rsatish uchun barcha chorlarni ko'rmoqda. BMT ning Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan sammitida umumiy muammolar ko'rib chiqilib, qo'yilgan maqsadlarga erishish siyosati va strategiyasi belgilab olindi.

Sammit davomida bir qator global tahdid va muammolarga nisbatan ko'riladigan choralar belgilandi. Jumladan, terrorizmga qarshi kurash, tinchlikni o'rnatish, demokratiya tamoyillariga rioya qilish, inson huquqlarini va qonun ustuvorligini ta'minlash, atrof-muhitni asrash va sog'liqni saqlash, gumanitar yordam berish va b.

*Jinoyatchilik, giyohvanlik, terrorizm, ifloslanishlar, kasalliklar, qurollar, qochoqlar va migrantlar* – bularning hammasi u yoqdan – bu yoqqa ilgari qaraganda katta tezlikda va katta hajmda harakatlanmoqda.

*Kambag'allik.* Keyingi yarim asr mobaynida beqiyos iqtisodiy yutuqlar qo'lga kiritildi. 2,8 mlrd. kishi yoki yer yuzi aholisini yarmi 2 AQSH dollari qiymatidan kamroq pulga kun kechiradi. Haligacha 1, 2 mlrd. odam kuniga bir AQSH dollaridan kam mablag' hisobiga kun kechirmoqda.

Kamag'allarning ko'pchiligi Janubiy Osiyoda yashaydilar. Kamag'allarning eng yuqori xissasi Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Bu erda odamlarning 46,3 % - mintaqaning qariyb yarim aholisi kamag'allikda hayot kechiradi.

Qariyb bir milliard odamlar savodsiz, bir milliarddan ortiq odam toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan, 840 mln. odam ochlik iskanjasida yoki oziq-ovqat yetarli emas, besh yoshgacha bo'lgan barcha bolalarning uchdan bir qismi qorinlari to'ymaganlikdan azob chekadilar.

Yer kurrasi aholisining beshdan bir qismi (20 foiz) katta daromad olish mumkin bo'lgan mamlakatlarda yashaydi, ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotning 86 foizi to'g'ri keladi. Eng kambag'al mamlakatlarda yashaydigan beshdan bir qism aholiga esa yalpi ichki mahsulotidan bir foizi to'g'ri keladi.

Kamag'allik ko'lamlarini qisqartirishning milliy va xalqaro maqsadli ko'rsatkichlari quydagilardan iborat:

- assosiy xizmatlardan bahramand bo'lish;
- sermahsul bandlik;
- turmush kechirish uchun barqaror imkoniyat manbalari;
- himoyalangan xissi;
- notengriklarni qisqartirish;
- kamsitishlarni bartaraf etish;
- o'z hamjamiyati hayotida ishtirok etish.

Sammitda kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha 117 mamlakat o'z zimmasiga majburiyatlar oldilar.

*Iqlim o'zgarishlari.* Ilgari global muhit odamlarni o'zgartirgan, endi esa odamlar muhitni o'zgartirib yubormoqdalar. Bugunga kelib eng jiddiy o'zgarish yer atmosferasida yuz berdi.

Bu ayniqsa, karbonat angidrid (SO<sub>2</sub>), metan (SN<sub>4</sub>), va azot okisi (N<sub>2</sub>O) singari "parnik" gazlariga taaluqlidir.

Mazkur muvozanatni ko'mir, neft, tabiy gaz yoqish va atmosferaga juda katta hajmda karbonat angidrid chiqarish natijasida sodir bo'layapti.

Agar ular xuddi hozirgi sur'atlada ajralib chiqaveradigan bo'lsa atmosferadagi karbonat angidrid gazining miqdori, XXI asrda shubhasiz sanoat taraqqiyoti davriga qadar bo'lgan darajaga qaraganda qariyb ikki barobar oshib ketadi. Agar parnik

gazlari ajralib chiqishini qiqartirish choralari ko‘rilmasa, ularning miqdori 2010 yilga borib uch barobariga ko‘payishi ehtimoldan yiroq emas.

Iqlim o‘zgarishlari uzoq davrlar mobaynida juda muhim muammo sifatida tan olib kelingan edi. 1979 yilda iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risida o‘tkazilgan Birinchi butunjahon konferensiyasida iqlimning o‘zgarishi inson faoliyatiga qanday ta’sir etishi mumkinligi maslasi ko‘rib chiqildi. 1992 yilning may oyida Nyu-Yorkda ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha Konvensiya qabul etildi va Rio-de-Janeyroda 154 davlat va Yevropa hamjamiyati tomonidan imzolandi. Konvensiya 21 martda kuchga kirdi., 2000 yilga borib uning qatnashchilarining umumiy soni 184 taga etdi.

1990 yilda Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi o‘zining birinchi baholovchi hisobotini chiqardi. 1995 yilning dekabrda Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruh o‘zining ikkinchi baholovchi hisobotini chiqardi. 1997 yilning dekabrda, Yaponiyada Konvensiyaga imzo chekkan davlatlarining uchinchi konferensiyasida qariyb yuz ming delegat, sharhlovchi va jurnalistlar tarixiy Kioto protokolini qabul etilishining guvohi bo‘lishdi. Kioto protokoliga binoan:

- sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar ajralib chiqayotgan parnik gazlari umumiy xajmini 2008-2012 yillarga borib 1990 yilgi darajaga nisbatan kamida 5 % qisqartirish uchun rasman majburiyat oldilar, ko‘pchilik Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlari 8 foiz, AQSH 7 foiz, Vengriya, Kanada, Yaponiya va Polsha 6 foiz qisqartirishlari kerak. Ajrayotgan gazlarni Norvegiya 1 foiz, Avstraliya va Islandiya 10 foiz qisqartirishlari kerak;

- asosan oltita parnik gaziga, jumladan, karbonat angidrid, metan, azot oksidi, ftorli uglevodorod, perftoruglerodlar va elegazlarga e’tibor qaratildi;

- gaz ajralib chiqishini qisqartirish ishonchli va tekshirib aniqlash imkoni bo‘lgandagina tan olinadi.

Protokolda emissiyani qisqartirish borasida qo‘ydagi strategiyalarni belgilab berilgan:

- uglerodni ko‘p chiqaradigan tadbirlarga sarf etiladigan maxsuldorligini asta-sekin qisqartirish;

- eng yaxshi texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish, energiyani tejab-tergaydigan va boshqa me'yorlarni joriy etish;

- jamotchilik transportining takomillashgan tizimini ishlab chiqish va yaratish;

- odamlarning o'zlarining shaxsiy avtomobillardan emas, balki jamoatchilik transportidan ko'proq foydalanishlarini rag'batlantirish;

- yanigi uylar va jamoatchilik binolarning kam miqdordagi yoqilg'i bilan isitilishi uchun qurilish me'yorlariga talabchanlikni oshirish.

*Giyohvadlik.* Giyohvadlik masalasini hal etish muammolari bilan BMT o'zining tashkil etilgan paytlaridanoq shug'ullanmoqda:

- 1946 yilda, uning tarkibiga aylanma asosda 53 mamlakat kiradigan Giyoxvand vositalar bo'yicha komissiya tuzilgan;

- BMTning giyohvand moddalarga qarshi kurash bilan shug'ullanadigan bo'linmasi 1990 yilda BMTning giyohvand moddalarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro dasturi (YUNDSP) bilan birlashdi;

- Dastur 1999 yilda Xalqaro jinoyatchilikdan ogohlantirish bo'yicha Markaz bilan birlashtirildi va Giyohvand moddalarni nazorat qilish va jinoyatchilikdan ogohlantirish boshqarmasi tashkil etildi. Boshqarmaning qarorgohi Vena shahrida joylashgan.

Giyohvadlik jiddiy muammolar keltirib chiqarish va bu masalaga jiddiy e'tibor zarurligini anglab yetish oqibatida 1990 yilda Shanxayda ilk bor paydo bo'lgan Opium kommissiyasining ishlari natijasi o'laroq birinchi xalqaro cheklashlar o'rnatildi. Shundan buyon meditsina maqsadlarida ishlatiladigan turli modddalarni sotish va ulardan foydalanishni cheklaydigan ko'plab xalqaro bitimlar imzolandi.

Giyohvad vositalar to'g'risida yagona konvensiya (1961 yil) meditsinada foydalaniladigan turli moddalarni sotish va ulardan foydalanishni cheklaydigan xar xil shartnomalarni birlashtirdi. U 1972 yilda giyohvandlarni davolash va avf etish bo'yicha xizmatlarning taqdim etilishi zarurligini ta'kidlagan Protokol bilan to'ldirildi.

Behush qiluvchi moddalar to'g'risidagi konvensiya (1971 yil) aqliy faoliyatiga ta'sir etadigan farmatsevtika dori-darmonlarni va boshqa moddalar ro'yxati bo'yicha xalqaro nazorat tizimini o'rnatdi.

BMTning giyohvand va behush qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi bo'yicha konvensiyasi (1988 yil) giyohvand moddalar bilan noqonuniy savdo qilish masalalari bilan shug'ullanadi va o'z ichiga bundan daromad olish hamda noqonuniy giyohvand moddalar tayyorlash uchun foydalanilgan kimyoviy moddalarni asrab qolish masalalari bilan shug'ullanadi.

BMT bu muammoni hal etilishida nafaqat unga kurashish, balki giyohvand va behush qiluvchi moddalarga bo'lgan talabni ham qisqartirish yo'llarini ishlab chiqdi.

*Ekologik muammolar.* Atrof muhit muxofazasi borasidagi tashvish-xavotirlar butun tarixda bir qizil ip kabi bo'lsada, ekologik tanazzul, turlar va ekotizimlarning yo'qolib borayotgani to'g'risidagi chaqiriqlar xalqaro sa'y-xarakatlarni faqatgina o'tgan XX asrning 70 yillaridan boshlab jipslashishga olib keldi.

1972 yilda Stokgolm shahrida o'tgan BMTning Atrof muhit borasidagi konferensiyasi BMTning Atrof muhit bo'yicha dasturini (YUNEP) tuzish bilan yakunlandi. 1992 yilda esa Braziliyaning Rio-de Janeyrodagi BMTning atrof muhitni muhofaza qilish va taraqqiyot borasidagi konferensiyasida jahon rahbarlarining tarixda eng yirik uchrashuvi bo'ldi.

“Yer sammiti”da bitimlarning tarixiy paketi, jumladan, ikkita majburiy kelishuv: karbonad angidrid singari sanoat va boshqa parnik gazlari ajralib chiqishining kelgusidagi chegaralirini belgilab bergan Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi konvensiya va biologik rangbaranglikni saqlab qolish va undan barqaror foydalanish bo'yicha birinchi xalqaro bitim – Biologik rangbaranglik to'g'risidagi konvensiya imzolandi.

Konvensiya quydagi uchta asosiy maqsadni belgilab beradi:

- Biorangbaranglikni saqlash;
- Biorangbaranglikning tarkibiy qismlaridan barqaror foydalanish;
- Genetik resurslardan savdo-sotiq va boshqa sohalarda foydalanishdan paydo bo'ladigan foydani adolatli va teng saqsimlash.

Konvensiya tarixda birinchi bo‘lib, biologik rangbaranglikni saqlab qolish “insoniyatning umumiy vazifasi” va taraqqiyot jarayonining tarkibiy qismi ekanini tan oladi. Globallashuv jarayonida Konvensiya biologik xavfsizlikka daxl qilgan holda kengayib borayotgan biotexnologiya sohasini tez qamrab olmoqda.

Konvensiyada ko‘plab masalalar ko‘rib chiqiladi, jumladan:

- biologik rangbaranglikni saqlab qolish va undan barqaror foydalanish;
- genetik resurslardan tartibli xolda foydalanish;
- texnologiyalardan bahramand bo‘lish va ularni almashlash, jumladan, biotexnologiyalardan bahramand bo‘lish;
- texnik va ilmiy hamkorlik;
- ta’sirning darajisini baholash;
- ta’lim va jamoatchilik tushunchasini kengaytirish;
- moliyaviy resurslarni taqdim etish;
- shartnoma bo‘yicha majburiyatni bajarilishi to‘g‘risidagi milliy hisobotni taqdim etish <sup>18</sup>.

Xalqaro shartnoma hisoblangan Biologik rangbaranglik bo‘yicha konvensiya umumiy muammolarni belgilaydi, asosiy maqsadlarni va masalalarni, siyosatni va umumiy majburiyatlarni aniqlab beradi va texnik hamda moliyaviy hamkorlikni tashkil etadi.

Konvensiyaga muvofiq hukumatlar biorangbaranglikni saqlab qolish bo‘yicha milliy strategiyani va harakat rejalarini ishlab chiqishlari lozim va ularga atrof muhit muxofazasi va taraqqiyotning yanada kengroq milliy rejalarini kiritishlari zarur. Bu ayniqsa, o‘rmonchilik, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, energetika, transport va shaharlarni rejalashtirish singari sektorlar uchun ayniqsa muhimdir.

Shartnoma har qanday mamlakatni uning genetik resurslari ustidan suverenitetini tan oladi va ko‘rsatib beradiki, qimmatbaho biologik resurslardan

---

<sup>18</sup> We the Peoples, The Role of the United Nations in the 21 st Century. UN. Briefing Papers for Students. Tashkent. 2003., p. 41.

bahramand bo'lish "o'zaro kelishilgan shartlar asosida" va kelib chiqqan mamlakatlarni "ilgaridan xabardorligi, roziligi" sharoitda amalga oshirilishi kerak.

Agar biror bir mikroorganizm, o'simlik yoki jonivor tijorat uchun ishlatilsa, uning kelib chiqqan mamlakati naqd pul yoki milliy tadqiqodchilarni o'qitish, ishtirok ettirish, nou-xau va biotexnologik jihozlarni berish hamda daromadning bir qismini olish huquqiga ega.

Biotexnologiya yutuqlari keyingi yillarda bizga bir turdagi genlarni boshqasiga o'tkazish yordamida turlar o'rtasidagi to'siqni olib tashlashga yordam berdi. Modifikatsiya qilingan, ya'ni o'zgartirilgan tirik organizmlar, mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, ovqatlarga ishlatiladigan qo'shimchalar, ichimliklar, dori-darmonlar, elimlar va yoqilg'ilarning tarkibiga yana ham ko'proq qo'shilmoqda. Ammo bu xolat odamlarning samolatlari va atrof muhitga berishi mumkin bo'lgan qo'shimcha effekt borasida tashvish-xavotirni kuchaytirayapti.

Jamoatchilikning bu xavotiriga javoban hukumatlar Konvensiyaga transchegaraviy savdoda yashirin xavf-xatarlar va modifikatsiya qilingan tirik organizmlarni tasodifiy taqdim etilishi to'g'risida qo'shimcha bitim ishlab chiqdilar.

Biologik xavfsizlik to'g'risidagi Karfagen protokoli davlatlarga, ayni paytning o'zida modifikatsiya qilingan tirik organizmlar va ulardan foydalanish tajribasi bo'yicha axborotlar almashinishni osonlashtirish uchun ta'sis etilgan mexanizm – Biologik xavfsizlik bo'yicha hisob-kitob palatasi orqali jahon hamjamiyatiga o'z qarori haqida xabar bergan xolda, ular tarkibida modifikatsiya qilingan tirik organizmlar bo'lgan import qishloq xo'jalik tovarlariniqabul qilishni xoxlash-xoxlamasliklaridan xabardor bo'lishlariga imkon beradi. Bunga qo'shimcha sifatida, modifikatsiya qilingan tirik organizmlari bo'lgan tovarlarda, ular eksport qilinganda, albatta, tegishli yorliqlari bo'lishi kerak.

Eksport qiluvchilar ham atrof muhitga kiritishga mo'ljallangan urug'lar, tirik baliqlar va boshqa modifikatsiya qilingan tirik organizmlarni yetkazib berishdan ilgari import qilinayotgan mamlakatlarning har biriga aniq ma'lumotlar taqdim etishi kerak, faqat shundan keyingina import qiluvchi yetkazib berishga ruxsat etishi kerak.



Ushbu mexanizmning maqsadi – hozirgi zamon biotexnologiya maxsulotlariga xos bo‘lgan xavf-xatarni baholash uchun ularni qabul qilib oluvchi mamlakatlarga imkoniyat berishdir.

*OITS*. BMTning sobiq Bosh kotibi K. Annaning so‘zlariga qaraganda, “OITSning ta’siri urush vayranogarchiliklaridan kam emas, balki qaysidir ma’nodan u urushdan ham ko‘proq jabr-jafolar kelitirishi mumkin”<sup>19</sup>. OITSning ko‘lami ayniqsa Afrika mamlakatlarida keng quloch yoydi. OITS virusi mintaqada urushdagidan ko‘ra ko‘proq odamning yostig‘ini quritdi: 1998 yilda urush oqibatida 200 ming afrikalik qurbon bo‘ldi, OITsdan esa 2 million kishi o‘ldi.

OITSGa muhtalo bo‘lganlarning aksariyati yoshlar, chunki butun jahon bo‘yicha har kuni 8,5 ming bolalar va yoshlar bu kasallikni yuqtirmoqdalar.

Hukumatlar OITSni taraqqiyotga daxldor masala sifatida tan olishdi va tegishli dasturlar ishlab chiqarish boshladilar. Ilgari OITS epidemiyasi faqat sog‘likni saqlash sohasining muammosi deb tanilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ko‘proq mamlakatlar uning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan o‘zaro bog‘likligini tushuna boshlayaptilar.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati, ayniqsa, nohukumat tashkilotlarning roli muhimdir, chunki ular mahalliy ehtiyojlarga muvofiq tadbirlarni ishlab chiqishga mahalliy jamoani jalb etish borasida o‘zining katta qudratiga egadir.

## **2.2. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining ob’ektiv manbalari va asosiy omillari**

Globallasuv atamasi hozirgi davrda uni qaysi sohada ishlatilishiga qarab, turli mazmunni anglatadi. Globallasuvga iqtisodiy ma’no beruvchilar asosan XX asrda yuz berayotgan jarayonlarni uzoq tarixiy davrning, ya’ni milliy xo‘jaliklarning baynalminallashuvidan, uning globallasuviga o‘tishi ekanligini ta’kidlashadi. Ular shu bilan birga globallasuvni iqtisodiy hayot baynalminallashuvi rivojlanishuvining yangi sifat bosqichi sifatida ta’riflamoqdalar.

---

<sup>19</sup> We the Peoples, The Role of the United Nations in the 21 st Century. UN. Briefing Papers for Students. Tashkent. 2003., p. 54.

Globalashuv jarayoni – butunjahon tarixining qonuniy bosqichidir. U ob’ektiv bo’lib, inson-sub’ekti ongiga bog’liq bo’lmagan holda ishlab chiqarish kuchlari o’sishidagi asosga egadir.

Globalashuvga iqtisodiy yondashuv tarafdorlari bu jarayonni iqtisodiy hayotning baynalmanallashuvining yangi bosqichi deb hisoblab, zamonaviy mamlakatlararo xo’jalik aloqalari uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanganligini e’tirof etadilar. Xo’jalik aloqalarining har bir shakli milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining ma’lum bir bosqichi natijasi bo’lib, hozirgi davrda ishlab chiqarish, savdo, moliya-kredit sohalarining birligi jahon xo’jaligi shakllanganligidan dalolat beradi.

XX asrning so’nggi o’n yilligida baynalminallashuv va transmilliylashuv atamalari iqtisodiy adabiyotlarda qo’llanila boshlandi. Keyinchalik esa milliy xo’jalik aloqalarining tez rivojlanishi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ularning baynalminallashuvidan transmilliylashuvga va XX asr oxirida globalashuv bosqichiga o’tishiga turtki bo’ldi.

Globalashuv jarayoni mamlakatlar iqtisodiyotni jahon bozoridagi o’zgarishlarga bog’liq bo’lishini birlidiradi. Yer yuzida 200 dan ziyod mamlakat bo’lsa, ularning bir qismi integratsiyalashuv ittifoqlariga kiradi, boshqalari esa unda ishtirok etmaydi, biroq globalashuv jarayoni ta’sirida bo’ladi.

Globalashuv jarayoni mohiyatan iqtisodiyotning umumbashariy tus olishi, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining tashqi iqtisodiy aloqalarga bog’liq bo’lib qolishi demakdir.

Globalashuv jarayonida nafaqat tovarlar va xizmatlar, balki resurslar ham dunyodagi talab-ehtiyojga qarab mamlakatlar o’rtasida taqsimlanadi. Ish kuchi, kapital, xom ashyo va energiya omillari, yangi texnologiya va yangi g’oyalar dunyo uzra tez tarqaladi. Yangiliklar umumbashariy doirada yuz beradi. Natijada dunyodagi iqtisodiy o’sish jadallashadi.

Globalashuv jarayoni xalqaro maydonda hamkorlikni ham raqobatni uyg’unlashuvi va kuchayishi kabi birdek o’zida namoyon etadi. Bundan tashqari, raqobatlashayotgan guruhlar o’rtasidagi kurashda o’z mavqe’ini mustahkamlash

bunday har bir guruh doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish va kuchlarni birlashtirishni ham talab etadi.

Ba'zi holatlarda shunday bir vaziyatlar ham yuzaga keladiki, bunda jahon bozoridagi aynan bir sub'ektlar bir sohada raqobatdosh bo'lsalar, boshqa bir sohada hamkorlik qiladilar.

Shunday qilib, globallashuv jarayoni Yer kurrasining turli tomonlari o'rtasida o'zaro ta'sir hamda bog'liqliklarning o'sishini nazarda tutar ekan. Tadqiqotchilar bunday holatlarni tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida kuzatganlar.

Masalan, jahonning turli mamlakatlarida o'sha paytdagi insoniyat tarixida Buyuk Ipak yo'li, Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati katta bo'lgan yoki 1929 yilgi "qora seshanba"ning ta'siri chuqur iz qoldirgan.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini o'zaro aloqalarni chuqurlashtirishga qaratilgan va barcha milliy iqtisodiyotlarni olg'a qarab rivojlanishini ta'minlovchi bir butun jahon iqtisodiyotini shakllantirish sifatida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirmay turib to'liq miqyosdagi globallashuvga erishib ham bo'lmaydi. Bunda mamlakatni o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum etmaslik juda muhim, balki globallashuv jarayoni davomida ularni amalga oshirishga imkon yaratib berishga yordam berish lozim.

Globalashuv jarayonining aniq bir ta'rifi yo'q bo'lib, munozarali masala bo'lib qolmoqda. XX asrning 80 yillarning boshida Dj. Neysbit tomonidan birinchi bor «globallashuv» so'zi taklif etilgan edi.<sup>20</sup>

Keyinchalik 1983 yil T. Levitt globallashuv tushunchasini transmilliy korporatsiya faoliyati bilan bog'ladi. Uning fikricha, globallashuv bu-transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqariluvchi alohida mahsulotlar bozorining birlashish jarayonidir.<sup>21</sup>

---

<sup>20</sup> Neibit J. Megatrends: Ten New Directions Transforming Our Lives. Warner Books. New York .. 1982.

<sup>21</sup> Моисеев С., Михайленко К. Terra Incognita: глобализация финансовых рынков. Вопросы экономики . 1999. №6, С. 123-135.

Hozirgi kunda «globallashuv» tushunchasining xar-xil ta'riflari mavjud bo'lib, ushbu iboraning ishlatilishi ko'p jihatlarda madaniyat, iqtisodiyot, ekologiya soxalarida uchraydi.

Ko'proq savdo, ko'proq bozorlar, ko'proq firmalar, ko'proq axborot, ko'proq ish joylari, ko'proq imkoniyatlar. Globallashayotgan dunyo hududi mana shularni va'da qilmoqda.

Globallashuv to'liqlari dunyoning ilgari faqat kambag'allik hukmron bo'lib kelgan mamlakatlarga va mintaqalarga to'kin-sochinlik olib keldi. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar taraqqiyotga ko'tarilish uchun esportga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirdilar.

Iqtisodiy faollikning bu shiddatli oqimi ko'plab odamdarga foyda va farovonlik keltirdi. Iqtisodiy o'sish tezlashdi, turmush sharoitining darajasi o'sdi, yangiliklar tezroq kirib kela boshladi, insoniyat esa yangi imkoniyatlarga ega bo'la boshladi.

V. Mixeevning fikricha globallashuvga kompleks yondoshuv iqtisodiyot, siyosat, axborotlashtirish, ekologik hamda xalqaro terrorizm va kambag'allikga qarshi kurashishlarda namoyon bo'ladi. Globallashuv muammolari D.Neysbit, T.Levitt, D.Smislov, V.Sheynis, O.Cherkovs, A.Neklessa, E.Nuxovicha, L.Gordon, G.Karimova ishlarida yoritilgan. A.Elyanov ta'kidlashicha, globallashuv o'z ichiga, barcha davlatlar rivojlanish darajasidan qat'iy nazar xalqaro iqtisodiy munosabatlarni oladi.

Shu bilan bir qatorda ko'pchilik olimlar ta'kidlashicha globallashuv uzoq va murakkab jarayondir. Shu to'g'risida S.Kamlins yozishicha «Ko'plar globallashuv tugagan yoki tizimlari va aloqalari deyarli tugagan deb bilishsa, aslida globallashuvning o'tish jarayoning o'ziga 15-25 yil kerak bo'ladi.<sup>22</sup>»

Bu jarayonlarni ko'rib chiqib, R.Rukuperu, YUNKTAD ning Bosh kotibi shuni bildiradiki, «Globallashuv - bu tayyor tarixiy mahsulot emas, bu tugallanmagan

---

<sup>22</sup> Commins S. Globalization and Foundations for Human Security.FF World Visions discussion papers, Number 8, Spring 1999, pp. 20-28.

ishlab chiqarish», *opera aperta*, shunday jarayonki unda biz, ham ob'ekt, ham sub'ekt sifatida ishtirok etamiz.<sup>23</sup>»

Globallashuv jarayoni zamonaviy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, har qanday hodisa kabi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavf-xatarlarni ham olib kelishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu jarayonga jiddiy ta'sir o'tkazish holatida emaslar, faqat keladigan foydani oshirish va xatarlarni kamaytirish maqsadida unga moslashishlari mumkin xolos.

Globallashuv jarayoni hozirgi zamon jahon rivojlanishining muhim ob'ektiv jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu jarayon mamlakatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi va bog'liqligini kuchaytirish yo'llarini avj oldirish bosqichidir.

Mazkur jarayon naqadar ziddiyatlarga to'la bo'lmasin, unda ijobiy va salbiy taraflar naqadar chatishib ketmasin, u baribir insoniyat taraqqiyotini, uni bir zinapoyadan boshqasiga harakatini aks ettirishini tan olish lozim.

Globallashuv jarayoni dunyo sahnasiga yangi kuchlarni yetkazib beradi va bermoqda. Globallashuv jarayoni raqobat kurashini keskinlashuvidan iborat bo'lib, bunda ustunlik nisbatan kuchliroq tarafda bo'ladi, biroq u nisbatan kam rivojlangan mamlakatlar ahvolini mustahkamlash va takomillashtirish imkoniyatlarini ham yaratib beradi.

Va nihoyat globallashuv jarayoni turli mamlakatlarning hamkorlikdagi kelishilgan qarorlarini hal etishga, jahon iqtisodiyotining yetakchilarinigina emas, balki globallashuv domiga tortilayotgan yer kurrasidagi barcha hududlarning turg'un rivojlanishini ta'minlashga intiluvchi u yoki bu ijtimoiy manfaatlarni shakllantirishga yetaklashi lozim.

Globallashuv jarayoni zamonaviy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, har qanday hodisa kabi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavf-xatarlarni ham olib kelishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu jarayonga jiddiy ta'sir o'tkazish holatida emaslar, faqat keladigan foydani oshirish va xatarlarni kamaytirish maqsadida unga moslashishlari mumkin xolos.

---

<sup>23</sup> ЮНКТАД Бош котибининг ынинчи сессия конференциясида =илган маърузаси. Бангкок, Тайланд. 1999. с.10.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun globallashuv jarayonidan keladigan manfaat va imkoniyatlar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- sanoat tovarlari importi tariflarining sezilarli tarzda kamayishini nazarda tutuvchi GATT Urugvay raundidan kelib chiqadigan savdo imkoniyatlari;

- xalqaro kapital oqimi bilan bog'liq bo'ladigan imkoniyatlar.

Milliy iqtisodiyot uchun globallashuv jarayoni oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar qatorida quyidagilarni etib o'tish mumkin:

- milliy iqtisodiyotni boshqarishda mustaqillikni yo'qotish;

- iqtisodiyotni liberallashtirish natijasida moliyaviy erkinlikni o'sib borishi tufayli xavflarning o'sishi;

- marginalizatsiya xatari (jahon darajasidagi iqtisodiy o'sishdan qolib ketishning kuchayishi).

Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun globallashuv jarayonining asosiy da'vati – davlatlarning shunday iqtisodiy siyosat dasturini ishlab chiqish va amalda qo'llay olishlik qobiliyati hamda unga tayyorgarligidadirki, bu siyosat ularga globallashuv jarayonidan keladigan foydani maksimallashtirish va xavflarni minimallashtirishga imkon bera olishi kerak.

Buning uchun mamlakatlar quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim:

- xalqaro savdoda muvaffaqiyatli ravishda raqobatlashish va xorijiy kapitalni jalb eta olish. Agar mamlakat bunga qodir bo'lmasa, aks holda uning iqtisodiy o'sish va insoniyat rivojlanish sur'atlari bo'yicha jahon taraqqiyotidan ortda qolib ketish xavfiga va iqtisodiy stagnatsiya hamda o'sib borayotgan kambag'allikka duchor bo'lishi muqarrardir;

- xalqaro muhitdagi o'zgarishlarga tez va adekvat ravishda o'z munosabatini bildira olish. Zamon talablariga mos ravishda axborot oqimlarining va xalqaro kapitalning jadal harakatchan sharoitlarida xususiy investorlarning iqtisodiy siyosatdagi har qanday xatolarga ta'sir javobi juda tez bo'lishi mumkin. Makroiqtisodiy va tuzilmaviy nomutanosibliklari mavjud bo'lgan davlatlar hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida ularning iqtisodiy siyosatiga mahalliy va xorijiy investorlarning bo'lgan ishonchini yo'qotish xavfiga duchor qiladilar. Bu mazkur

mamlakatdan kapitalni tezlik bilan olib chiqib ketilishiga olib keladi, bu hol esa uning iqtisodiyotini yanada ko‘proq muvozanatdan chiqarib qo‘yadi. Bu bilan globallashuv jarayoni savodsizlarcha olib borilgan iqtisodiy siyosatga “jazo chorasini” keskinlashtiradi va adekvat siyosat uchun esa “mukofot”ni oshiradi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ob‘ektiv manbalarini ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida barcha davlatlar tomonidan “ochiq iqtisodiyot” siyosatini qo‘llash va tadbiriq etish yotadi.

Jahon iqtisodiyotini globallashuvi rivojlanishining asosiy omillarini bir necha guruhga ajratish mumkin.

*Birinchi*dan, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida qayta ishlovchi sanoatning tez rivojlanishi va buning natijasida xalqaro savdoning tarmoqlararo tusga ega bo‘lishiga olib keladi.

*Ikkinchi*dan, fan-texnika taraqqiyoti asosida avia, suv va temir yo‘l transportining yangi avlodi rivojlanishi natijasida xalqaro transport infratuzilmasi sezilarli yaxshilandi. Yuklar va passajirlarni tashish jadallashdi va arzonlashdi. Natijada mamlakatlar o‘rtasida “iqtisodiy” masofa qisqardi.

*Uchinchi*dan, so‘nggi o‘n yilliklarda elektronika, kibernetika va fazoviy aloqa sun‘iy yo‘ldoshlarining axborot inqilobi negizidagi taraqqiyoti telekommunikatsiya sohasida juda katta burilish yasadi. Agar 1995 yil mobaynida Internet tarmog‘idan foydalanganlar 20 mln.kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2003 yilga kelib, 300mln. kishiga etgan.

Zamonaviy telekommunikatsiya sistemalari, aynan, elektronikaning rivojlanishi va uning jamiyat hayotidagi barcha sohalarga chuqur kirib borishini zamonamizning navbatdagi inqilobi sifatida ta‘riflash mumkin.

*To‘rtinchi*dan, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi hamda transport va telekommunikatsiya sohasidagi inqilobiy o‘zgarishlar asosida oxirgi o‘n yilliklarda transmilliy korporatsiyalarning (TMK) soni tez sur‘atlar bilan o‘sdi.

Hozirda 80 ming TMK va ularning xorijiy mamlakatlarda joylashgan 800 ming sho'ba korxonalari jahon yalpi ichki maxsulotining 10 %, jahon eksportining esa uchdan bir qismini ta'minlab beradi.

Transmilliy kapitalning faoliyati milliy xo'jaliklar tizimi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Jahon xo'jalik tizimi asosini tashkil etuvchi 500 ga yaqin yirik TMK jahon sanoat ishlab chiqarishining deyarli yarmini, tashqi savdo aylanmasining 60%ni, yangi texnika uchun bozorlarda muomalada bo'lgan litsenziya va patentlarning deyarli 4/5 qismini nazorat qilib turadi.

Jahon iqtisodiyotning "yadro"sini tashkil etgan transmilliy kapital, asosan, rivojlangan mamlakatlarda to'plangan. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar TMKlari qatoriga bir qator rivojlanayotgan, yangi industrial mamlakatlar korporatsiyalari qo'shilgan. Buning natijasida tovarlar va xizmatlarning xalqaro oqimi faqatgina jadallashib qolmay, balki endi korporatsiyalar ichida harakat qila boshladi.

*Beshinchidan*, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi. 2006 yilga kelib ularning umumiy xajmi 1,306 AQSH trln. dollarni tashkil etdi.

Bu siljishlar, ya'ni ishlab chiqarish, kommunikatsiya, savdo, xorijiy investitsiyalar va moliya sohasidagi jarayonlar jahon iqtisodiyotini bir butun umumiy vujudga aylantirdi.

Bularning hammasi jahon hamjamiyati tomonidan Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM)ning ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. MRM 2015 yilgacha amalga oshirilishi zarur bo'lgan 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hukumatlarining hamda xalqaro tashkilotlarning maqsadga yo'naltirilgan va o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari Ming yillik Deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishishning asosiy mexanizmi sanaladi.

O'zbekistonning MRMga erishish yo'lida olib borayotgan harakatlari tahsinga loyiq. Zero, mamlakatda buning uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjud. Ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetarli



tajribaga ega bo'lgan hukumat siyosiy institutlari va mexanizmlari, shuningdek, ko'p sonli xalqaro tashkilotlar bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari shular jumlasidandir.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarishiga qaramay, zamonaviy dunyo yuzma-yuz kelayotgan tahdidlar yo'qolmay, kompleksli ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2015 yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030 yilgacha mo'ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo'llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning uchta sohasi (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo'yicha kompleks ishlarni olib borishini ma'lum qildi.

Yangi Global maqsadlar va yanada keng ko'lamli taraqqiyot dasturi – 2000-yildagidan farqli o'laroq – yanada chuqurroq islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi, qashshoqlikning tub sabablarini bartaraf etib, hamma va har bir inson uchun umumiy taraqqiyot jarayonini ta'minlashga qaratilgandir.

BMTning 2030 yil Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan 17 maqsad:

1. Kambag'allikni va uning barcha turdagi ko'rinishlarini tugatish.
2. Ochlik muammosini bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish hamda barqaror qishloq xo'jaligini shakllantirish.
3. Barcha yosh davrlarida sog'lom hayot tarzini kafolatlash.
4. Barcha uchun sifatli ta'limni kafolatlash va uzoq muddatli ta'lim olishga yo'naltirish.
5. Jins bo'yicha tenglikni ta'minlash, ayollar va qizlar faolligini oshirish.
6. Barcha uchun barqaror suv boshqaruvi hamda sanitariya sharoitlarini yaratish.
7. Ishonchli, zamonaviy va arzon energiya manbalarini rivojlantirish
8. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish bilan bandlikni oshirish va ish yukini kamaytirish.
9. Infratuzilmani shakllantirish, sanoatlashtirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlash.

10. Mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish.
11. Shaharlardagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash.
12. Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish.
13. Iqlim o'zgarishi va uning ta'sirlari.
14. Okean, dengiz va suv havzalari resurslaridan oqilona foydalanish
15. Ekotizimni himoya qilish, o'rmon boshqaruvini, yer yemirilishi va bioxilma-xillikni saqlash.
16. Barqaror rivojlanish jarayonida tinchlikni saqlash, samarali keng qamrovli institutlar faoliyatini rivojlantirish.
17. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015- yilning sentyabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 -yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida "2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 20- oktyabrdagi, 841-son qaroriga binoan 2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar va "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

### **2.3. Global iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari**

Global iqtisodiyotning yadrosi qadim zamonlardayoq Hind okeani va O'rta er dengizi atrofidagi mamlakatlar bilan birgalikda Yaqin Sharq mintaqasida paydo bo'lgan.

Barchasi xalqaro tovarlar savdosidan boshlangan. Dunyodagi birinchi yirik davlat – Misrning aholisi 5 ming yil avval qo'shni qabilalar bilan savdo qilar edi: Misr hunarmandchiligi va dehqonchiligining mahsulotlari evaziga ulardan yog'och, metall, qoramol xarid qilingan. Xalqaro tovarlar savdosiga xizmatlar sotuvchilari qo'shila bordi. Finikiyalik va gretsiyalik savdogarlar nafaqat butun O'rta yer dengizi bo'ylab o'zida ishlab chiqarilgan va boshqa mamlakatlarda sotib olingan tovarlar

bilan savdo qilar, balki o'zgalarning yuklarini va o'zga yurtlik yo'lovchilarni tashib xizmatlar ham ko'rsatar edilar.

Asta-sekin xalqaro savdo boshqa dunyo mintaqalarini – dastlab Janubiy Osiyoni, so'ngra Janubiy-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo, Rossiya, Amerika, Avstraliya va Okeaniyani, va nihoyat, Tropik Afrikaning etib borish qiyin bo'lgan hududlarini qamrab ola boshladi. Natijada, XIX asr oxirlariga kelib *jahon tovarlar va xizmatlar bozori*, ya'ni savdo qilinadigan mahsulotlar bozorlarining yig'indisi vujudga keldi.

Shu bilan bir vaqtda jahonda xalqaro iqtisodiy resurslarning harakati ham o'sib bordi. G'arbiy Yevropa kapitallari Amerika va Rossiyadagi investitsiyalarning sezilarli unsurlariga aylandi, yevropalik emigrantlar Shimoliy Amerika, Janubiy Osiyo, Avstraliyaning ulkan kengliklarini xo'jalik jihatdan o'zlashtirdilar. G'arbiy tadbirkorlar dunyoning barcha burchaklariga g'arbiy fan yutuqlarini (elektr quvvati, ichki yonish dvigateli, mexanik harakatlanish vositalarini) olib bordilar. So'ngra kamroq rivojlangan mamlakatlar ham bilimlar, kapital va ayniqsa ishchi kuchini eksport qila boshladilar, buning natijasida mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy resurslarning ko'chish jarayoni o'zaro (ikki tomonlama), biroq unchalik simmetrik bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'ldi. Shunday qilib, barcha milliy iqtisodiyotlar nafaqat jahon tovarlar va xizmatlar bozorining, balki xalqaro iqtisodiy resurslar harakatining ishtirokchilariga aylandi.

Ushbu sharoitlarda XIX – XX asr bo'sag'asida global iqtisodiyot to'g'risida gapirish imkoniyati tug'ildi.

### *Globallashuvning bosqichlari*

Global iqtisodiyot vujudga kelgach, bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

XIX asr oxiridan Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davr globallashuvning dastlabki bosqichiga aylandi. Ushbu uchta o'n yillik davrida ko'pgina milliy iqtisodiyotlarda eksport va import qilinuvchi mahsulotning ulushi bo'yicha erishilgan daraja faqatgina yarim asrdan so'nggina oshirildi. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan iqtisodiy resurslarni yangi tez o'sib borayotgan iqtisodiyotlarga (o'sha vaqtda bu AQSH, Rossiya va Britaniya dominionlari) olib chiqishning katta ko'lamlaridan (Buyuk Britaniya o'z mamlakatiga nisbatan chet elga ko'proq kapital kiritar edi)

faqatgina ko'p o'n yilliklardan so'ng oshib o'tildi. Birinchi jahon urushidan oldin chet eldan kapital oqimi Rossiyada sanoatga investitsiyalarning yarmidan ortig'ini ta'minlar, AQSHda ishchilarning yarmidan ortig'i immigrantlardan tashkil topgan edi. O'sha davrda integratsion birlashmalar mavjud bo'lmagan (ularning o'rnini ma'lum darajada imperiyalar bosar edi), xalqaro iqtisodiy tashkilotlar kamsonli va zaif, TMKlar esa ko'p bo'lmagan bo'lsada, biroq umuman olganda globallashuvning mazkur bosqichi haqida globallashuvning dastlabki to'lqini sifatida gapirish mumkin.

Birinchi jahon urushining boshidan Ikkinchi jahon urushining oxirigacha bo'lgan davr urushlar, inqiloblar, 1930-yillar iqtisodiy inqirozi davomida globallashuvning qisqarish bosqichi bo'ldi. Natijada, agar Rossiyadan tovarlar eksporti 1913 yilda 1 mlrd dollardan ortiq bo'lgan bo'lsa, 1938 yilda – atigi 0,3 mlrd dollarni tashkil qilgan. AQSHda ushbu davrda eksport 2,6 mlrd dollardan 3,1 mlrd dollargacha ortdi, lekin haqiqatda u keskin pasaydi, chunki dollar bu davrda 2,2 marta qadrsizlandi.

Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan keyingi va 1970-yillarning oxirigacha bo'lgan davr global iqtisodiyotning tiklanish bosqichi bo'ldi. 1950-yillarning boshidayoq jahon savdo hajmi 1913 yil darajasiga etdi, xolbuki iqtisodiy resurslarning harakati ushbu davrning faqatgina oxiriga kelib avvalgi ko'lamga etdi. Ushbu bosqichda globallashuvning yangi to'lqini uchun muhim shart-sharoitlar yaratildi – integratsion birlashmalar tashkil topar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning soni ko'payar, TMKlar soni tez ortib borar edi.

1970-yillarning oxiri – 1980-yillarning boshidan 2008 yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqiroziga qadar bo'lgan davr globallashuvning ikkinchi to'lqiniga aylandi. Birinchi to'lqinning deyarli barcha rekordlaridan oshib o'tilgan edi. Eksport va import qilinuvchi mahsulotning ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbati keskin o'sdi, integratsion birlashmalar ko'pgina mintaqalarda qudratli kuchga aylandi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati, ayniqsa kamroq rivojlangan mamlakatlar uchun keskin o'sdi, TMKlar esa umumiy jahon YaIMning chorakdan uchdan bir qismigacha (shu jumladan, faqat o'z xorijiy filiallarida 9%dan ortig'ini) ishlab chiqara boshladi.

Biroq, globallashuvning yuqorida aytib o‘tilgan inqirozdan so‘ng boshlangan hozirgi bosqichi uning xarakterini yangitdan o‘zgartirmoqda. Yirik mamlakatlarda tashqi bozorga nisbatan ishonchliroq bo‘lgan ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga bo‘lgan e‘tibor kuchayib bormoqda. Jahonda kapitalning erkin harakatlanishi ayniqsa, kapitalni xalqaro “tushirish va ortish shohobchalari” – offshor yurisdiksiyalari tobora ko‘proq tanqidiy ko‘rib chiqilmoqda. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi yo‘lidagi to‘siqlar ko‘payib bormoqda. Ehtiyotkorlik bilan shuni oldindan aytish mumkinki, bu so‘nggi jahon iqtisodiy inqirozining oqibatidan ko‘ra ko‘proq globallashuv sur‘atlari pasayishining uzoq muddatli tendensiyasi bo‘ladi. Ehtimol, globallashuv davriy (siklik) rivojlanadi va uning ikkinchi to‘lqini, ikkita jahon urushlari orasidagi davrda bo‘lganidek tislanna harakat bilan emas, balki nisbatan o‘rtacha sur‘atlar bilan almashib, tugamoqda.

*Tayanch so‘zlar:* Globallashuvning omillari, globallashuv jarayonlari, globall maqsad va vazifalar, globall muammolar, tinchlik va quolsizlanish muammosi; ekologik muammolar; energetik muammolar; xom - ashyo muammosi; gumanitar muammolar; oziq - ovqat muammosi

#### **Nazorat savollari:**

1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati nimadan iborat?
2. Global muammolarning orasida eng muhimlarini ko‘rsatib bering.
3. Ming yillikning global maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning global iqtisodiy muammolari nimalardan iborat?
5. Jahon iqtisodiyotini globallashuvi rivojlanishining asosiy omillarini yoritib bering.
6. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ob‘ektiv manbalari nimalardan iborat.
7. Global iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari?

### **3-bob. BAYNALMINALLASHUV, TRANSMILLIYLASHUV VA GLOBALLASHUV JARAYONLARI**

Reja:

3.1. Baynalminallashuv va transmilliylashuv: rivojlanish tendensiyalari va uning xususiyatlari

3.2. Globallashuv - taraqqiyotning yangi tarixiy davri

3.3. Jahon xo‘jaligining transmilliylashuvi

#### **3.1. Baynalminallashuv va transmilliylashuv: rivojlanish tendensiyalari va uning xususiyatlari**

Jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvi – bu xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan milliy iqtisodiyotlarning bir-biri bilan bog‘liqligi va o‘zaro to‘ldiranchuvligi degandir.

Baynalminallashuv jarayonini rivojlanishi bir qator bosqichlardan iborat.

*Birinchi bosqich:*

Erkin raqobatning rivojlanishi davrida (XIX asrning ohirigacha) jahon bozori shakllandi, asosan xalqaro savdo shakldagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlandi.

Jahon xo‘jaligining shakllanishi davrida uzviy savdo aloqalari:

- xom - ashyo kolonniyalari va sanoat metropoliyalari, hamda
- qo‘shni davlatlar o‘rtasida rivojlandi.

*Ikkinchi bosqich:*

XIX asr ohiri - XX asr boshlarida jahon xo‘jaligining asosiy qismi - jahon bozori shakllandi.

Ushbu davrda davlatlar o‘rtasida savdo munosabatlari qatorida ishlab chiqarish aloqalari, kapitalni olib chiqib ketish, ko‘p turkumli moliyaviy aloqalar rivojlanadi.

Iqtisodiyotning baynalminallashuvida asosiy tendensiyalardan biri kapitalning markazdan qaram va kolonial hududlarga olib chiqib ketilishi bo‘ladi.

Shu tariqa, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ushbu davrida “baynalminallashuv almashuv – kapital baynalminallashuvi bilan to‘ldiriladi.

*Uchinchi bosqich:*

50-60 yillar ohirida ilmiy-texnik inqilob ta'sirida ishlab chiqarish kuchlarining keskin o'sishi qayd etildi.

Uning ta'siri ostida jahon iqtisodiyotining tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiya va ixtisoslashuvining dolzarbligi oshdi.

Shu tariqa, iqtisodiyotning baynalminallashuvi – jahon iqtisodiyotining rivojlanishining ma'lum bir bosqichi bo'lib, tarkibiga ikkita o'zaro aloqador jarayonlarni mujassamlashtiradi:

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishi, hamda
- xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi.

Ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvining yo'nalishlari va asosiy shakllari quyidagilardir:

- milliy chegaralardan mahsulot va xizmatlarning harakati;
- ishchi kuchi va kapitalning xalqaro migratsiyasi;
- dunyoning turli hududlarida integratsiya jarayonlari.

XX asrning oxirgi choragida jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvini belgilovchi omillar qatoriga quydagilar kiradi:

- davlatning tabiiy zaxiralari, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish salohiyati kabi xalqaro ixtisoslashuvning asosiy omillari pasayishi;
- milliy mahsulotlarni sotish uchun xalq xo'jaligi tizimlarining optimallasuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining tarmoqlararo taqsimoti singari ichki tarmoqlararo taqsimotining yanada rivojlanishi;
- davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida ilmiy-texnik salohiyatining o'rni tobora oshishi.

### **3.2. Globallashuv - taraqqiyotning yangi tarixiy davri**

Globallashuv – dunyo mintaqalari va mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy munobatlarini chuqurlashtirish va kengaytirishning uzoq evolyusion jarayoni.

Xo‘jalik hayoti baynalminallashuvi 16-17 asrlarda ishlab chiqarish, 18-19 asrlarda ishlab chiqarishning mashinali usullarining (ular orqali xalqaro mehnat taqsimoti rolining kuchayishiga olib keldi) paydo bo‘lishi xo‘jalik hayoti internatsionallashuvining muhim dastlabki bosqichlaridir.

Tovarlar va xizmatlar eksportiga qo‘shimcha bo‘lib kapital chiqishi va 19 asr oxirida TMK va ishlab chiqarish kooperativ aloqalarining shakllanishi boshidir.

Milliy va jahon iqtisodiyotlarining baynalminallashuv darajasi ko‘rsatkichlari xalqaro savdo hajmi, kapitallarning, ishchi kuchining chegaralar bo‘ylab migratsiyasi va ularning umumjahon va milliy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga munosabati bilan bog‘liqdir.

Globallashuv baynalminallashuvning paydo bo‘lishi kabi umumjahon xususiyatga egadir. Jahon iqtisodiy hamjamiyatining butun, yagona xo‘jalik tizimiga aylanishi, tovarlar, xizmatlar, investitsiyalar, ishchi kuchi va boshqa ishlab chiqarish omillari milliy bozorlarining umumlashishi globallashuv natijasidir.

Globallashuv jarayoni – umumiy bir atama bo‘lib, bu jismoniy shaxslar, korxonalar, institut va bozorlar o‘rtasidagi murakkab aloqalar majmuasini anglatadi va u tovarlar, texnologiyalar hamda moliyaviy mablag‘lar oqimining kengayishida, shuningdek, fuqarolar jamiyati xalqaro institutlari ta‘sirining, transmilliy korporatsiyalarning global faoliyatining kuchayishi va doimiy o‘sishida, mintaqalararo kommunikatsiya va axborotlarning, eng avvalo internet orqali almashish miqyosining, ahamiyatli tarzda kengayishida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv jarayonining bir nechta jihatlari bilan farqlanadi. Eng kuchli bog‘liqlik ayniqsa, iqtisodiy sohada namoyon bo‘ladi va globallashuv jarayoni tushunchasining o‘zi ham iqtisodiy omillarga yaqinlashtiriladi.

Telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi xalqaro moliya tizimidagi jiddiy o‘zgarishlar bilan birga amalga oshdi. Moliyaviy landshaft an’anaviy institutsional tizimdan ustuvor telekommunikatsion tizimga qarab o‘zgardi.

Yagona bir tarmoqqa bog‘langan fond bozorlarining ommalashuvi ko‘p miqdordagi pul mablag‘larini masofaga bog‘liq bo‘lmagan ravishda bir lahzada ko‘chirib o‘tkazishga imkon yaratdi. Kishilar qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar



tezkor ravishda, bevosita moliyaviy kapitalni olishga, moliyaviy operatsiyalarni bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Internet banklar uchun mijozlarni ko'paytirish vositalaridan biriga aylandi.

Globallashuv jarayoni – butunjahon tarixining qonuniy bosqichidir. U ob'ektiv bo'lib, inson-sub'ekti ongiga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish kuchlari o'sishidagi asosga egadir.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni, ya'ni uzviy ravishda o'zaro bog'langan bir butun jahon xo'jaligining shakllanishi tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Globallashuv jarayoni sharoitlarida har qanday mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Shu sababli, milliy doiradagi iqtisodiy rivojlanish va tashqi iqtisodiy aloqalar bevosita bir-biriga uzviy bog'lanib qoladi va aynan bir jarayonning bo'g'inlarini tashkil etadi.

Texnik o'zgarishlar, integratsiyalashuv jarayonlari, savdo va kapital harakatlarning liberallasuvi, rivojlanayotgan bozorlarning yuzaga kelishi ta'siri ostida jahon iqtisodiyoti tobora milliy iqtisodiyotni o'z domiga tortib boraveradi. Bu yerda so'z jahon savdosining kengayishi, kapitalning har xil shakldagi harakati, aholi va ishchi kuchining migratsiyasi, axborot almashinuvining chuqurlashuvi to'g'risida bormoqda.

Globallashuv jarayoni xalqaro maydonda hamkorlikni ham raqobatni uyg'unlashuvi va kuchayishi kabi birdek o'zida namoyon etadi. Bundan tashqari, raqobatlashayotgan guruhlar o'rtasidagi kurashda o'z mavqe'ini mustahkamlash bunday har bir guruh doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish va kuchlarni birlashtirishni ham talab etadi.

Ba'zi holatlarda shunday bir qiziq va mantiqqa to'g'ri kelmaydigan vaziyatlar ham yuzaga keladiki, bunda jahon bozoridagi aynan bir sub'ektlar bir sohada raqobatdosh bo'lsalar, boshqa bir sohada hamkorlik qiladilar.

Global sharoitlarga moslashuv natijasida rivojlangan mamlakatlar jahon maydonidagi o'z iqtisodiy va siyosiy holatlarini yanada mustahkamlab olish imkoniyatlariga ko'proq ega bo'ldilar, kam rivojlangan mamlakatlar (periferiya va

yarim periferiyalar) esa bu imkoniyatlardan unumli foydalanish katta sayi xarakatlarni talab qilmoqda.

Globallashuv jarayonlari milliy iqtisodiy siyosatga, uning imkoniyatlarini cheklagan holda bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi, chunki xalqaro tashkilotlar bir qator qonun, huquq va majburiyatlarni unifikatsiyalashtirish (bir xillashtirish)ga intiladilar.

Globallashuv jarayoni bu jarayonga kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatish maqsadida dunyo sahnasiga yangi kuchlarni yetkazib beradi va bermoqda. Globallashuv jarayoni raqobat kurashini keskinlashuvidan iborat bo'lib, bunda ustunlik nisbatan kuchliroq tarafda bo'ladi, biroq u nisbatan kam rivojlangan mamlakatlar ahvolini mustahkamlash va takomillashtirish imkoniyatlarini ham yaratib beradi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini o'zaro aloqalarni chuqurlashtirishga qaratilgan va barcha milliy iqtisodiyotlarni olg'a qarab rivojlanishini ta'minlovchi bir butun jahon iqtisodiyotini shakllantirish sifatida ko'rish mumkin.

Eng muhimi shundan iboratki, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirmay turib to'liq miqyosdagi globallashuvga erishib ham bo'lmaydi. Bunda mamlakatni o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum etmaslik juda muhim, balki globallashuv jarayoni davomida ularni amalga oshirishga imkon yaratib berishga yordam berish lozim.

Bu jarayon mamlakatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi va bog'liqligini kuchaytirish yo'llarini avj oldirish bosqichidir.

Va nihoyat globallashuv jarayoni turli mamlakatlarning hamkorlikdagi kelishilgan qarorlarini hal etishga, jahon iqtisodiyotining yetakchilarinigina emas, balki globallashuv domiga tortilayotgan yer kurrasidagi barcha hududlarning turg'un rivojlanishini ta'minlashga intiluvchi u yoki bu ijtimoiy manfaatlarni shakllantirishga yetaklashi lozim.

Mazkur jarayon naqadar ziddiyatlarga to'la bo'lmasin, unda ijobiy va salbiy taraflar naqadar chatishib ketmasin, u baribir insoniyat taraqqiyotini, uni bir zinapoyadan boshqasiga harakatini aks ettirishini tan olish lozim.

### **3.3. Jahon xo‘jaligining transmilliylashuvi**

Iqtisodiy globallashuv (baynalminallashuv, jahon xo‘jaligiga integratsiya) deganda jahon iqtisodiyotiga nisbatan global iqtisodiyotning ilgarilab boruvchi o‘shishi tushuniladi. Agar xalqaro savdo va xalqaro kapital, ishchi kuchi va bilimlar harakatining o‘shish sur‘atlari jahon iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlaridan yuqori bo‘lsa, iqtisodiy globallashuv jarayoni rivojlanmoqda deyish mumkin.

Iqtisodiy globallashuvni shuningdek, milliy iqtisodiyotlarning tobora ochiq iqtisodiyotlarga aylanish jarayoni sifatida ta’riflash mumkin. Bu pirovardida jahon iqtisodiyotining yagona mahsulotlar va resurslar bozoriga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Transmilliy korporatsiyalar globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblanadi. Barcha eng yirik kompaniyalar amalda ularga aylanib bo‘ldi, chunki ular tovarlar va xizmatlar eksportidan tashqari odatda, chet elda ushbu mahsulotni ishlab chiqarish bilan ham faol shug‘ullanadilar. TMKlar chet eldagi o‘z investitsiyalari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – TXI) orqali qiymat zanjirlarining yaratuvchilari hisoblanib, ularda har xil ishlab chiqarish turlari turli mamlakatlar bo‘yicha joylashtirilgan. TMKning bir ko‘rinishi sifatida transmilliy banklar, nafaqat nomoliyaviy TMKlarni ularning chet eldagi faoliyatiga hamrohlik qiladilar, balki shuningdek, mamlakatlar orasida ulkan qimmatli qog‘ozlar va kreditlar oqimini ko‘chirib, globallashuvda katta mustaqil o‘ringa ega bo‘ladi. TMKning iqtisodiy globallashuvda ishtirok etishi transmilliylashuv deb ataladi.

BMT ekspertlarining fikricha transmilliy korporatsiyalar (TMK) “jahon mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy dvigatellari” dan biri bo‘lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, YI davlatlari va Yaponiyada joylashgandir. Rossiyalik iqtisodchilar, odatda, quyidagi ta’riflarni beradilar: transmilliy korporatsiyalar - bu xorijiy aktivga ega bo‘lgan milliy monopoliyalardir. Ularning ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyatlari bir davlat chegarasidan chiqib ketadi. Jahon iqtisodiyotida kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo‘lgan transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarishni, tovar bozorlarini samarali rejalashtirishni ta’minlovchi ishlab chiqarish-savdo siyosatini

yurgizadilar. Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshiriladi va sho'ba korxonalariga tarqatiladi. TMK iqtisodiyotining shakllariga ko'pincha quyidagilar kiritiladi:

- litsenziya berish;
- franchayzing;
- boshqaruv shartnomalari;
- texnik va marketing xizmatlarni ko'rsatish;
- korxonalarni "kalit ostida" topshirish;
- vaqt bo'yicha cheklangan qo'shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotda chet el kapitalining ahamiyati. Chet el investitsiyalari – kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlarning iqtisodiy sub'ektlari hamda qo'shma korxonalarining real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'lardir. Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet ellik kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib o'tish, qochish, ya'ni mamlakatlararo ko'chib yurish xosdir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli ravishda mamlakat, valyuta, milliylashtirish, rekvizitsiya kabi qo'shimcha tavakkalchilikka to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Demak, chet el investitsiyalarining risk doirasi ancha kengdir. Xorijiy investitsiyalar kapitalni qulayroq joylashtirish hamda uzoq muddat davomida undan foyda ko'rish maqsadida eksport qiluvchi mamlakatlarning kapital qabul qiluvchi mamlakatlarning real va moliyaviy aktivlariga qo'yilishini bildirgan holda bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tayotgan kapital oqimidir. Xorijiy investitsiyalarning o'ziga hos xususiyatlaridan biri ularning mamlakatlararo ko'chishi, faqat o'z maqsadini ko'zlashi, amal qilish sharoitlarining o'zgarishi, ancha qulay shartlar bilan qo'yilishi, ishonch qozonishi hisoblanadi.

*Tayanch soʻzlar:* Baynalminallashuv, transmilliylashuv va globallashuv, xalqaro savdo, tashqi iqtisodiy aloqalar, xalqaro migratsiya, ishlab chiqarish, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ishlab chiqarish.

### **Nazorat savollari:**

1. .Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deganda nima tushuniladi ?
2. Xalqaro korporatsiyalarning qanday shakllari mavjud ?
3. Maʼlum bir kompaniya xalqaro korporatsiya deb atalishi uchun qanday koʻrsatkichlarga ega boʻlishi kerak ?
4. .Xalqaro korporatsiyalar qachon vujudga kela boshlagan ?
5. Xalqaro korporatsiyalar shakllanishi nechta bosqichda amalga oshgan ?
6. BMTning «Ming yillik deklaratsiyasi»ni qabul qilishga bagʻishlangan sammiti qachon va qayerda boʻlib oʻtgan?
7. BMTning «Ming yillik» deklaratsiyasining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
8. Minimal oziq ovqat savatiga nisbatan insonning kunlik isteʼmoli necha kkal dan past boʻlsa kambagʻallik chizigʻidan past hisoblanadi?
9. Hozirgi kunda hisob kitoblarga koʻra dunyo aholisining qancha miqdori kuniga 2 dollardan kam mablagʻ hisobiga va qancha miqdori 1 dollardan kam mablagʻ hisobiga yashamoqda?
10. Global muammolarni oʻrganish va insoniyat kelajagini taxminlash jarayoni boʻyicha ilmiy ishlar olib boruvchi xalqaro nohukumat tashkilot –Rim klubi kim tomonidan tashkil etilgan?

## **4-bob. GLOBAL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH INDIKATORLARI**

Reja:

- 4.1. Indikatorlar tushunchasi va turlari. Global barqaror rivojlanish indikatorlari
- 4.2. Global iqtisodiyot rivojlanishining umumiy indikatorlari
- 4.3. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri
- 4.4. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga baho berishning mavjud uslublari tahlili
- 4.5. Milliy iqtisodiyot globallashuvining ko'rsatkichlari
- 4.6. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash

### **4.1. Indikatorlar tushunchasi va turlari. Global barqaror rivojlanish indikatorlari**

BMTning Barkaror rivojlanish konsepsiyasi uning universal tipdagi yagona xalqaro tashkilot bo'lganligi uchun ham asosan shaxs - jamiyat - davlat - hamjamiyatning global miqyosdagi boshqaruviga tegishli masalalarni ko'tarib chiqadi va ushbu rivojlanish potentsiali umumlashtirilgan tarzda muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, institutsional ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Baholash ko'rsatkichlarini fanda «indikator»lar deb yuritiladi. «Indikator» atamasi lotin tilida «indico», ya'ni ko'rsatkich degan ma'noni anglatadi. U xolat, vaziyat, sharoit va jarayonlarni idrok etadigan qulay shaklda aks ettiruvchi qurilmalar orqali baholash uchun aniqlanadigan ko'rsatkichdir. Indikatorlar vizual (kurish), akustik (eshitish), taktil (sezish, islash) kabi xillardan iborat. Kishi axborotlarning 90 foizini ko'rib idrok qilgani uchun ham indekslarning vizual xili amalda ko'p ishlatiladi.

Ko'rsatkichlar bo'yicha baholash bizlarga nafaqat ma'lumotlarni olish, balki uni boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun barqaror rivojlanishning indikatorlarini aniqlash orqali global, perional va lokal miqyosda jamiyatni boshqarish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro miqyosda indikatorlar quyidagi maqsadlarda tasniflandi:

- harakat kuchiga qarab, ya'ni atrof-muhitga jamiyati faoliyatini salbiy ta'sir kuchini aniqlash;

- bosim kuchiga qarab, ya'ni atrof-muhitga antropogen ta'sirni aniqlash;

- holatiga qarab, ya'ni atrof-muhitning avvalgi holatiga nisbatan o'zgarishini aniqlash;

- ta'sir kuchiga qarab, ya'ni organizmlarga atrof-muhit holati o'zgarishini aniqlash;

- reaksiyasiga qarab, ya'ni atrof-muhit masalasiga jamoatchilikning fikrini aniqlash.

Indikatorlar nima uchun kerak:

1. Indikatorlar ko'p yillik katta hajmdagi iqtisodiy ma'lumotlarni umulashtirish va baholash orqali qabul qilingan qarorlarni asoslashda foydalaniladi.

2. Indikatorlar iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi.

3. Indikatorlarni qo'llash iqtisodiyotda yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

4. Indikatorlar har xil toifadagi foydalanuvchilarga ma'lumotlardan unumli foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

Indikatorlar doimo global, mintakaviy, milliy va lokal darajalarda juda ishonarli va tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi lozim. Birinchi uchta daraja umulashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, lokal daraja birorta hudud uchun taalluqlidir. Indikatorning asosiy vazifasi - axborot berishdan iborat. Foydalanuvchiga ma'lumotlarni yetkazib berishda oddiylik va soddalik kerak bo'ladi. Indikatorlar murakkab ma'lumotlarni soddalashtiradi. Indikator ma'lumotlarni monitoring qilish jarayonida to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash natijasida shakllangan mahsulot hisoblanadi. Qayta ishlanmagan, tahlil qilinmagan statistik ma'lumotlar indikator vazifasini bajara olmaydi. Indikatorlar quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari uchun;

- vazirlik va idoralar uchun;

- hokimiyatning maxalliy va mintaqaviy organlari uchun;

- ilmiy va o'quv muassasalari uchun;
- tijorat tuzilmalari uchun;
- jamoat va nodavlat tashkilotlari uchun.

Indikatorlar bilan bir qatorda amalda «indeks»lar ishlab chiqiladi va qo'llaniladi. «Indeks» atamasi lotin tilida «index» ko'rsatkich, ro'yxat degan ma'noni anglatadi. Ya'ni ma'lum bir holat yoki kuzatilayotgan jarayonni bir qator ro'yhatga olingan (belgilovchi) indikatorlar asosidagi ro'yhatga olingan va harflar yoki raqamlar orqali ifodalanadigan ko'rsatkichi. Indeks indikatorlardan farqli aniq bir miqdor ko'rsatkichiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Indeks avvalgi bazaviy ma'lumot indeksi bilan solishtirish orqali tahlil qilinadi. Iqtisodda «Dou Djons indeksi» Nyu-York fond birjasida aksiyalar narxini belgilab beruvchi raqamli indeks bo'lib, u kelajakda brokerlarning bozor rivojlanish tendensiyasini aniqlovchi ma'lumotlarning ro'yxatlangan ko'rsatkichidir. Pekin ushbu indikator va indekslar kelajakni aniq qilib belgilab beradi deyish qiyin. Tug'rirog'i, prognozlashtirilgan va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda tegishli chora-tadbirlarni tavsiya etishga yordam berishi muqarrar.

Yer kurrasida global miqyosda barqaror rivojlanishni ta'minlash o'z-o'zidan lokal va regional miqyosda, aniqroq qilib aytganda, mahalliy, milliy va mintaqaviy miqyosda barqaror rivojlanishdan kelib chiqadi va aynan shu tarzda tizimlashadi.

Barqaror rivojlanish indikatorlari ilk bor BMTning «Rio 92» konferensiyasida qabul qilingan «XXI asr kun tartibida» alohida bir bob sifatida yoritib berilgan. Mazkur indikatorlar 4 ta guruh birlashtirilgan - ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, barkaror rivojlanish maqsadlarida resurslardan oqilona foydalanish, aholi asosiy qatlamlarining rolini oshirish, qarorlarni amalga joriy etish. Ushbu xujjat 40-bobining «Qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar» bo'limida «Qarorlarni qabul qilish jarayonida ishonchli asoslarni yaratish hamda uzviy bog'langan ekotizimlarni o'zini o'zi tartibga solish imkoniyatiga ko'maklashish va tizimli o'sish uchun barqaror rivojlanish indikatorlarinn ishlab chiqish lozim» deb ko'rsatilgan. Turli miqyosda Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga tegishli bo'lgan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shubhasiz, barqaror rivojlanishning eng birlamchi talablaridan biri bo'lib



hisoblanadi. Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro miqyosdagi turli tashkilotlar - BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Yevropa komissiyasi, Atrof-muhit muammolari bo'yicha ilmiy komitet kabi xalqaro idoralar shug'ullanmokdalar. U turli nom va yo'nalishdagi anjumanlarning muhokama bobsiga aylanib qolmoqda. Masalan:

- 132 ta indikatorlardan iborat bo'lgan BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi loyixasi;
- milliy statistikada ekologik va iqtisodiy omillarni hisobga olishga yo'naltirilgan BMTning Statistik bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan «Tizimli integrallashgan ekologik va iqtisodiy milliy hisob» (System for integrated environmental and economic accounting);
- Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan va hisobi yuritiladigan «haqqoniy jamg'arma» (genuine savings);
- iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Yevropa komissiyasining ekologik va iqtisodiy indikatorlar dasturi va h k.

Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish juda serharajat, ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni yagona bir indeksga olib kelishga yo'naltirilgan va majmualiy yondashuvni talab etadigan jarayon. Indikatorlar soni qanchalik ko'paysa, ularni yagona bir umummahrajga olib kelish shunchalik qiyinlashib boraveradi. Bu o'rinda mahsus zamonaviy axborot texnologik dasturlarini yaratish lozim buladi.

BMT komissiyasi tomonidan barqaror rivojlanish bo'yicha ishlab chiqilgan global indikatorlar tizimi 1995 yilda uning III sessiyasida ishtirokchi davlatlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar, ma'lumotlar va axborotlar asosida davlatlarning barqaror rivojlanish holati, bu borada erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash maqsadida dastlabki indikatorlar tizimi qabul qilindi va mazkur tizimni takomillashtirish uchun ekologik va iqtisodiy taraqqiyotga oid ma'lumotlar bazasini mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

**Barqaror iqtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlarining asosiy  
ko'rsatkichlari<sup>24</sup>**

Maqsadlar	Rivojlanish indikatorlari	Joriy holat indikatorlari	Ta'sir etish indikatorlari
<b>A. IJTIMOYIY INDIKATORLAR</b>			
<b><i>Qashshoqlik va ochlikka barham berish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bandlikning o'sish sur'ati (%).</li> <li>• Erkak va ayollarning o'rtacha oylik maoshlari nisbati</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Qashshoqlikda yashovchi aholi (%)</li> <li>• Boy va kambag'allarning daromadlari nisbati</li> </ul>	
<b><i>Demografik o'sish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholining ko'payish sur'ati (%)</li> <li>• Aholining migratsiya qilish sur'ati (nafar/yil)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholining zichligi (nafar/km<sup>2</sup>)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tug'ilishining ko'payishi</li> </ul>
<b><i>Ta'lim, kadrlar tayyorlash va jamiyatning axborot olishiga yordam berish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Maktab yoshidagi aholining o'sish sur'ati</li> <li>• Boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchilari sonining oshishi (%)</li> <li>• O'rta ta'lim maktab o'quvchilari sonining o'shishi (%)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kattalar o'rtasida savodlilar ulushi (%).</li> <li>• 5-sinf darajasida ta'lim olgan aholining ulushi (%)</li> <li>• Maktabda o'rtacha ta'lim olish davomiyligi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ta'limga sarflanadigan YaMM ulushi (%)</li> <li>• Maktabda 100 nafar o'g'il bolaga to'g'ri keluvchi qizlar soni</li> <li>• Ishlovchilar o'rtasida 100 nafar erkakka to'g'ri keluvchi ayollar soni</li> </ul>
<b><i>Aholi salomatligini muhofaza qilish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Toza ichimlik suviga yetarli darajada ega bo'lmagan aholining ulushi (%)</li> <li>• Oqar suv tizimi ta'minlanmagan uy-joylarda yashovchi aholining ulushi (%)</li> <li>• Salomatlik uchun zararli bo'lgan ifloslangan havo ta'siridagi aholining ulushi (%).</li> <li>• Yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan aholining ulushi (%).</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqlarda o'lim miqdori.</li> <li>• Tug'ilshida o'rtacha umr ko'rishning kutilayotgan natijasi.</li> <li>• 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa tug'ruq vaqtida onalarning o'lim miqdori</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sog'liqni saqlashga sarflanadigan YaIM ulushi (%)</li> <li>• Birinchi tibbiy xizmat ko'rsatiladigan aholining ulushi (%)</li> <li>• Asosiy yuqumli kasalliklarga qarshi emlangan aholining ulushi (%)</li> <li>• Oilani rejalashtirish muammosini muhokama qilish imkoniyatiga ega bola tug'ish yoshidagi ayollar soni</li> <li>• Mahalliy tibbiy</li> </ul>

<sup>24</sup> Барқарор ривожланиш ва унинг тизимли индикаторлари [Матн]: Монография / А.Н. Нигматов ва бошқ. - Тошкент: Spectrum Media Group. 2015., 55 бет

			xizmat ko'rsatishga milliy sog'likni saqlashdan kelgan xarajatlar ulushi
<b><i>Qishloqlarda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Shaharlarning ko'payishi (%)</li> <li>• Aholi boshiga yoqilg'i iste'moli (litr)</li> <li>• 10 million va undan ko'p aholiga ega megapolislar soni</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Shahar aholisining ulushi (%)</li> <li>• Tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan va halok bo'lganlar soni va ziyoni</li> <li>• Aholi boshiga to'g'ri keladigan uy-joyning umumiy maydoni (m<sup>2</sup>)</li> <li>• Uy-joy to'lovlari va daromadning nisbati</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Arzon uy-joylar qurilishiga sarflanadigan xarajat</li> <li>• Jamoat transportlari ta'minotiga ketadigan xarajatlar</li> <li>• Aholi boshiga infratuzilma xarajatlari.</li> <li>• Uy-joy qurilishiga ajratilgan kreditlar hajmi</li> </ul>
<b>B. IQTISODIY INDIKATORLAR</b>			
<b><i>Iqtisodiy rivojlanish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati (%)</li> <li>• Xizmat va tovarlarning eksporti.</li> <li>• Xizmat va tovarlarning importi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholi jon boshiga YaIM</li> <li>• YaIM ishlab chiqarishga qo'shgan xissasi (%)</li> <li>• YAIM eksport ulushi (%)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• YaIMda investitsiya ulushi</li> <li>• Regional savdo bitimlardagi ishtirok (ha/yo'q)</li> </ul>
<b><i>Iste'mol xarakterini o'zgarish</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mineral resurslar zahirasi qisqarishi (tasdiqlangan zahiradan % hisobida)</li> <li>• Aholi jon boshiga energiyaning yillik sarfi</li> </ul>		
<b><i>Moliyaviy resurs va mexanizmlar</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• YaIMda resurslar sotuvining ulushi (%)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Rivojlanish uchun tashqi yordam (olingan yoki berilgan, YaIMdan % hisobida)</li> <li>• Qarzlarning (YaIM dan % hisobida)</li> <li>• Qarzlarga xizmat ko'rsatish (qarzdin % hisobida)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Atrof-muhit muhofazasi uchun ajratilgan YaIM ulushi</li> <li>• Davlat daromadida ekologik soliq va subsidiyalarning foizi</li> <li>• Barqaror rivojlanish uchun qo'shimcha moliyalashtirish miqdori</li> <li>• Qarzlarning undirilishi</li> </ul>

2001- yil BMT BRKning 9-sessiyasi 48 ta indikatorni tasdiqladi va nomi bilan alohida nashr etildi. BMTning mingyillik arafasida e'lon qilgan «Mingyillik

rivojlanish maqsadlari»da (Millennium Development Goals) barqarorlikni ko'rsatuvchi omil sifatida atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri misolida izohlash mumkinligi ta'kidlangan. Unda mamlakatlarda insoniyat salohiyatini oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan indikatorlar tizimi taklif qilingan. BMTning MRMDa asosiy ekologik maqsad umuman Yer kurrasi va alohida davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga chaqirishdir. Barqaror rivojlanishning indikatorlar tizimiga kompleks yondashish va shakllantirish borasidagi harakatlar BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi tomonidan 1996- yildan boshlab amalga oshirilgan. Taklif etilgan umumiy indikatorlar soni 132 tani tashkil etgan. Ular hammasi to'rt guruhga bo'lingan: ijtimoiy (41), iqtisodiy (26), ekologik (55) va tashkiliy (10).

#### **4.2. Global iqtisodiyot rivojlanishining umumiy indikatorlari**

Ular qatoriga qo'ydagilar kiradi. *Birinchi*dan, "Inson taraqqiyoti indeksi" reytingiga jami 189 mamlakat kiritilgan bo'lib, har bir mamlakatning global iqtisodiyotda tutgan mavqeini belgilaydi. Reytingdagi davlatlar o'z ta'lim darajasi, umrning o'rtacha uzunligi va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengligi, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ham hisobga olingan.

2018- yilda chop etilgan mazkur reytingda inson rivojlanishining eng yuqori darajasi 59 mamlakatda qayd etildi. Reytingda Norvegiya birinchi o'rinni egalladi, Shveytsariya ikkinchi va Avstraliya uchinchi o'rinda qayd etildi, Rossiya (49-o'rin), Qozog'iston (58-o'rin), Turkmaniston 108-o'rinni, O'zbekiston "Inson taraqqiyoti indeksi" yuqori mamlakatlar qatoridan joy oldi va 105-o'rinni egalladi, Qirg'iziston 122-o'rinni va Tojikiston 127-o'rinni egallagan. Ro'yxatni eng quyi rivojlanish darajasi bilan Janubiy Sudan, Markaziy Afrik Respublikasi va Niger yakunlagan.

*Ikkinchi*dan, KOF versiyasi bo'yicha dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi.

Dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi (KOF Index of Globalization), Shveysariya iqtisodiyot instituti (KOF Swiss Economic Institute) tomonidan aniqlanadi.

2002- yilda birinchi bor dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi (KOF Index of Globalization) Shveysariya iqtisodiyot institutining (KOF Swiss Economic Institute) Shveysariya texnologiya instituti (Swiss Federal Institute of Technology). hamkorligi asosida yaratildi. Ushbu indeks kompleks ko'rsatkich sifatida u yoki bu mamlakatning dunyo miqyosida integratsiyalashish ko'lamiga baho berib, uning jihatlari bo'yicha boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Loyiha mualliflari globallashuvga milliy chegaralarni yo'qotuvchi, milliy iqtisodiyot, madaniyat, texnologiya, boshqaruv, shuningdek, odamlar, kapital, g'oya kabilarni o'z ichiga oluvchi turli xil oqimlar orqali bog'langan murakkab munosabatlarni va o'zaro aloqalarni vujudga keltiruvchi jarayon sifatida ta'rif berishadi. Bunga bog'liq ravishda indeks globallashuvning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Indeks doirasida tadqiq qilinadigan barcha mamlakatlar global integratsiyaning 3 ta asosiy guruhi tarkibiga kiritilgan 24 ta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi:

1. Iqtisodiy globallashuv – xalqaro savdo hajmi, xalqaro tadbirkorlik faoliyati darajasi, savdo oqimlari, xalqaro sarmoyalar, tarif siyosati, xalqaro savdoga cheklov hamda bojlar va boshqalar.

2. Ijtimoiy globallashuv – madaniy integratsiyalashuv darajasi, mamlakatdagi xorijiy fuqarolar ulushi, xalqaro turizm, xalqaro shaxsiy aloqalar, telefon trafiklari hajmi, pochta jo'natmalari, transchegaraviy pul o'tkazmalari, axborot oqimlari, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi va hokazolar.

3. Siyosiy globallashuv – mamlakatning xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, xalqaro missiyalarda ishtiroki (shu jumladan BMT missiyalari), ko'ptomonlama xalqaro bitimlarning ratifikatsiyasi, mamlakatdagi elchixonalar hamda chet el vakolatxonalarining soni va boshqalar.

Globallashuv darajasi indeksi yuqorida ko'rsatilganlarga mos ravishda quyidagi 36 foiz, 39 foiz va 25 foiz koeffitsientlarning yig'indisi sifatida hisoblab

chiqiladi. Ushbu tadqiqot qamrab olgan barcha mamlakatlar uchun Globallashuv indeksi reytingi tuziladi. Mazkur reyting ularning tadqiq qilinayotgan boshqa mamlakatlar orasidagi o‘rnini aniqlab beradi.

4.2-jadval

**Globallashuv indeksi bo‘yicha dunyo mamlakatlari reytingi  
(2013, 2016- yillar)**

№	2013 yil		№	2016 yil	
	Mamlakat	Indeks		Mamlakat	Indeks
1	Belgiya	92,30	1	Shveysariya	89,35
2	Irlandiya	91,79	2	Niderlandiya	89,14
3	Niderlandiya	91,33	3	Belgiya	88,95
4	Avstriya	89,48	4	Shvetsiya	88,17
5	Singapur	88,89	5	Buyuk Britaniya	87,20
6	Daniya	88,12	6	Daniya	86,99
7	Shvetsiya	87,63	7	Avstriya	86,40
8	Portugaliya	87,07	8	Germaniya	85,30
9	Vengriya	86,85	9	Fransiya	85,19
10	Shveysariya	86,28	10	Finlandiya	85,13
<b>Shu jumladan:</b>					
82	Qozog‘iston	58,04	81	Qozog‘iston	64,39
87	Qirg‘iziston	56,12	86	Qirg‘iziston	63,14
54	Tojikiston	40,79	163	O‘zbekiston	46,93
70	Turkmaniston	36,06	67	Tojikiston	46,36
74	O‘zbekiston	34,41	84	Turkmaniston	42,02

Manba: <http://gtmarket.ru/ratings/kof-globalization-index/info>

Indeksni shakllantirishda manba sifatida Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, BMT, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda statistika institutlari ma’lumotlarining ixtisoslashtirilgan bazalaridan foydalaniladi. Globallashuv indeksi bo‘yicha 2013- va 2016- yillarda birinchi o‘ntalikda o‘rin olgan mamlakatlar ro‘yhati – jadvalda keltirilgan.

*Uchinchidan*, global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index) Kolumbiya universiteti professori Ksave Sala-i-Martin (Xavier Sala-i-Martin, Columbia University) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Jahon iqtisodiy

forumi (World Economic Forum) 2004- yildan boshlab aniqlanib kelmoqda<sup>25</sup>. Jahon iqtisodiy forumi fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligi davlatning va uning institutlarini barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. Institutsional omillar bilan birgalikda ta'lim va ishchi kuchining malakasini oshirish, yangi texnologiyalar va bilimlarga ega bo'lish ham asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi.

Jahon iqtisodiy forumi tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatlarning reytingi ikkita indeks bilan aniqlanadi:

- ✓ Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index, GCI);
- ✓ Biznesni raqobatbardoshlik indeksi (Business Competitiveness Index, BCI).

Global raqobatbardoshlik indeksi 113ta ko'rsatkichdan iborat bo'lib, turli rivojlanish darajasida turgan mamlakatarning raqobatbardoshligini batafsil yoritib beradi. Barcha ko'rsatkichlar 12 ta guruhga kiritilgan:

1. Institutlar sifati.
2. Infratuzilma.
3. Makroiqtisodiy barqarorlik.
4. Sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'lim.
5. Oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik.
6. Tovar va xizmatlar bozorining samaradorligi.
7. Mehnat bozorining samaradorligi.
8. Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi.
9. Texnologik rivojlanganlik darajasi.
10. Ichki bozorning hajmi.
11. Korxonalarining raqobatbardoshligi.
12. Innovatsion salohiyat.

---

<sup>25</sup> Индекс глобальной конкурентоспособности. <http://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

**Global raqobatbardoshlik indeksi, 2017-2018 yil**

Reyting	Mamlakat	Indeks
1	Shveysariya	5,9
2	AQSH	5,9
3	Singapur	5,7
4	Niderdandiya	5,7
5	Germaniya	5,7
6	Gonkong	5,5
7	Shvetsiya	5,5
8	Buyuk Britaniya	5,5
9	Yaponiya	5,5
10	Finlyandiya	5,5
<b>Shu jumladan:</b>		
38	Rossiya	4,6
57	Qozog‘iston	4,3
79	Tojikiston	4,1
102	Qirg‘iziston	3,9

Manba: Indeks globalnoy konkurentosposobnosti. <http://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

**4.3. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indekslari**

Jahon bankining “Doing Business-2018” reytingida O‘zbekiston 87-o‘rindan 74-o‘ringa ko‘tarildi va ishbilarmonlik iqlimini yaxshilash bo‘yicha dunyoning etakchi davlatlar qatoridan joy oldi<sup>26</sup>.

UNCTAD metodologiyasiga ko‘ra, TMKlarni ishlab chiqarishining transmilliylashuvi qo‘yidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

- FA – TMKlarning xorijiy aktivlari;
- TA – TMKlar aktivlari;
- FS – TMKlarning xorijdagi sotuvlar hajmi;
- TS – TMKlarning sotuv hajmi;
- FE – TMKlarning xorijdagi hodimlar soni;
- TE – TMKlarning hodimlar soni;
- FAF – TMKlarning xorijdagi filiallari;

<sup>26</sup> Узбекистан поднялся с 87 на 74 место в новом рейтинге Всемирного банка Doing Business-2018 <http://uz24.uz/economics/uzbekistan-podnyalsya-na-13-poziciy-v-reyting-doing-business>



TAF – TMKlarning jahondagi filiallarining umumiy soni.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida TMKlarning xorijdagi faoliyati baholanadi.

TMKning tranmilliylashuv indeksi (TNI – transnationality index):

$$TNI = (FA/TA + FS/TS + FE/TE) / 3 \cdot 100 \text{ foiz.} \quad (1)$$

Baynalminallashuv indeksi (II - internationality index):

$$II = (FAF/TAF) \cdot 100 \text{ foiz.} \quad (2)$$

Filial tarmoqlarining kengligi indeksi (NSI - network spread index):

$$NSI = N/(N^*-1) \cdot 100 \text{ foiz,} \quad (3)$$

Bu erda:

N – turli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar soni;

N – TMKlar filiallari mavjud bo'lgan mamlakatlar soni.

#### **4.4. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga baho berishning mavjud uslublari tahlili**

Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning hududlarida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuni e'tirof etish lozimki, ushbu jarayon umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, o'zining salbiy ta'sirini ham namoyon etadi. Mazkur holatning mavjudligi bir-biriga bog'liq bo'lgan barcha parametrlarni miqdoriy jihatdan baholashni, salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni esa yumshatishni, ularni me'yor darajasida faoliyat yuritishini ta'minlashni talab etadi.

Tadqiqotlarni amalga oshirish davomida shuning guvohi bo'ldikki, yuqorida ta'kidlangan masalani hal etishga qaratilgan bir qancha uslubiy ishlanmalar, xususan, hududning barqaror rivojlanish darajasi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashga qaratilgan izlanishlar xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar tomonidan amaliyotga tatbiq etilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Bularni quyidagi jadval orqali izohlash mumkin.

### Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini uslubiy baholashga qaratilgan ko'rsatkichlarning qisqacha sharhi

Uslub	Ko'rsatkichlar tizimi
Genuine saving (Jahon banki tomonidan aniqlanadigan jamg'armalar") "Haqiqiy jamg'armalar")	GS (Genuine saving) = (GDS-CFC)+EDE-DRNR-DME, bu erda: CDS – yalpi ichki jamg'armalar, CFC – ishlab chiqarish aktivlari qiymatining pasayishi (eskirishi hisobiga), EDE – ta'limga ajratilgan xarajatlar, DRNR – tabiiy resurslarning yo'q bo'lishi, DME – atrof-muhitning yomonlashuvi hisobiga ko'riladigan zararlar
Ko'rsatkichlar indikatori tizimi Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning Barqaror rivojlanish komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan	4 ta soha bo'yicha jami 60 ta indikatorlar: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, institutsional
S.A.Zarubin tomonidan taklif etilgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi barqarorligini anglatuvchi integral ko'rsatkichlar	3 ta soha bo'yicha ko'rsatkichlar: iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik
O.V.Skotarenko tomonidan taklif etilgan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash uslubi	11 ta ko'rsatkichlar: YAHM, jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, jon boshiga to'g'ri keladigan tashqi savdo aylanmasi hajmi, xususiy korxonalarda band bo'lgan o'rtacha ishchilar soni va b.q.
Ijtimoiy-iqtisodiy potensialni baholash uslubi, I.V.Taranenko tomonidan taklif etilgan	Beshta soha: real sektor, investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyat, korxonalarining moliyaviy faoliyat natijalari, ijtimoiy sektor, iste'mol bozori
A.N.Sirov tomonidan taklif etilgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy potentsiali	Olti soha: mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy, moliya, transport, infrastruktura

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini barqarorlashtirish muammosiga qaratilgan uslubiy tahlillarni solishtirish, ularni har tomonlama tadqiq etish orqali quyidagi juz'iy qarashlarni keltirish mumkin.

Birinchi usul, hudud barqarorligiga baho berishning yagona ko'rsatkichga asoslanishi. Bunga "Genuine saving" ("Haqiqiy jamg'arma" ko'rsatkichi) uslubini keltirish mumkin. Uning maqsadi rivojlanish uchun muhim bo'lgan jami aktivlarning sof o'zgarishi qiymatini: ishlab chiqarish aktivlari, tabiiy resurslar, atrof muhitning holati, inson kapitalini inobatga olishdan iborat.

Yakuniy ko'rsatkichni hisoblash (GS) ikkita bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda sof ichki jamg'armalar qiymati aniqlanadi (NDS), ikkinchi bosqichda sof ichki jamg'armalarning ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar hisobiga ko'payishi, tabiiy resurslarning yo'qolishi esa atrof-muhitning yomonlashuvi hisobiga pasayishi namoyon bo'ladi. Ushbu uslubning afzalligi shundaki, u bir xil qiymatga ega bo'lgan ijobiy yoki salbiy natijalarning hisoblanishiga olib keladi. Salbiy natijalarning doimiyligi hududni nobarqaror rivojlanish yo'lidan borayotganligini anglatadi. Biroq "Genuine saving" uslubini boshqa uslublar bilan solishtirganda, uning ayrim zaif jihatlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ushbu uslub keng ko'lamda mamlakat farovonligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, hududning barqaror rivojlanishini baholashga ojizlik qiladi.

Ikkinchi usul, 1996 yilda BMTning (UN CSD) Barqaror rivojlanish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, unda barcha barqaror rivojlanish indikatorlari tizimi to'rtta: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va institutsional sohalarni qamrab oladi. Dastlabki ishlanmalarda yuqoridagi to'rtta qamrovni inobatga olgan jami 134 ta indikator hisoblangan bo'lsa, keyinchalik ular takomillashtirilib 60 taga qisqartirildi va boblar kesimida turli xildagi tavsiflar ham kiritilib, ularning ishonchliligi yanada orttirildi.

Yuqorida zikr etilgan hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks etuvchi uslub samarali bo'lib, qaysidir ma'noda universal ham hisoblanadi. Biroq, O'zbekiston hududlarining shart-sharoiti, rivojlanishining turlichaligini inobatga olib, uni aynan mavjud holicha tatbiq etish nomaqbul hisoblanadi. Shuning uchun ushbu uslubni mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeliga moslashtirish, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun bir qancha bosqichdan iborat bo'lgan quyidagi integral ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Birinchi bosqich – tanlangan ko'rsatkichlarni asoslash.

Ikkinchi bosqich – har bir ko'rsatkich bo'yicha hududning barqarorligiga baho berish (1,2).

$$k_i = x_i / \max(x_i) - \text{to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatkich, (1)}$$

$$k_i = \max(x_i) / x_i - \text{teskari ko'rsatkich}, (2)$$

Bu yerda,  $x_i$  –i hududdagi ko'rsatkichlar miqdori;

$\max(x_i)$ ,  $\min(x_i)$  – namuna-ko'rsatkich (benchmarking), ya'ni hudud rivojlanishining optimal (kritik) qiymatini aks etuvchi ko'rsatkichlar tanlab olinadi.

Uchinchi bosqich – ko'p qirrali taqqoslama tahlil orqali iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik (I iqt., I ijt., I ekol.) barqarorlikni hisoblash.

To'rtinchi bosqich – integral ko'rsatkichni shakllantirish.

Integral ko'rsatkichning miqdori 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda bo'ladi.

Beshinchi bosqich – eng yuqori (moliyaviy va intellektual resurslar bilan ta'minlangan hududlar: rivojlanish salohiyatiga, diversifikatsiya qilingan va maqbul ekologik muhitga ega bo'lgan) va eng quyi barqarorlikka ega bo'lgan natijalarni talqin etishdan iborat.

Taklif etilayotgan “Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini baholash uslubi” hududning umumiy holati bo'yicha ma'lum bir xulosalarni shakllantirishda qo'l keladi. BMTning Barqaror rivojlanish komissiyasi tomonidan taqdim etilgan “Genuine saving” (“Haqiqiy jamg'arma” ko'rsatkichi) “Ko'rsatkichlar-indikator tizimi” hududlarning barqaror rivojlanishini baholashda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda globallasuvi va tashqi tahdidlarning hudud iqtisodiyotining rivojlanish jarayoniga ta'siri negizida samarali hisoblansa, integral ko'rsatkichlar uslubi asosida baholash esa, mamlakat ichkarisida samaralidir.

Bugungi kunda hududlar potensialini (salohiyatini) baholashda foydalanilgan integral ko'rsatkichlar uslubini ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin. Bularga, o'rtacha arifmetik va ko'rsatkichlar qiymatini hosilaviy miqdorlar orqali hisoblash usullarini keltirish joizdir.

Izlanishlarni davom ettirish, ularni yanada chuqurlashtirish orqali mazkur sohaga tegishli bo'lgan ilmiy manbalar tahlil etilganda, birinchi guruh, ya'ni o'rtacha arifmetik usullar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy potensialini baholashda bir guruh olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni qayd etish mumkin. Ular tomonidan taklif etilgan hisob-kitoblar uchta bosqichda amalga oshirilgan:

1. Hudud potentsiali darajasini kompleks baholashning bazaviy ko'rsatkichlari miqdori. Ushbu indikatorlar guruhiga YaHM, jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, xususiy korxonalarda band bo'lgan o'rtacha ishchi kuchi sonining ulushi va boshqalar (jami 11 ta ko'rsatkich).

2. Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarining rivojlanish salohiyati ko'rsatkichi: ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishining yig'ma ko'rsatkichi, jon boshiga qazib chiqarilgan foydali qazilmalar; jon boshiga to'g'ri keladigan qayta ishlab chiqarish; jon boshiga to'g'ri keladigan foydalanishga topshirilgan uy-joylar, jon boshiga to'g'ri keladigan atrof-muhitga chiqarilgan ifloslangan oqova suvlar.

3. Kompleks baholash ko'rsatkichi miqdori.

$$BALL = \{ BALL_p / n \} \quad (4)$$

Bunda  $BALL_p$  – ballik baholash qiymati;

$n$  – ko'rsatkichlar soni.

Ushbu uslub hududlarni har tomonlama tafsiflash uchun yetarlicha ko'p bo'lgan ko'rsatkichlar to'plamidan iborat bo'lsa-da, bir qator ko'rsatkichlar bir-birini aynan takrorlagani uchun ham, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholashning ishonchliligini pasaytiradi.

Ikkinchi guruhga tadqiqotchi I.V. Taranenko tomonidan ishlab chiqilgan uslubni qayd etish mumkin. Ushbu uslub doirasida ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajasi quyidagi beshta soha ko'rsatkichlariga asoslanib baholangan: real sektor, investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyat, korxonaning moliyaviy natijalari, ijtimoiy sektor, iste'mol bozori.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholashning matematik instrumenti quyidagi taqqoslama ko'rsatkichlar orqali ifodalangan (5) va (6):

$$q_i = P_{ri} / P_{sti} \quad (5)$$

$$q_i = P_{sti} / P_{ri} \quad (6)$$

Bunda  $P_{ri}$  – ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning  $i$ -ko'rsatkichi miqdori (hudud uchun);

$P_{sti}$  – ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning  $i$ -ko'rsatkichi miqdori (o'rtacha umummamlakat uchun).

Bunda, agar hisoblangan ko'rsatkichning oshishi hudud rivojlanishi potensialining ijobiy o'zgarishiga olib kelsa, (5) formuladan, aksincha bo'lsa, (6) ifodadan foydalaniladi.

Hududning yakuniy ijtimoiy-iqtisodiy potentsiali reytingini hisoblashda quyidagi ifodadan foydalanish keltiriladi:

$$R_r = P_i^n = q_i \quad (7)$$

Bunda  $R_r$  – hudud ijtimoiy-iqtisodiy potentsiali rivojlanishining yakuniy bahosi (reyting bahosi);

$n$  – ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning taqqoslama miqdori.

Izohi keltirilayotgan mazkur uslubiy apparatning ustun tomoni shundaki, u orqali har bir hududning yalpi milliy potentsialga qo'shayotgan hissasini aniqlashning imkoniyati mavjuddir.

Hududlarning iqtisodiy potentsialini baholash metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, ya'ni uchinchi guruhga A.N. Sirova tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarni qayd etish o'rinlidir. Ushbu guruhga mansub bo'lgan tadqiqotlarda asosan hududning mavjud salohiyatini aks ettiruvchi resurslar qiymati va ulardan foydalanish darajasini baholashga qaratiladi.

Hududlar salohiyatini kompleks baholash metodikalarini o'rganish, ularni tahlil qilish asnosida mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini aniqlashda iqtisodiyotning quyidagi sohalari bo'yicha indikatorlarni hisoblash tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir:

1. Mehnat (aholining soni, iqtisodiy faol aholining ulushi, aholining oliy ma'lumotga ega bo'lgan qatlami).
2. Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish hajmi, korxonalarda mavjud bo'lgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati).
3. Moliyaviy (soliq, byudjetning soliqsiz daromadlari, byudjet xarajatlari, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar).
4. Tabiiy (qishloq xo'jalik yerlari, qishloq xo'jaligida yaratilgan tovar va xizmatlar, foydali qazilmalar).

5. Transport (avtomobil va temir yo'llarning uzunligi, tashilgan yuklarning hajmi).

6. Infratuzilma (oqova suvlar, elektr tarmog'ining quvvati, aholi turar joylarining tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi).

Ushbu indikatorlar bo'yicha hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholash hududiy boshqaruv organlari uchun tezkor qarorlarni qabul qilishda, shuningdek, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda qulaylik yaratish bilan bir qatorda, hududlarni kompleks rivojlanishini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Buning uchun esa, quyidagi metodologik muammolarni hal etish muhimdir:

– ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va uning komponentlariga iqtisodiy kategoriya va statistik o'rganish ob'ekti sifatida qarash;

– mavjud bo'lgan resurslar hajmi xarakteristikasi, ularning tarkibi, sifati va boshqa bir qator parametrlari bo'yicha hudud salohiyatini aniqlash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish;

– salohiyatning turli elementlarini baholash metodologiyasini yaratish;

– hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqolishini (pasayib borishini) baholaydigan metodologiyani ishlab chiqish;

– hudud salohiyatidan noqonuniy va xufiyona foydalanish holatlarini aks etuvchi metodologiyani ishlab chiqish;

– hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha metodologiyani yaratish.

– bozor sharoitida hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish omillarini va ularning ta'sir qilish ko'lamini aniqlash bo'yicha metodologiyani ishlab chiqish va x.k.

#### **4.5. Milliy iqtisodiyot globallashtirishining ko'rsatkichlari**

Milliy iqtisodiyotlarning tashqi dunyoga ochilishi ular tashqi iqtisodiy faoliyatining barcha shakllari bo'yicha kuzatiladi. Milliy iqtisodiyotning globallashtirish ko'rsatkichlari bundan dalolat beradi va ularning eng qisqa to'plami taxminan quyidagicha ko'rinishga ega:

- tashqi savdoda – bu eksport kvotasi va import boj tarifi. Birinchi indikator eksportga yo‘naltirilgan mahsulotning mamlakatda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotga bo‘lgan nisbatini tavsiflaydi va milliy hisoblar tizimidan olinadi. Soddalashtirilgan ko‘rinishda u eksportning XQP bo‘yicha YaIM (YaMD)ga nisbati sifatida hisoblanadi (tovarlar va xizmatlar jahon narxlari bo‘yicha eksport qilinadi va shuning uchun ularni jahon narxlarida qayta hisoblangan YaIM (YaMD) bilan o‘zaro bog‘lanishini aniqlash zarur), biroq uni milliy hisoblar tizimidan olgan ma‘qul (2018-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikada tashqi savdo aylanmasi 33 815,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 27,3 % ga o‘tdi. Shu jumladan, eksport hajmi 14 257,9 mln. AQSH dollarga (o‘sish sur‘ati 13,6 %) va import hajmi 19 557,4 mln. AQSH dollariga (o‘sish sur‘ati 39,6 %) etdi. Tashqi savdo saldosini minus 5 299,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi). Ikkinchi indikator milliy bozorlarning chet ellik raqobatchilar uchun ochiqligini tavsiflaydi;

- xalqaro bilimlar savdosida (ayirboshlashda) – bu bilimlar savdosi va YaIM hajmi o‘rtasidagi o‘sib boruvchi o‘zaro nisbatdir. Xususan, mamlakatga royalti va litsenziyalar eksporti va importi hamda uning YaIM (YaMD) o‘rtasidagi o‘zaro nisbat bundan dalolat beradi. U foizning ulushlari ko‘rinishida hisoblansada, shunga qaramay u ahvolni yaqqol ko‘rsatadi: AQSHda 2013- yilda royalti va litsenziyalar eksporti va importining XQP bo‘yicha hisoblangan YaMDga o‘zaro nisbati 0,75% va 0,23%ni tashkil qilardi, Yaponiyada – 0,67% va 0,37%, Xitoyda esa – 0,005% va 0,13%ga teng;

- milliy iqtisodiyot uchun xorijiy kapitalning ahamiyati to‘g‘risida qator ko‘rsatkichlar, shu jumladan, xorijiy kapitalning kirib kelishi va YaIM o‘rtasidagi, shuningdek to‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsiyalarning kirib kelishi va mamlakat ichida kapital qo‘yilmalar hajmi o‘rtasidagi (bu erda barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ushbu kapital qo‘yilmalarning tarkibiy qismiga aylanishi nazarda tutiladi) o‘zaro nisbat ma‘lumot beradi. Shuni aytib o‘tamizki, ushbu o‘zaro nisbat retsessiya va sust kon‘yunktura davrida keskin pasayadi;



## Iqtisodiyot ochiqligining ayrim ko'rsatkichlari

Mamlakat va integratsion birlashmalar	2015 yilda tovarlar va xizmatlar eksportining XQP bo'yicha hisoblangan YAMDga nisbati, % hisobida	2015 yilda o'rtacha arifmetik import boj tarifi, olib kirilgan tovarlar qiymatining % hisobida	2016 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar importining YaIMga nisbati, % hisobida	2015 yilda aholi tarkibida immigrantlar ulushi, % hisobida
AQSH	13,0	3,5	0,5	13,1
Yevro Ittifoqi*	47,9	5,5	0,4**	12,8
Yaponiya	18,0	4,9	0,1	1,7**
Xitoy	14,6	9,9	1,2	0,1***
Hindiston	6,9	13,5	1,7	0,4***
Braziliya	8,8	13,5	2,7	0,4***
Janubiy Afrika Respublikasi	16,5	7,6	1,6	3,7***
Rossiya	17,0	9,7	1,1	7,8***
Meksika	20,6	7,9	1,8	0,8
Malayziya	40,0	6,0	3,3	...
Turkiya	14,2	10,8	1,5	1,9***
Indoneziya	8,4	6,9	2,5	0,1***
Saudiya Arabistoni	25,0	4,8	1,0	26,6***

\* Faqat Germaniya

\*\* ekspertlar bahosi

\*\*\* 2010 y.

Manba: OESD. International Migration Outlook. September 2016. P. 311; World Bank. World Development Report 2015. Washington, 2016; WTO. World Tariff Profiles. Geneva, 2015. P. 6-10; <http://data.worldbank.org/indicators>

- xalqaro ishchi kuchining migratsiyasini umumiy xalqaro migratsiyadan ajratish statistik jihatdan murakkab hisoblanadi, lekin umumiy aholi sonida immigrantlarning ulushidan foydalanish mumkin. Mamlakatning iqtisodiy faol aholi sonida doimiy va vaqtincha ishlash uchun kelganlarning ulushi ko'rsatkichi ahvolni yanada yaqqol ko'rsatan bo'lar edi, biroq u odatda faqat baholar bilan taqdim etilgan (4.5-jadval.)

*Milliy iqtisodiyot globallashuvining oqibatlari (Rossiya misolida)*

Globallashuv milliy iqtisodiyot uchun ijobiy, salbiy va ikkiyoqlama oqibatlarga ega. Ijobiy oqibatlarga iqtisodiy o'sishning jadallashuv imkoniyatlarining o'sishini,

salbiy oqibatlariga – mamlakat iqtisodiy rivojlanishining izdan chiqishi, ikkiyoqlama oqibatlariga esa – uning global iqtisodiyot kon'yunkturasiga qaramligining kuchayishi kiradi.

Globalashuvning faol ishtirokchilari bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning jadallashuvi, ular, jahon bozorida o'z ustunliklaridan kuchliroq foydalanishlari mumkinligi tufayli ro'y beradi. Bu xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy resurslar harakati konsepsiyalaridan, shuningdek mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligi nazariyasidan kelib chiqadi. Ularning xulosalariga muvofiq, ochiq iqtisodiyotli mamlakatlar globalashuvdan eng ko'p naf oladilar, va shuning isboti sifatida iqtisodiyotning ochiqligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi yuqori korrelyasiya (o'zaro bog'liqlik) keltiriladi. Biroq ushbu korrelyasiyani boshqa mantiq bo'yicha ko'rib chiqish mumkin – milliy iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari odatda, uning xalqaro raqobatbardoshligining oshishi bilan birga kechadi, va shu sababli u tobora ochiqlashib borishi mumkin. XIX asrning eng ilg'or iqtisodiyoti – Britaniya iqtisodiyoti shu bilan birga eng ochiq ham edi, uni quvib etishga intilayotgan Amerika va Germaniya iqtisodiyotlari esa tayyor mahsulotlarga bir necha o'nlab foiz miqdoridagi import bojlariga ega bo'lib, ular ushbu bojlarni faqat o'z raqobatbardoshligining o'sib borishi bilan pasaytirib borar edilar.

Mamlakat iqtisodiy o'sishining izdan chiqishi, unda tashqi talab ta'siri ostida unchalik ilg'or bo'lmagan (lekin jahon bozoridagi raqobatbardosh) tarmoqlarning ilgarilab boruvchi rivojlanishi tufayli ro'y berishi mumkin bo'lib, buning natijasida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi hatto pasayishi ham mumkin, globalashuvdan esa faqat ushbu tarmoqlar bilan bog'langan aholi qatlamlari va mintaqalar naf ko'radilar ( iqtisodiy nazariya buni “golland kasalligi” tushunchasi bilan ataydi). Bunga yaqqol misol bo'lib Rossiya hisoblanadi.

6 -jadval ma'lumotlariga ko'ra Rossiyaning eksport kvotasi boshqa yirik iqtisodiyotlar darajasiga yaqin. Biroq, ushbu ko'rsatkich asosan xomashyo eksportidan iborat bo'lib, va natijada u jahon bozori kon'yunkturasining, tayyor,

ayniqsa ilmtalab mahsulotlar jahon narxlarining tebranishlariga qaraganda ancha kuchli bo'lgan tebranishlaridan aziyat chekadi.

Bunda tashqi iqtisodiy sektordan soliq tushumlari (ayniqsa, uglevodorodlarga eksport bojlari) Rossiya jamlangan (konsolidatsiyalangan) byudjeti daromadlarining uchdan bir qismini tashkil etishini hisobga olish zarur. Bundan tashqari Rossiyaning ko'pgina eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarida tashqi bozor, ushbu tarmoqlarni (neft va gaz, metallurgiya, o'g'itlar ishlab chiqarish) ichki kon'yunktura emas, balki ko'proq tashqi kon'yunkturaning hukmiga topshirib, ichki bozorni almashtirib bormoqda. Bu, fond bozorida bitimlarning yarmisi chet ellik rezidentlarga, uzoq muddatli kreditlarning uchdan bir qismi esa – xorijiy banklarga to'g'ri keladigan moliyaviy sektorda ham kuzatiladi. Bunday vaziyat, Rossiya kabi yirik iqtisodiyot uchun tashqi bozorga qaraganda ichki bozorning ahamiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Mahalliy, ayniqsa, zamonaviy tarmoqlarga nisbatan kuchliroq (asosan tarifli emas, balki davlat ko'magi ko'rinishidagi bilvosita) proteksionizm ularning modernizatsiya qilinishiga va pirovardida ular raqobatbardoshligining oshishiga ko'maklashishi va shu asosda – ilmtalab tovarlar hisobiga Rossiya eksportining diversifikatsiyalashuviga yordam berishi mumkin. Bunga, iqtisodiyotni monetizatsiya qilinishining ortishi hisobiga moliyaviy sektorning modernizatsiya qilinishi ham, shuningdek, mamlakatda mulkchilik huquqlari himoyasining kuchayishi ham ko'maklashishi mumkin.

BSTga o'n sakkiz yillik a'zo bo'lib kirish jarayoni davomida Rossiya asta-sekin o'z raqobatbardoshligini oshirib, bir vaqtning o'zida import bojlari darajasini pasaytirib bordi. Shuning uchun, uning 2012- yilda BSTga a'zo bo'lib kirishi, yaqin yillarda o'rtacha torttirma import bojlarining ancha kam va asta-sekin kamaytirilishiga olib keldi (sakkiz yillik o'tish davrining yakunida, ya'ni 2020- yilga kelib taxminan 1,5 marta). Biroq, ayrim tovarlar uchun (masalan, samolyotlar, yuk mashinalari, go'sht, sut mahsulotlari uchun) bojlar jiddiy kamaytiriladi, xolbuki Rossiyada bojxona tarifi stavkasining 20 % bo'yicha harakat erkinligi mavjud (ushbu tovarlar bo'yicha stavkalar BST oldidagi majburiyatlar bilan bog'lanmagan). Rossiya Fanlar Akademiyasi ekspertlarining fikricha, BSTda ishtirok etish, Rossiya uchun

yuksalish yillarida YaIM qo‘shimcha o‘shishini 1 foizli punktga va inqiroz davridagi pasayishini 1 foizli punktga oshiradi.

#### **4.6. Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash**

Iqtisodiy va siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining mavqeini yaxshilash, bu borada mutasaddi vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeini yanada yuksaltirish, xorijiy reyting agentliklari bilan hamkorlikni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- martdagi PF-8756-sonli Farmoni “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida” qabul qilindi.

Farmonda:

- xalqaro reyting va indekslarning ma’lumot bazalaridan foydalanish, zarur axborot materiallarini olish, ushbu reyting va indekslardagi O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha xalqaro reyting agentliklari hamda xalqaro ekspert, maslahatchi va mutaxassislarni jalb qilish;

- xalqaro ekspert, maslahatchi va mutaxassislar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash, ularni respublikaga taklif qilish va olib borilayotgan islohotlar ko‘lami bilan yaqindan tanishtirish, chet elda sohaga oid tadbirlarda mutaxassislar ishtirok etishi, davra suhbatlari, xalqaro forum va konferensiyalarni tashkillashtirish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tuzilmasida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi vazirlik va idoralar tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish yuklatilgan.

Jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini izchil ta’minlash

maqsadida 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2018- yil 21- sentyabrda, PF-5544-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifasi sifatida mamlakatimizning 2030- yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan.

Ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va resurs tejamkorligining yuqori darajasi tegishli innovatsion talabni shakllantirishni taqozo etmoqda. Muammoning ushbu jihati qator xalqaro reytinglar ham tasdiqlaydi, jumladan ulardan eng nufuzlilaridan biri – Sof texnologiyalar global indeksi (The Global Cleantech Innovation Index). Mazkur indeksni shakllantirishda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar qaysi mamlakatlarda eng faol harakat qilishi va ularning mahsuloti qanday qilib bozorda o‘z o‘rnini topishi masalasini tadqiq qiladi.

*Tayanch so‘zlar:* Indikator, barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy indikator, ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish, iste‘mol xarakterini o‘zgarish, moliyaviy resurs va mexanizmlar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tashqi savdo, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, transmilliylashuv, indeks, taraqqiyot, inson omili, tahdid.

#### **Nazorat savollari:**

1. Indikatorlar tushunchasi va uning asosiy turlarini yoritib bering.
2. Global barqaror rivojlanish indikatorlari nimalardan iborat?
3. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorini yoritib bering.
4. The Global Cleantech Innovation Index ko‘rsatkichlari qaysi sohaga tegishli?
5. Ekologik xavfsizlik o‘lchovlari qaysi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi?
6. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri qanday aniqlanadi?
7. Moliyaviy globallashuv indekslarini izohlab bering.
8. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri va ularning mohiyati.

9. Tashqi savdo, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining indekslariga izoh bering.

10. Milliy iqtisodiyot globallashuvining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?

11. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga baho berish uslub

## **5-bob. GLOBAL IQTISODIYOTNING INSTITUTSIONAL JIHATLARI**

Reja:

5.1. “Institut” tushunchasi va global iqtisodiyotning institutsional jihatlari.

5.2. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari.

5.3. Mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar.

5.4. Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar (G7, G20 va boshqalar).

### **5.1. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari**

*Institutsional jihatlar.* Keng ma’noda, "institutlar" – bu ijtimoiy makonga taalluqli tuzilmalarning bir ko‘rinishi bo‘lib, jamiyat hayotining mazmunini aks ettiradi. Institutlarning muhim xususiyatlari quydagilardan iborat:

jamiyatdagi asosiy iqtisodiy sub’ektlarning rag‘batlantiruvchi omillarini belgilab beradi;

jismoniy va inson kapitalini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishni tashkil etishga ko‘mak beradi;

samarali makroiqtisodiy, tashqi iqtisodiy, investitsion va sanoat siyosatini shakllantirishiga ta’sir ko‘rsatadi;

mamlakatning barqaror rivojlanishida va raqobatdoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda. Ularning xalqaro munosabatlarda va jahon siyosatida tutgan o‘rniga, maqsad va vazifalariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin<sup>27</sup>:

---

<sup>27</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримовнинг БМТ Саммитининг Минг йиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент. 2010. (Электрон ресурс).

1. *Ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar*: BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari, jumladan, YUNESKO (ta'lim, fan va madaniyat), FAO (oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi), YUNIDO (sanoat taraqqiyoti), YUNKTAD (savdo va rivojlanish), JSST (sog'liqni saqlash), YUNEP (atrof muhit bo'yicha), YUNISEF (bolalar masalasi), Islom xamkorlik tashkiloti va boshqalar.

2. *Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar*: Evropa Ittifoqi, MDH, SHHT (SHanxay hamkorlik tashkiloti), ASEAN va boshqalar.

3. *Iqtisodiy xalqaro tashkilotlar*: Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, JST (Jahon savdo tashkiloti), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, YTTB (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki), OTB (Osiyo taraqqiyot banki), ITB (Islom taraqqiyot banki) va boshqalar.

Globalashuv davrining yana bir o'ziga xos xususiyati, XX asrda global iqtisodiyotning yangi mexanizmlari va institutlari paydo bo'ldi, ularsiz bugun global iqtisodiyotning faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon Banki, Jahon savdo tashkiloti, Bazeldagi Xalqaro hisob-kitoblar banki, BMTning mintaqaviy iqtisodiy komissiyalari, "Katta yettilik – G7" va "Katta yigirmatalik – G20"larning muntazam uchrashuvlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda bir qator boshqa institutlar shular jumlasidandir<sup>28</sup>.

Globalashuv milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiyoti bilan birlashishi orqali texnologiya, ishlab chiqarish, moliya va iste'mol bozorlarini qamrab oladi. Ikkinchi jahon urushi 1945- yil nihoyasiga etganda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tomondan xalqaro birlashuv tarafdorlari ko'paydi.

Shu sababli? Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilib, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVM-IMF), Jahon Banki va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) jahon iqtisodiyotida bozor asoslarini ishlashini ta'minlash maqsadida shakllantirildi.

BMTning 1944- yil AQSHning Bretton-Vuds shahrida o'tkazilgan xalqaro valyuta-kredit masalalari bo'yicha konferensiyasida BMTning ixtisoslashgan organi

---

<sup>28</sup> Мировая экономика в век глобализации: Учебник / О.Т. Богомолов – М.: ЗАО "Издательство "Экономика", 2007. – С. 27/



sifatida Xalqaro valyuta jamg'armasini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Uning vazifasi xalqaro va milliy valyuta-moliya tizimini qayta tiklash va barqarorlashtirish edi. Shuningdek, bu konferensiyada investitsiyalash va kreditlash faoliyatini kengaytirishda xususiy kapitalning ham ishtirok etishi uchun Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ham ta'sis etildi. Mana shu voqea xalqaro moliya muassasalarining vujudga kelishining debochasi bo'ldi.

Global iqtisodiyotda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni qamrovi jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh BMT doirasida faoliyat olib boradigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bo'lib, ularga BMTga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar a'zo bo'lishi mumkin va biror-bir geografik chegaralashga tobe emas. Jahon Banki, XVJ, WTO, UNCTAD, UNDP (BMTnin Taraqqiyot dasturi), FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) kabi tashkilotlar bunga misol bo'ladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma'lum bir guruh mamlakatlarningina a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlardir. Chunki bular mintaqa bazasida iqtisodiy birlashma yoki hamkorlik xususiyatiga ega tashkilotlardir.

Ushbu tashkilotlar doirasiga Yevropa Ittifoqi, NAFTA va bir qator boshqa mintaqaviy integratsion tashkilotlar kiradi. Ular qatoriga Islom hamkorlik tashkiloti (IHT), ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarib eksport qiluvchi (masalan, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEC), Arab valyuta jamg'armasi yoki ma'lum bir geografik mintaqada joylashishi (Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti) kabi ba'zi tashkilotlar kiradi.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda xalqaro maqomga ega bo'lgan bir nechta mintaqaviy kredit tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tashkilotlar, asosan, hududlar miqyosida faoliyat ko'rsatsa-da, keyingi yillarda ularning hudud doirasidan tashqarida ham faolligi ortib bormoqda. Ushbu tashkilotlar qatoriga quyidagilar kiradi: Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki (ITB), Amerikalarda taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.

O'tgan asrning 60-yillariga kelib yirik mintaqaviy banklarning paydo bo'lishiga bir qancha sabablar ta'sir ko'rsatdi. Ushbu sabablar ichki va tashqi omillar ta'sirida vujudga kelgan. Ichki sabablarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mustamlakalar tizimining parchalanishi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon rivojlanishidagi oʻrning ortishi va ularning yangi iqtisodiy tartib uchun kurashining kuchayishi;
- mintaqaga xos boʻlgan maxsus vazifalarini yechishga boʻlgan ehtiyoji;
- xorijiy raqobatga qarama-qarshi turish va milliy iqtisodiyot muammolarini birgalashib, kelishilgan holda yechish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarning hududiy hamkorligi va iqtisodiy integratsiyalashuvini rivojlantirish va boshqalar.

Tashqi sabablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- globallashuv jarayonlar bilan birgalikda mintaqaviylashuv jarayonlarning kuchayishi;
- global iqtisodiyotda mavjud boʻlgan murakkab qaltisliklar va tahdidlarga birgalikda qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish va keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish.

Jahondagi xalqaro moliya tashkilotlarini qamrov nuqtai nazaridan uch turga boʻlish mumkin boʻlib, ular:

- global (jahon miqyosidagi) tashkilotlar, bularga Xalqaro Valyuta Jamgʻarmasi, Jahon Banki guruhi va boshqalar kiradi;
- mintaqaviy tashkilotlar, misol uchun, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va hokazo;
- ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, masalan, Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqalar.

### **5.3. Mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar**

Maʼlumki, globallashuv – yaxlit jahon xoʻjaligining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining jadallashishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga chuqur bogʻliqligi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, uning keng transmilliylashishi jarayonini anglatadi. Mintaqaviy integratsiyalashuv esa uning muhim bosqichlaridan biridir.

SHu jihatdan, *globallashuv va mintaqalashuv oʻzaro bogʻliq jarayonlardir.* Global darajada tartibga solib boʻlmaydigan iqtisodiy hamkorlik muammolari mintaqaviy integratsiya doirasida tobora koʻproq hal etilmoqda. Jahonning u yoki bu

qismiga taalluqli bo'lgan va muayyan umumiylikka ega bo'lgan bir guruh mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va almashinuvning preferensial shart-sharoitlari o'rnatilishi, boshqacha aytganda, xo'jalik hayotining mintaqalashuv jarayoni zamonaviy global iqtisodiyotiga xos xususiyatdir. Mintaqaviy asosda tobora ko'proq xalqaro iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar paydo bo'lmoqda, ular doirasida milliy xo'jaliklar hamkorligi jadal rivojlanmoqda<sup>29</sup>.

“Iqtisodiy integratsiya” atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shvetsiyalik iqtisodchilarning asarlarida paydo bo'ldi, biroq bugungi kunda uning bir nechta o'nlab ta'riflari mavjud.

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya” deganda bir qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichma-bosqich birlashishiga olib boradigan, milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur barqaror o'zaro munosabatlar va mehnat taqsimotining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish baynalminallashuvining yuqori darajasi tushuniladi<sup>30</sup>.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya – bir nechta mamlakatlarning mintaqaviy darajadagi qo'shma faoliyatini ko'zda tutadi, ular iqtisodiyotini u yoki bu turdagi yagona mintaqaviy xo'jalik majmuasiga birlashtirishga olib boradi.

Biroq, muammo “birlashtirish”, “umumlashtirish”, “yaxlitlik” tushunchalariga qanday mazmun kiritilayotganidan iborat.

R. Aron ta'kidlaganidek: “Agar tovarlar, kapital va insonlarning muayyan miqdordagi iqtisodiy birliklar o'rtasidagi harakati mazkur birliklardan har birining ichidagi kabi erkin amalga oshirilsa, u holda ushbu birliklar umumlashtirilgan”.

Integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rtasida tovarlar va ishlab chiqarish omillari harakatining to'liq erkinlashtirilishi natijasida tashkil topadigan yagona iqtisodiy makon raqobatdosh firmalar sonini oshirish va “miqyos iqtisodiyoti”ning ko'p sonli samaralaridan foydalanishga imkon beradi.

---

<sup>29</sup> Мировая экономика в век глобализации: Учебник/О.Т. Богомолов – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. – С. 26.

<sup>30</sup> Alimov A.M. Globalashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. O'quv qo'llanma. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016. – 96 b.

Integratsiyaga oddiydan murakkabga qarab rivojlanayotgan jarayon sifatida qarash uning shakl va bosqichlarining tasniflanishini amalga oshirishga imkonini beradi.

Turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar asos sifatida qabul qilgan B. Balassa nazariy yondashuvi klassik tasnifga aylandi. B. Balassa, eng avvalo, hamkorlik va integratsiyani farq qilishni taklif etdi. Agar hamkorlik jarayoni turli xildagi kamsitishlarni kamaytirishga yo'naltirilgan hatti-harakatlarning amalga oshirilishini bildirsa, u holda integratsiya jarayoni kamsitishlarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. B. Balassa *integratsiyaning beshta asosiy shakllarini* (integratsion kelishuv turlarini) farqlaydi. EI va boshqa integratsion guruhlarning muayyan tajribasi orqali kiritilgan mazkur nazariyaning zamonaviy modifikatsiyalarini hisobga olgan holda, ularni ko'rib chiqamiz.

Integratsion kelishuvlarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- erkin savdo zonasi;
- bojxona ittifoqi;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoq (yanada yetuk shaklda iqtisodiy va valyuta ittifoqi);
- to'liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya.

Ajratilgan turlardan har birini batafsil ko'rib chiqamiz.

*Erkin savdo zonasi.* Bu holatda kelishuv ishtirokchilari bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarni bekor qiladilar. Shu bilan birga erkin savdo zonasining har bir ishtirokchisi uchinchi mamlakatlarga nisbatan o'zining xususiy tashqi savdo siyosatini yuritish huquqini saqlab qoladi. NAFTAda shunday turdagi integratsiya shakliga yorqin misol bo'la oladi.

*Bojxona ittifoqi.* Uning erkin savdo zonasidan asosiy farqi shundaki, bojxona ittifoqi ishtirokchilari nafaqat o'zaro savdoda tarif va kvotalarni bekor qilishadi, balki uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini yuritishadi. Bojxona ittifoqi bir nechta bojxona hududlarini bittasi bilan almashtirishni ko'zda tutadi. Bunda ichki chegaralardagi bojxona xizmatlari soddalashtiriladi, ularning

funksiyalari esa yagona bojxona hududining tashqi chegaralaridagi tegishli xizmatlarga o'tkaziladi. 1968- yildan boshlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (keyinchalik Yevropa ittifoqiga aylantirilgan), shuningdek MERKOSUR, Yevroosiyaning besh mamlakatida (Rossiya, Belorussiya, Kozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) shakllanayotgan Bojxona ittifoqi ushbu shaklga misol bo'la oladi. Integratsiyaning bu bosqichida tovar oqimlari sezilarli darajada o'zgaradi, kelishuvning ishtirokchi mamlakatlaridan import qilish o'sadi, mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol tarkibida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bojxona ittifoqi mantiqan yetarli darajada tugallangan shakl hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi savdo bilan cheklangan holda, u rivojlanishi savdo-iqtisodiy uyushmalarning yanada murakkab shakllariga o'tish ehtiyojini tug'diradigan ichki ziddiyatlarni o'z ichiga oladi.

*Umumiy bozor.* Bojxona ittifoqi doiralariga qo'shimcha sifatida, mazkur shakl barcha ishlab chiqarish omillarining ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi erkin ko'chishi yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. Aytilganlarning barchasi milliy qonunchilik, standartlarning yaqinlashishi, integratsiya institutsional asoslarining rivojlanishi, birlashtirish jarayonlarini umumiy boshqarish organlarining shakllanishini anglatadi.

Umuman olganda, mamlakatlarning muayyan guruhi ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati jami resurslardan yanada oqilona foydalanish mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishi, ishlab chiqarish tuzilmalarining maqbullashishi va ishlab chiqarish miqyoslarining ortishidan iqtisod qilish omilidan to'liq foydalanishga yordam berishi lozim. Shu bilan birga umumiy bozor tarkibiga kiradigan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi tafovutlar bunga to'sqinlik qiladi. Bu holat Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda kelib chiqadigan barcha salbiy oqibatlar ziddiyatlarning mavjudligiga yo'l qo'yadi. Natijada savdo-iqtisodiy ittifoqlarning yanada murakkab shakllariga o'tish sharoitidagina hal qilinishi mumkin bo'lgan muammo paydo bo'ladi.

*Iqtisodiy ittifoq.* Mazkur shakl ishtirokchidan yuqorida ta'kidlangan ziddiyatlarning mamlakatlar yuritayotgan iqtisodiy siyosatning turli sohalarida

kelishish yo‘li bilan bartaraf etilishini ko‘zda tutadi. YI doirasida yagona qishloq xo‘jaligi siyosati, kelishilgan sanoat, energetika, transport, mintaqaviy, ijtimoiy, ilmiy-texnik siyosat yuritilishi, bunga yorqin misoldir.

Shunga e‘tibor qaratishimiz kerakki, iqtisodiy siyosat borasida kelishuv jarayoni muayyan darajaga etgach, u o‘z mantig‘iga bo‘ysuna boshlaydi va agar mamlakat o‘z iqtisodiyotining yuqori darajadagi ochiqligi bilan tavsiflansa, yanada keng doiradagi masalalarni qamrab olgan yaqin bog‘liqlikni talab etadi. Mazkur jarayon majmuaviy va yanada murakkab shakl – iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida o‘zining muayyan mantiqiy yakuniga etishi mumkin.

Valyuta ittifoqi — yagona markaziy bankning tashkil etilishi, yagona valyutaning joriy etilishini o‘z ichiga olgan yagona mintaqaviy valyuta tizimini yaratishdir. Bunda yagona valyuta-kredit va muvofiqlashtirilgan mikroiqtisodiy siyosat borasida kelishuvlar qaror topishi ta‘minlanadi.

*To‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya.* Mazkur holatda yagona bozor makonini yaxlit iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga aylantirish haqida so‘z boradi. Bu nafaqat kelishuv, balki bitta shaklga keltirilgan, deyarli yagona iqtisodiy siyosat, qonunchilik bazasini to‘liq bir asosga keltirishni ko‘zda tutadi.

Bu bosqichda xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi ko‘p millatli sub’ekti paydo bo‘ladi yoki asta-sekin shakllanadi, yagona federativ yoki konfederativ davlatni qaror toptirishga bo‘lgan hatti-harakatlar sodir bo‘ladi.

#### **5.4. Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar**

Global iqtisodiyotda muhim institutsional tuzulmalar sifatida “Katta yettilik” guruhi (G-7), “Katta yigirmalik” guruhi (G-20) keltirish mumkin.

G-7 (Great 7 – Katta yettilik) Yaponiya, Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlardan tashkil topgan. Aslida “Katta yettilik” rasmiy maqoga ega emas: uning kotibiyati ham, boshqaruv idoralari ham yo‘q. G-7 tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ham majburiy kuchga emas. Biroq, yettita ittifoqdosh mamlakatlar ularning mushtarak manfaatlariga xizmat qiluvchi qat’iy va buzilmas yozilmagan tartib-qoidalarga bo‘ysunadi.

“Katta yigirmalik” guruhi (G-20) 1999- yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan iborat: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

“Katta yigirmalik” guruhi faoliyati global moliyaviy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, shu jumladan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida bir necha sammitlar o‘tkazdi:

AQSH (Vashington, 2008- yil noyabr; Pittsburg, 2009- yil sentyabr);

Buyuk Britaniya (London, 2009- yil aprel);

Kanada (Toronto, 2010- yil iyun);

Janubiy Koreya (Seul, 2010- yil noyabr) va boshqa davlatlarda bo‘lib o‘tgan.

*Tayanch so‘zlar:* Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, Mintaqaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, nohukumat nodavlat tashkilotlari, institutsional omillar, iqtisodiy siyosat, barqaror rivojlanish.

### **Nazorat savollari:**

1. Jahon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlariga tavsif bering, ularning farqlanuvchi va o‘xshash tomonlari nimada?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya atamasini ta’riflab bering va uning mohiyatini ochib bering.
3. Iqtisodiy integratsiya shart-sharoitlari va maqsadlari qanday?
4. Global va mintaqaviy ingratsiyalashuv nima? Milliy firma va kompaniyalar mamlakat integratsiyalashuv jarayonlariga qatnashuvidan qanday zarar yoki foyda ko‘rishlari mumkin?

5. “Yangi mintaqalashuv” nimani anglatadi? Nega u ko‘pgina hollarda “strategik mintaqalashuv” deb ataladi?

6. Megamintaqaviy integratsiyaning namoyon bo‘lish shakllarini aytib bering. Jahonning yetakchi makromintaqalarini sanab bering. Ular AQSH va global raqobatning boshqa markazlarining geoiqtisodiy manfaatlari bilan qanday bog‘liq?



## **6-bob. GLOBAL MOLIYA VA VALYUTA TIZIMINING SHAKLLANISHI**

### Reja

- 6.1. Jahon moliyaviy bozorlarning maqsadi va asosiy vazifalari
- 6.2. Moliyaviy bozorning asosiy ishtirokchilari
- 6.3. Xalqaro moliyaviy bozor va globallashuv jarayonlari
- 6.4. Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida
- 6.5. Jahon valyuta tizimini shakllanishi

### **6.1. Jahon moliyaviy bozorlarning maqsadi va asosiy vazifalari**

Moliyaviy bozorlarning tahlili yoki moliyaviy prognozlash mazkur bozorlar kon'yunkturasini baholash va ulardagi baholar o'zgarishini prognozlashdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, agarda moliyaviy tahlil pul (mablag') qo'yilmalari yoki qandaydir moliyaviy operatsiya yohud tijorat bitimi amalga oshirilishidan qanday samara (daromad) olinishini aniqlash imkonini bersa, moliyaviy bozorlarning tahlili vaqtning muayyan bir oralig'ida mablag'larni qayerga investitsiya qilish samaraliroq ekanligini bilish imkonini beradi.

Moliyaviy bozor:

- xalqaro kreditlar bozori;
- valyuta bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori;
- hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valyutalar (qimmatli qog'ozlar) kurslarining farqi, tovar-xom ashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmatli qog'ozlar kotirovkalari indekslarining o'zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir. Moliyaviy bozorni tahlil qilishning maqsadi – minimal xavf-xatar sharoitida maksimal daromad olinishini ta'minlashdir. Moliyaviy bozorlarning tahlili maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-tovarlarga bo'lgan baholar, valyuta kurslari, qimmatli qog'ozlar kotirovkalari va ishbilarmonlik faolligi indekslarini prognozlash uchun bozorlar kon'yunkturasini baholash;

-baholar (kurslar, kotirovkalar) o'zgarishiga ta'sir etgan omillarning tahlili va ularning bozorga ta'sir muddatlari bo'yicha tasnifi, ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ajratib ko'rsatilishi. Ya'ni, baholar o'zgarishiga bo'lgan qandaydir omillarning ta'siri tugaganligini, agarda tugamagan bo'lsa unda ushbu holat qachon yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash zarur (masalan, u yoki bu mamlakat qishloq xo'jaligidagi xosilsizlik, hokimiyatning o'zgarishi, kursning o'zgarishi, harbiy harakatlar va boshqa shu kabilar);

-kelgusida baholar o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab topish va bunday o'zgarishlarni baholarga bo'lgan ta'sir darajasini prognozlash;

-sub'ekt o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan bozorning chuqur tahlili va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

-o'xshash bozorlarning taqqoslama tahlili;

-moliya bozoridagi o'yinning aniq belgilangan strategiya va taktikasi hisobiga tavakkalchiliklarni pasaytirish yo'llarini qidirish.

## **6.2. Moliyaviy bozorning asosiy ishtirokchilari**

Valyuta bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-markaziy banklar;

-tijorat banklari;

-investitsiya va pensiya fondlari;

-eksport-import operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar;

-valyuta birjalari;

-valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi broker firmalari;

-xususiy shaxslar.

Fond bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-emitentlar, ya'ni qimmatli qog'ozlarni joylashtirilishi ustidan pul mablag'larini jalb etuvchi korxonalar va tashkilotlar;

-moliyaviy vositachilar (brokerlar va dilerlar). Ular emitentlar va investorlar o'rtasida vositachilik funksiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyalarga ega;

-qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozori hamda fond birjalari va birjadan tashqari savdo tizimlari tegishli ravishda;

-investorlar, ya'ni vaqtincha bo'sh pul sarmoyalariga ega hamda ularni qimmatli qog'ozlarga joylashtirishdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardir;

-davlatning muvofiqlashtirish va nazorat organlari, ya'ni Moliya Vazirligi, Markaziy bank, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya va boshqalar;

- o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, ya'ni moliyaviy vositachilarning professional birlashmalari;

-qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasi, ya'ni maslaxat va axborot firmalari, ro'yxatga oluvchilar, depozitar va hisob-kitob kliring tizimlari.

### **6.3. Xalqaro moliyaviy bozor va globallashuv jarayonlari**

Zamonaviy moliyaviy tizim global xarakterga ega. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining so'nggi o'n yilligi uning globallashuvining yuqori sur'atlari bilan tavsiflanadi va ushbu jarayon iqtisodiyotning transmilliylashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va boshqa geosiyosat omillari bilan bog'langandir. Barcha ishtirokchilar (korxonalar va korporatsiyalardan tortib to davlatgacha)ning har qanday bozordagi faoliyati iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni qondirishga qaratilganligini aytib o'tish zarur. Iqtisodiy manfaatning moddiy ifodasi bo'lib oxir oqibatda iqtisodiy daromad (foyda) yoki moliyaviy natija hisoblanadi. Bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga kapital oqib o'tishining ko'lami qanchalik katta va uning chegaralari qanchalik keng bo'lsa, xalqaro moliya bozorlariga shunchalik ko'p operatsiyalar to'g'ri keladi.

#### **Xalqaro moliyaviy bozor tarkibiy tuzilishi**

Xalqaro moliyaviy markazlar- xalqaro valyuta, kredit, moliyaviy operatsiyalar hamda qimmatli qog'ozlar va oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlarining to'plangan joyi tushuniladi. Dastlab

ular sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar (AQSH, G'arbiy Yevropa)da barpo etilgan. Keyinchalik esa ma'lum omillarning ta'siri ostida ularning joylashishi kengayib bormoqda. Agarda Tokio Yaponiyaning jahon bozoridagi raqobat kurashi borasidagi kuchayishi munosabati bilan moliyaviy markazga aylangan bo'lsa, Singapur, Bagam orollari, Panama, Baxreyn kabi moliyaviy markazlar ushbuga past soliqlar, davlat aralashuvining deyarli yo'qligi, liberal qonunchilik va operatsion xarajatlarning nisbatan pastligi tufayli aylangan. Moliyaviy markazlarning asl mohiyati turli mamlakatlar o'rtasidagi kapital harakatining uzluksizligini ta'minlashdan iboratdir. Biroq, moliyaviy markazlarni talabni qondirish mexanizmi sifatida ko'rishning o'zi maqsadga to'liq javob bermaydi deb hisoblaymiz. **Valyuta bozorlari** - xorijiy valyutaning milliy valyutaga talab va taklif asosida xosil bo'luvchi kurs bo'yicha oldi-sotdisi amalga oshiriladigan markazlardir. Milliy valyuta bozorlari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan barcha davlatlarda mavjud. **Jahon fond bozorlari**- aksiyalar, obligatsiyalar, opsionlar, fyucherslar kabi qimmatli qog'ozlar bilan o'zaro oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalar va ishtirokchilarning jamlanmasidir. **Jahon ssuda kapitallari bozori**-xalqaro kredit operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor yoki xalqaro ssuda kapitallari bozori.

#### **6.4. Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida**

Kapital olib chiqish jahon xo'jaligining chuqur rivojlanishi davrida tovar olib chiqish monopoliyasini sindirdi. Tovarlarni olib chiqishni to'ldiruvchisi va uning vositachisi bo'lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. Kapital olib chiqish ma'lum bir milliy davlat o'z aylanmasidan bir qism kapitalni olib, uni boshqa bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va aylanmasiga tovar yoki pul formasida joylashtirishida namoyon bo'ladi. Kapital olib chiqishning asosiy sababi uning ma'lum bir davlatlarda "nisbatan" ortiqcha bo'lib qolishligidir. Ishbilarmonlik foydasi yoki foiz olish maqsadida kapital chet elga chiqariladi. **Xalqaro kapital migratsiyasi**- kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat

bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Amaliy hayotda investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsion muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi.

Jahon ho'jaligida kapital olib chiqish asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- sanoat, savdo va boshqa korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar;
- portfel investitsiyalar (xorijiy obligatsiyalar, aksiya, qimmatbaho qog'ozlar);
- ssuda kapitalining sanoat va savdo korporatsiyalari, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlariga o'rta va uzoq muddatli kreditlari yoki zayomlari;
- iqtisodiy yordam- tekinga va imtiyozli kreditlar shaklida (foizsiz, kam foizli).

**Xorijiy investitsiyalar** bu kapital qabul qiluvchi davlatda kompaniya ustidan nazorat o'rnatish va uni boshqarishda ishtirok etish maqsadida kapital ko'chirishdir. **To'g'ridan-to'g'ri** yo'naltirilgan investitsiyalar shaklida kapital olib chiqish bu kapital qabul qiluvchi davlat hududida kapital eksportyori tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishini bildiradi. **Portfel investitsiyalar** yirik korporatsiyalar, markaziy va xususiy banklar tomonidan chiqariladigan obligatsiya zayomlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qiluvchi muhim manbadir. Xorijiy portfel investitsiyalarini jalb qilishda odatda yirik investitsion banklar vositachilik qiladi. Portfel investitsiyalarning harakatiga ko'p jihatdan alohida davlatlarda obligatsiyalar uchun to'lanadigan foiz stavkalaridagi farq ta'sir qiladi.

### **6.5. Jahon valyuta tizimini shakllanishi**

Jahon, mintaqaviy va milliy valyuta tizimlari farqlanadi. Jahon valyuta tizimi dunyoda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi bilan birga jahon xo'jaligining tuzilmasiga hamda yetakchi mamlakatlarning kuchi va manfaatlarining o'zaro nisbatiga bog'liq ravishda shakllandi. Jahon valyuta tizimi - bu davlatlar o'rtasidagi xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakli bo'lib, davlatlararo kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Jahon valyuta tizimining

evolyusiyasi jarayonida uning quyidagi asosiy elementlarining ko‘rinishi o‘zgarib va takomillashib bordi:

- jahon pullarining (oltin, zaxira valyutalar);
- valyuta kurslari rejimi;
- valyutani tartibga solish darajasi va valyuta cheklovlari hajmi;
- xalqaro hisob-kitoblar qoidalari va shakllarini unifikatsiya qilish;
- valyutani tartibga solishni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Jahon valyuta tizimi jahon pullariga asoslanadi. Zamonaviy sharoitlarda ularning vazifasini zaxira valyutalar bajaradi. Ular milliy valyutalar kursini aniqlash uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi, xalqaro to‘lov va zaxira vositasi funksiyalarini bajaradi. Jahon valyuta tizimi rivojlanishning 4 bosqichini bosib o‘tdi va ular quyidagidar:

1. Parij valyuta tizimi
2. Genuya valyuta tizimi
3. Bretton-Vuds valyuta tizimi
4. Yamayka valyuta tizimi

Dastlab jahon puli shakli bo‘lib ikkita qimmatbaxo metall – kumush va oltin xizmat qilgan. Lekin XIX asr oxirida katta oltin zaxirasiga ega mamlakatlar, masalan o‘sha vaqtdagi eng yirik iqtisodiyot – Buyuk Britaniya oltin monometallizmiga o‘tdi. 1867- yilda Parijda bo‘lib o‘tgan konferensiyada davlatlararo kelishuv bilan oltin tanga standartiga asoslangan birinchi jahon valyuta tizimi (Parij tizimi) yuridik jihatdan mustahkamlandi. Ushbu valyuta tizimiga mamlakatda qog‘oz pullarning oltin tangalarga erkin almashtirilishi xos bo‘lib, natijada mamlakatda pul massasi uning oltin zaxiralari hajmi bilan aniqlanar edi. Bundan tashqari milliy valyutalarning mazmuni va valyuta kurslari oltinda qayd qilingan edi. Ushbu kurslar faqat oltin nuqtalar atrofida, ya’ni oltinni jahon moliyaviy markazlaridan tashish qiymati miqdorida tebranishi mumkin edi. Valyuta kursi oltin nuqtalar chegarasida talab va taklif asosida aniqlanar edi. Valyutaning qadrsizlanishida uning kursi oltin nuqtalar chegarasidan chiqib ketar edi va bu mamlakatdan oltinning chiqib ketishiga olib kelar edi. Natijada to‘lov balansining salbiy saldosi vujudga kelib, u mamlakatning oltin

zaxiralari hisobiga yoki chet eldan kapitalning oltinga almashtiriladigan xorijiy valyuta shaklida kirib kelishi bilan qoplanar edi. Masalan, XX asrda to'lov balansi kamomadiga duch kelgan Buyuk Britaniyada pul massasining qisqarishi ro'y berdi, lekin natijada mamlakatda foiz stavkalari ko'tarildi, bu esa chet eldan kapital oqimini kuchaytirdi va u to'lov balansi kamomadini moliyalashtirish imkonini berdi.

Birinchi jahon urushigacha oltin tanga standarti tizimining amal qilishi nafaqat valyuta tizimining barqarorligini, balki jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ham ta'minladi. 1897- yilda Rossiyada moliya vaziri Sergey Yulevich Vittingning (1849-1915) tashabbusi bilan oltin tanga standartining joriy etilishi rublni dunyoning eng mustahkam valyutalaridan biriga aylanishiga imkon berdi.

Ana shunday ulkan imkoniyatlarga ega boʻlishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining joʻgʻrofiy jihatdan noqulay shart-sharoiti, aniqrogʻi, energetik zaxiralarning isteʼmol bozoridan uzoqda joylashgani hamda ushbu bozorga chiqish yoʻllarining murakkab geosiyosiy xarakteri tufayli mavjud geostrategik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Markaziy Osiyodagi davlatlarning birortasi ham ochiq dengizga chiqish yoʻllariga ega emas.

Boshqacha aytganda, hozirgacha Markaziy Osiyoga asosan havo yoʻllari orqaligina bimalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiya oʻrtasida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu hudud markaziga yoʻnalish uchun oʻziga xos murakkabliklar tugʻdiradi. Chunki tabiiy zaxiralardan foydalanish, neft va gaz quvurlarini biror bir yoʻnalish orqali ochiq dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat hududidan oʻtish va buning uchun yetakchi transmilliy

<sup>32</sup> [http://www.hydromuseum.ru/ru/encyclopedia/glossary/Zapasi\\_energeticheskikh\\_resursov/](http://www.hydromuseum.ru/ru/encyclopedia/glossary/Zapasi_energeticheskikh_resursov/)

<sup>33</sup> <http://svom.info/entry/586-mir-i-energeticheskie-resursy/>

<sup>34</sup> <https://www.spot.uz/ru/2018/07/11/gold/>

kompaniyalari bilan shartnoma tuzgan holda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Qolaversa, bunday loyihalar yetakchi davlatlar manfaatlarining to‘qnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin.

Ma’lumki, dunyodagi eng yirik neft va gaz zaxiralari Kaspiy dengizi tubi va atrofida, ayniqsa, Tengiz va Qorachig‘anoq konlarida joylashgan. Shu bois dunyodagi yetakchi davlatlar bir necha yillardan buyon Kaspiy dengizi ostidagi neft zaxiralarini o‘zlashtirish uchun keskin kurash olib borayotgani mintaqa atrofida turli “siyosiy o‘yin”lar uyushtirayotgani bu hududdagi vaziyatni izdan chiqarmoqda. Avval boshda Kaspiyning xalqaro mavqei muammosi paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinroq uning “dengiz” yoki “ko‘l” ekanligini qaytadan belgilab olish masalasi ko‘tarildi. Undan keyin Kaspiy neft zaxiralaridan o‘zaro foydalanish bo‘yicha Qozog‘iston, Rossiya, Eron, Ozarbayjon va Turkmaniston o‘rtasida vujudga kelgan keskin vaziyat haligacha o‘z yechimini topgani yo‘q. 2002 yil may oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan va muvaffaqiyatsiz yakun topgan Kaspiy bo‘yidagi to‘rt davlat rahbarlarining uchrashuvini misol tariqasida keltirish mumkin. Ma’lumki, Eron prezidenti tadbirlar tugamasidanoq Ozarbayjonni tark etgan, Rossiya prezidenti esa jurnalistlarga bergan intervyusida boshqa ishtirokchilarni “zaif muzokarachi”lar (“слабые переговорщики”), deya ta’riflagan edi.

8.1-jadval

### **Dunyodagi isbotlangan neft zaxiralari va ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatkichlar**

№	Mamlakat	Zaxiralar (mlrd. tonna)	Ishlab chiqarish (mln tonna)
1.	Saudiya Arabistoni	35,8	428,0
2.	Rossiya	13,9	301,0
3.	Iroq	15,1	28,8
4.	Quvayt	13,3	107,2
5.	BAA	12,6	117,3
6.	Eron	12,7	183,8
7.	Venesuela	9,3	162,4
8.	Meksika	7,3	163,6
9.	XXR	3,3	158,5

10.	AQSH	3,7	382,9
11.	Liviya	3,9	69,1
12.	Nigeriya	2,1	106,0
13.	Qozog'iston	2,2	23,0
14.	Norvegiya	1,5	155,5
15.	Aljir	1,2	60,0
	Dunyo zahiralari	140,9	3361,6

Turkmaniston o'zining betaraf pozitsiyasini ro'kach qilib, mintaqa atrofida kechayotgan asosiy geosiyosiy jarayonlardan chetda turishni afzal ko'rmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston ham bir necha yillardan buyon mintaqa atrofida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar sinovidan o'tib kelmoqda. Tabiiyki, mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va siyosiy rivojlanishi yetakchi davlatlar tomonidan doimiy kuzatuv va diqqat markazida qolib kelmoqda. O'zbekistongina o'z tashqi siyosiy faoliyatni mamlakat milly manfaatlarini inobatga olgan qat'iyat bilan amalga oshirib kelmoqda. Uning ulkan iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarga ega bo'lgan davlat ekanligini anglab etgan yetakchi mamlakatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida yirik kompaniyalarining vakolatxonalarini ochmoqda.

8.2-jadval

### Dunyodagi gaz zahiralari va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

№	Mamlakat	Zahiralari (trln kub. m.)	Ishlab chiqarish (neft ekvivalenti bo'yicha mln tonna)
1.	Rossiya	48,6	505,0
2.	Eron	21,0	34,3
3.	Qatar	7,08	12,2
4.	Saudiya Arabistoni	5,35	27,2
5.	BAA	5,35	14,0
6.	AQSH	4,68	492,2
7.	Venesuela	4,0	28,8
8.	Aljir	3,69	59,3
9.	Nigeriya	3,0	4,2
10.	Iroq	3,34	-
11.	Turkmaniston	2,89	29,6
12.	Qozog'iston	2,5	5,4
13.	Kanada	1,93	137,7
14.	Norvegiya	1,35	36,8



15.	Meksika	1,92	28,1
16.	Gollandiya	1,81	68,2
17.	O‘zbekiston	1,9	41,1
18.	Malayziya	2,27	31,8
19.	Indoneziya	2,05	59,9
20.	XXR	1,17	17,9
21.	Ukraina	1,14	15,4

Shu o‘rinda Markaziy Osiyoda azldan mavjud bo‘lgan va hozirgi davrda qayta tiklanayotgan Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy ahamiyatini ta’kidlab o‘tish zarur. Birgina O‘sh-Andijon-Toshkent-Nukus-Qo‘ng‘irot avtoyo‘lining barpo etilishi Buyuk Ipak yo‘li asosiy bo‘g‘inining ishga tushganini anglatadi va O‘zbekiston iqtisodiy imkoniyatlarining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Geosiyosat nuqtai nazaridan O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik mavqeiga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy salohiyati hamda demografik imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ajralib turadi. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining 40 foizi O‘zbekistonda istiqomat qiladi. Qo‘shni respublikalarning O‘zbekistonga chegaradosh bo‘lgan barcha ma’muriy hududlarida o‘zbeklar mahalliy elatlar bilan birgalikda yashab keladi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, urf-odatlarini e‘zozlash, an‘analarga amal qilish, baqamti yashayotgan elatlar o‘rtasida uning yetakchiligini ta’minlaydi. Bu hol O‘zbekistonning mintaqada nafaqat jo‘g‘rofiy, balki etno-madaniy nuqtai nazaridan ham o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tayotganini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning geosiyosiy mavqei quyidagi omillar bilan belgilanadi: Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqei, avvalo, uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu borada eng manfaatli hamkorlar bilan ish olib borish muhimligini ta’kidlab, mintaqada yetakchi davlatlar manfaatlarining shiddat bilan shakllanib borayotganini inobatga olish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy manfaatlarini amalga oshira olmagan tashqi kuchlar diniy, millatlararo munosabatlar, hududiy muammolar, suv taqsimotiga oid masalalar kabi omillarga tayanib, mintaqadagi barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy xavfsizlikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mintaqada suv taqsimoti masalalarida hukumatlararo komissiya ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, respublikalar o'rtasida chegaralash ishlarini oxiriga yetkazish mintaqadagi kommunikatsion tizimning takomillashtirilishi uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, mintaqada, jumladan O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarning boblariga e'tibor qaratish va ularning mintaqqa ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri to'g'risida amaliy tadqiqotlar olib borish hamda tegishli xulosalar chiqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda manfaatlarning tengligi asosida, barcha, ayniqsa rivojlangan davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish mintaqqa mamlakatlarning dunyo iqtisodiy tizimiga tadrijiy hamda qonuniy tarzda integratsiyalashuvi hamda, Markaziy Osiyo geosiyosiy ahamiyatining yanada kuchayishiga olib kelishi shubhasizdir.

*Tayanch so'zlar:* tashqi savdo siyosati, geosiyosat, Markaziy Osiyo geosiyosati, geoiqtisodiy modellar, global taraqqiyot.

#### **Nazorat savollari:**

1. Geosiyosat fan, funksiyalar, toifalar, asosiy g'oyalari sifatida.
2. Jahon iqtisodiyotining yaxlitligini mustahkamlash: xalqarolashtirish, transmilliylashtirish va globallashtirish.
3. Globallashtirish jarayonlari va jahon iqtisodiyotining yangi holati haqida qanday fikrdasiz va fikrlaringizni asoslab bering.
4. Global iqtisodiy hamkorlik va xalqaro tashkilotlarning roli.
5. Tabiiy resurslar va ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rni qanday?
6. Ko'p asrlik geosiyosatning mohiyati va zamonaviy O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
7. O'zbekiston bilan MDHning geosiyosiy aloqadorligini izohlang.
8. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik mavqei qanday?
9. Markaziy Osiyodagi tabiiy boyliklar va geosiyosiy jarayonlar mutanosibligini izohlang.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Globalization of Business. International Business Press, 2000. - 342 p.
2. Isadjanov A.A. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. JIDU. 2008.
3. The Global Economy and Its Economic Systems (Upper Level Economics Titles) 1st Edition. by Paul R. Gregory (Author), Robert C. Stuart (Author). 2013. - 704 p.
4. Мировая экономика и международные экономические отношения : учебник / под ред. В.К. Поспелова. – М.: ИНФРА-М, 2017. — 370 с.
5. Глобалистика. Международный междисциплинарный энциклопедический словарь. Гл. ред. д.т.н., проф. И.И. Мазур, д.ф.н., проф. А.И. Чумаков. – М.- Спб. – ИЦ - «Елима», ИД «Питер», 2006.
6. Elgar Edward. Handbook on the Globalization of the World Economy. Amnon Levy-Livermore. 1998. – 748 p.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O‘zbekiston, 2014. -46 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017- yil 16- yanvar, №11.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.-56 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali

marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr/Sh.M.Mirziyoev-Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 48 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016- yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M. Mirziyoyev.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 488 b.

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2014. -46 b.

13. Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. Darslik. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. 2011.

14. Isadjanov A.A. «Jahon iqtisodiyotining globallashuvi» fanidan talabalarning mustaqil ishi bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. JIDU. 2013.

15. Уткин А.И. Глобализация: процесс и осмысление. М.: «Логос». 2011.

16. Экономическая и национальная безопасность. Учебник. Под ред. проф. Е.А. Олейникова. изд. М.: «Экзамен». 2005.

### **Internet-saytlar**

17. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

18. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

19. [www.economist.com](http://www.economist.com)

20. [www.worlddeconomics.com](http://www.worlddeconomics.com)

21. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com)

22. <http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com> / [best-graduate-schools / top-humanities-schools/economics-rankings](http://best-graduate-schools/top-humanities-schools/economics-rankings)

23. [www.stplan.ru](http://www.stplan.ru) - Iqtisodiyot va menejment

24. [www.catback.ru](http://www.catback.ru) - Iqtisodiy maqolalar va o'quv materiallari

25. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

26. [www. un.org](http://www.un.org) – BMT sayti

27. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) – Jahon banki sayti
28. [www.unctad.org](http://www.unctad.org) –YUNKTAD sayti
29. [www.wto.org](http://www.wto.org) – JST sayti
30. [www.undp.org](http://www.undp.org). –BMTning Taraqqiyot dasturi

## Izohli lugʻat (Glossariy)

**Aqli kishilarning ketib qolishi** - mamlakatdan "intellektual elita" vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

**Avanslash** - yetkazib beriladigan tovarlar uchun importyor tomonidan oldindan haq toʻlash. Eksportyor uchun foydali oʻzaro hisob-kitob koʻrinishi hisoblanadi.

**Akkreditiv** - mijozning iltimosiga koʻra bank tomonidan hujjatda koʻrsatilgan shartlarda uchinchi shaxs (benefitsiar)ga toʻlovni amalga oshirish yoki benefitsiar tomonidan qoʻyilgan oʻtkazma vekselni (tratta) toʻlashni amalga oshirish (aksept) boʻyicha bank majuriyati boʻyicha bitim.

**Aksept** - bitim amalga oshganligini anglatuvchi ofertani qabul qilishligiga rozilik berish.

**Aksiz** - davlat organlari tomonidan belgilanadigan tovar bojxona qiymatiga narx qoʻshimchasi.

**Anderrayterlar** - moliya bozoridagi muvofiqlashtirilgan kurs boʻyicha zayomni joylashtiruvchi garant kompaniyalar.

**Bank oʻtkazmalari** - oʻtkazuvchi (toʻlovchi) talabiga muvofiq uning hisobidan oluvchi (benefitsiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka toʻlov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob koʻrinishi.

**Barter** - tovarni tovarga toʻgʻridan-toʻgʻri ayirboshlanadigan savdo bitimi.

**Bojxona boji** - tovar davlat chegarasini kesib oʻtganda solinadigan maxsus pul soligʻi.

**Bojxona ittifoqi** - ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini oʻtkazishdir.

**Bojxona tarifi** - tovar oqimlarining chegarani kesib oʻtishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori koʻrsatilgan tartiblangan tovarlar roʻyxati.

**Bufer zahiralari** - salbiy iqtisodiy tamoyillarning milliy iqtisodiyotga taʼsiri va favqulodda vaziyatlar uchun moddiy boyliklarning jami.

**Valyuta** - ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari. Xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birligi.

**Valyuta arbitraji** - svoplar va ssuda kapitali bozorida bitimlar birgalikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi banklararo operatsiyalar.

**Valyuta bozorlari** - milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalarni oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

**Valyuta intervensiyasi** - davlat organlari tomonidan milliy bozorda xorijiy valyutani sotish va sotib olish.

**Valyuta kliringi** - ikki va undan ortiq hukumatlar o'rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o'zaro hisobga olish haqidagi kelishuv.

**Valyuta kotirovkasi** - bir valyuta bahosini boshqa valyutalarda ifodalanishining sonli yozuvi.

**Valyuta kursi** - milliy valyutalar o'rtasidagi nisbat, bir mamlakat valyutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

**Valyuta pozitsiyasi** - bankning xorijiy valyutaga bo'lgan talabi va majburiyatlari nisbati.

**Valyuta rejimi** - valyuta ayirboshlash kursini aniqlash asosidagi mexanizm.

**Valyuta rezervlari** - xorijiy valyuta, oltin, SDR, XVFDagi rezerv pozitsiya ko'rinishidagi valyuta-likvid vositalarning jami.

**Valyuta siyosati** - mamlakatda xorijiy valyutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi.

**Valyuta xatari** - valyuta kursi o'zgarishi oqibatida eksportyor va importyorning zarar ko'rishi lozim bo'lgan holati.

**Valyuta cheklashlari** - xorij valyutasi va boshqa qimmatli narsalar (oltin) bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltirilgan ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan me'yoriy qoidalar tizimi.

**Valyutaning konvertirlanganligi** - milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo'lmaganlar uchun ham to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha almashtirish imkoniyati.

**Veksel** - belgilangan ko'rinishda tuzilgan yozma qarzdorlik majburiyati, veksel egasi ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng belgilangan pul summasini qarzdordan talab qilishga haqlidir.

**GATT** - Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv - tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

**Global muammolar** - olamshumul iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ahamiyatga ega bo'lgan va o'z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

**Davlat buyurtmasi** - davlat tomomnidan muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste'molchiga yetkazib berish, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ma'lum ishni bajarish bo'yicha korxonalar va xo'jaliklarga beriladigan topshiriq. U birinchi navbatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni kafolatlaydi.

**Davlat byudjeti** - davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalanadigan yillik majmui.

**Davlat qarzi** - davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi. O'z manbaiga qarab, davlat qarzlariga, ichki va tashqi davlat qarziga bo'linadi. Davlat o'z harajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o'z byudjetining kamomadini vaqtincha qoplaydi.

**Davlat mulki** - davlat vazifalari bajarishga xizmat qiluvchi davlat korxonalar va muassasalarining mulki.

**“Daues plani”** - 1924 yilda qabul qilingan bo'lib, Chikago banklari direktori Ch.Daues (Morgan banki bilan chambarchas bog'liq) tomonidan ishlab chiqilgan rejadir. Birinchi Jahon urushidan keyingi yillarda Germaniyaga g'olib davlatlar (Angliya, Fransiya va boshqalar) tomonidan yuklangan harbiy tovonni (reparatsion to'lov) yengillashtirish va shu yo'l bilan Germaniya iqtisodiyotini tiklashdir. Rejaga



ko'ra, G'arbiy Yevropaning yetakchi davlatlari 200 mln. Dollarli (uning 110 mln. AQSHniki) xalqaro zayom bergan bo'lib. Bu yordam birinchi galda mamlakatning og'ir sanoatini rivojlantirishga qaratilgan edi.

**"Demografik portlash"** - jahonning kam rivojlangan va kambag'al mamlakatlarida nazorat qilib bo'lmaydigan darajada aholi sonini o'sishi.

**Devalvatsiya** - milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon - revalvatsiya).

**Demping** - tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon bahoda sotish. Tashqi bozorni egallash uchun mamlakatlar o'z tovarini ba'zan ishlab chiqarish harajatlaridan ham past (arzon) baholarda chetga chiqarishi mumkin.

**Dollar** - dollar, birinchidan AQSH pul birligi, 100 sentga teng. 1786 yilda kumush dollar, 1965 yilda esa oltin, kumush, mis-nikelli dollar zarb qilingan. AQSH dollari xalqaro valyuta hisob-kitoblarida keng qo'llanadi. Muomalada 100, 50, 20, 10, 5, 2, 1 dollarli qog'oz pullar; 1 va 0.5 dollarli va 5, 2, 2 sentli mis tangalar ishlatiladi. Dollar, ikkinchidan Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Liberiya, Efiopiya, Malayziya, Singapur, Bermud orollari, Britaniya Gondurasi kabi davlatlarda pul birligi hisoblanadi.

**Yevro** - yevropa mamlakatlari uchun hisob-kitob-to'lov birligi bo'lib, YIga a'zo mamlakatlar hududida EKYU o'rniga joriy etilgan.

**Yevropa valyuta tizimi (YVT)** - YI a'zolarining hududiy valyuta guruhi.

**Yevropa Ittifoqi (YI)** - G'arbiy Yevropaning 25 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

**Yevropa tiklash va taraqqiyot banki (YTTB)** - o'z faoliyatini 1991 yili boshlandi, uning ta'sisчилari 34 mamlakat hisoblanadi. YTTBning asosiy vazifalari loyihalarni moliyalashtirish va kreditlash, xususiy kapital qo'yilmalarga kafolatlar berish, iqtisodiyot tuzilishini qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqarish.

**Yevropa erkin savdo uyushmasi (YESU)** - Yevropadagi qator yetakchi sanoati va savdosi rivojlangan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy tashkiloti bo'lib, 1960 yilda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi tashabbusi bilan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlariga posangi sifatida tashkil topdi.

“Umumiy bozor”ga qo‘shilishi munosabati bilan 1973 yili Buyuk Britaniya va Daniya, 1986 yili Portugaliya YESUdan chiqdi. Bu uyushmaning hozirgi a‘zolari Avstriya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Finlyandiya. Kotibiyatning shtab-kvartirasi Jeneva (Shveysariya) shahridir.

**Jami ijtimoiy mahsulot** - muayyan davr mobaynida jamiyatda hosil qilingan barcha iste‘mol qiymatlari yig‘indisi. Jami ijtimoiy mahsulotni ayrim kishilar, korxonalar, tarmoqlar va hokazolarning 1 yil davomida yaratgan mahsulot majmui sifatida ta‘riflash mumkin.

**Jahon bahosi** - talab va taklif egri chiziqlari ta‘sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta‘sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo‘ladi.

**Jahon bozori** - moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi XIMlarning sub‘ektlarini (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar) o‘zaro iqtisodiy ta‘sirilanishidagi global muhitidir.

**Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT)** - xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyusiya rivojlanish bosqichlar natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etishdagi ko‘rinishdir.

**Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB)** - milliy xo‘jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta‘sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o‘rtasida jami migratsion aylanmasi.

**Jahon puli** - xalqaro miqyosda hamma uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to‘lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynalminal qiymat ifodasi bo‘lgan puldir. Jahon puli vazifasini dastlab ma‘lum vazifadagi oltin yombilari bajargan, so‘ngra xalqaro miqyosda obro-e‘tiborli milliy pul (dollar, funt sterling) jahon pullari deb e‘tirof etilgan.

**Import** - ichki bozorda sotish uchun mamlakatga xorijiy tovarlar kiritish va xizmat keltirish. Import miqdori va takribi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rniga bog'liq.

**Immigrant** - muxojir, boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan kishi.

**Immigratsion kvota** - xorijiy fuqarolarni kirib kelishi davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

**Investor** - o'z nomidan va o'z hisobidan mijozlarning topshirig'iga binoan iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga o'z kapitalini qo'yuvchi yuridik va jismoniy shaxs.

**Investitsion muhit** - mamlakatlar iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi, zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi.

**Injiniring** - ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektini qurib, ishga tushirish bo'yicha xizmatlar sohasi.

**Inkasso** - mijoz (eksportyor) buyrug'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun importyordan to'lovni qabul qilish va bu mablag'larni eksportyor hisobiga o'tkazish operatsiyasi.

**Innovatsion faoliyat** - yangi nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat bo'lgan uzoq jarayondir.

**Integratsiya** - biror-bir elementlarni bir butunga birlashtirish. Iqtisodiyotda xo'jalik hayotni baynalmilallashtirishning oliy shakli bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ob'ektiv ravishda sabab bo'ladi.

**Inflyasiya** - pulning qadrsizlanishi. Muomaladagi pul massasini tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan to'liq ta'minlanmasligidan kelib chiqadi. Inflyasiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

**Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB)** - intellektual faoliyat natijalari bo'yicha ayirboshlashning xalqaro sohasi.

**Islom taraqqiyot banki (ITB)** - o'z faoliyatini 1975 yilda boshladi. Nizom kapitalining miqdori OTBdan 5 marta kam. A'zolari: Islom dini hukmron bo'lgan mamlakatlar, ya'ni Islom anjumanining deyarli barcha a'zolari kiradi. Maqsadi: a'zo

mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo hamda sanoat kompaniyalari kapitallarini sarmoyalashdan iborat.

**Iste'mol savati** - muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ita'minlashga etarli bo'lgan miqdori. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navo ko'tarilib, baholar o'zgaradi. Aholining ko'radigan zararini qoplash uchun hukumat tomonidan mamlakatda "Iste'mol savati"ga kirgan mollar narxining o'zgarishini o'zganish. Ularning indekslarni belgilab borish va shunga mos holda aholi daromadlarini indekslashtirish lozim bo'ladi.

**Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS)** - BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIMlar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

**Iqtisodiy integratsiya** - hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlashtirish va bir-biriga kirib borish jarayonlari.

**Iqtisodiy ittifoq** - iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi bo'lib, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

**Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)** - tashkilotga 10 ta davlat: Turkiya, Eron, Pokiston (1985), Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston. Qirg'iziston, Tojikiston (1992) a'zo bo'lib, maqsad mamlakatlar o'rtasida fan va texnika, qishloq xo'jaligi aloqalarini rivojlantirish.

**Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)** - tashkilot 1961 yilda AQSH tashabbusi bilan mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va nazorat qilish maqsadida tuzilgan. Uning a'zolari AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, YIga kiruvchi 15 mamlakat, shuningdek, Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Turkiya hisoblanadi. Tashkilot quyidagi muammolarni: jahon iqtisodiyotini ahvoli va kelajagi, rivojlanish yo'llari, xalqaro savdoni erkinlashtirish va tartibga solish masalalarini, sanoati rivojlangan mamlakatlar hamdo bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan yangi davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni o'rganadi va hal etadi.

**Kartel** - tashqi savdo assotsiatsiyasi (uning a'zolari alohida tovarlar guruhi bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).

**Kvotalash** - davlat tomonidan eksport va importning qiymat va jismoniy hajmini to'g'ridan-to'g'ri cheklash siyosati .

**Kliring** - qarama-qarshi tovar oqimlarida valyutadan foydalanmasdan (naqdsiz) vositachi orqali o'zaro hisob-kitobni nazarda tutuvchi savdo operatsiyasi.

**KOKOM** - 1950 yilning 1 yanvarida tuzilgan. KOKOM ko'p tomonlama eksport nazoratining muvofiqlashtiruvchi (koordinatsion) komitet hisoblanib, unga jahonning 16 davlati. NATOning 15 a'zosi (Islanidiyadan tashqari) va Yaponiya a'zodir. Vazifasi: sobiq SSSR va sotsialistik davlatlarga strategik tovarlarni sotmaslik ustidan nazoratni olib borishdir. Shtab-kvartirasi Parij shahrida joylashgan.

**Konversiya** - harbiy sanoat kompleksi korxonalarini fuqarolarga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Konvertirlangan (erkin almashtiriladigan) valyuta - har qanday xorijiy mamlakatlarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi mumkin bo'lgan valyutalar (AQSH, Kanada dollari, Angliya funt sterlingi, YEVRO, Yaponiya iyenasi).

**Konsalting** - konsalting firma tomonidan har qanday iste'molchiga keng ko'lamdagi maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

**Konsern** - manfaatlarning mos kelishi asosida korxonalar umumlashuvi, birlashuvining rivojlangan shakli. Konsernga kiruvchi korxonalar mustaqil korxonalar hisoblangani bilan yahaqiqatda yagona xo'jalik rahbarligiga bo'ysunadi. Konsernda konsorsiumdan farqli o'laroq, yagona iqtisodiy siyosat yurgizish, moliyaviy manbalarning bir qismini to'plash va ayrim boshqa vazifalar markazlashtiriladi.

**Kredit kartochkasi** - elektron bank tizimlari orqali tovar va xizmatlarni naqd pulsiz to'lash instrumenti.

**Kross-kurs** - ikki xorijiy valyutani kesishuvchi kotirovkasi, bunda valyutalarning hech biri kursni belgilovchi bitimni imzolagan ishtirokchining milliy valyutasi bo'la olmaydi.

**Ko'ngilli eksport cheklashlari (KECh)** - tashqi savdo hamkori tomonidan ikkinchi biri bilan kelishilgan holda eksport operatsiyalari hajmini chegaralash.

**Lizing** - mashina, qurilmalar, texnologiya va ko'chmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijaraga berish.

**Litsenziyalash** - davlat tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslarga tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga ruxsat berish .

**Marja** - valyuta xaridori va sotuvchisi kurslari o'rtasidagi farq.

**Marjinal (qo'shilgan) foyda** - sotish narxi va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indilari orasidagi farq.

**Maastrixt shartnomasi** - shartnoma 1993 yilning 1 fevralida imzolangan bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat o'rtasidagi kelishuv.

**“Marshall plani”** - AQSHning davlat kotibi J.X.Marshall tomonidan 1947 yilning 5 iyunida ilgari surildi, AQSH tomonidan Ikkinchi jahon urushida vayron bo'lgan evropa mamlakatlari xo'jaligini tiklash va rivojlantirish uchun berilgan iqtisodiy yordamdir. Yevropaning 17 davlati (sobiq SSSR va sotsialistik yo'lni tanlagan Sharqiy Yevropaning barcha davlatlaridan tashqari) a'zo bo'lgan edi. Marshall rejasiga ko'ra 4 yil ichida 14 mlrd. doll. yordam uyushtirildi. Ko'rsatilgan yordamning 60 %dan ko'prog'i Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va G'arbiy Germaniyaga to'g'ri kelgan edi. Bu davlatlar iqtisodiyoti 50-yillardan so'ng tez rivojlanish davriga qadam qo'ydi.

**“Mauntbetta plani”** - ikkinchi jahon urushidan so'ng o'z mustamlakachilik ta'sirini saqlab qolishga intilgan ingliz bosqinchilari Hindistonning ikki dominioniga – Hindiston ittifoqi va Pokistonga bo'lib yuborish to'g'risidagi reja bo'lib, bo'linishda asosan aholining budda va islom (musulmon) diniga mansubligiga ko'proq e'tibor berilgan. Unda hududning milliy va xo'jalik jihatdan butunligi mutlaqo hisobga olinmadi, mavjud bo'lgan sanoat korxonalarining asosiy qismi Hindiston hududida qolgan bo'lsa, ularni xomashyo bilan ta'minlovchi rayonlari esa Pokiston hududida qoldi. Bu esa, albatta ikki mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini nihoyatda murakkablashtirib yuborishga olib kelgan edi. Biroq, Buyuk Britaniya parlamenti ko'pchilik ovoz bilan “Mauntbetta plani”ni

qonun sifatida 1947 yilning 15 avgustida qabul qilib, “Hindiston”ni mustaqil davlat deb e’lon qildi.

**Maxsus qarz olish huquqi** - xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko‘rinishidagi xalqaro aktivlar (ya’ni zahira va to‘lov vositalar) bo‘lib, ularning miqdori XVFGa a’zo-mamlakatlarning kvotalariga mos keladi.

**Mag‘rib davlatlari bo‘yicha iqtisodiy tashkilot** - bu tashkilot 1974 yilda tashkil topgan bo‘lib Mag‘rib mamlakatlari (Jazoir, Liviya, Marokash va Tunis) bo‘yicha umumiy iqtisodiy konsultativ komitet nomi bilan ham mashhurdir.

**Monetarizm** - bu nazariyaga ko‘ra, davlat tomonidan pul massasini o‘shirish sur‘atlari barqaror ushlab turiladi (yiliga 3-5% atrofida) Davlat harajatlarini qisqartirish xususiy kapital uchun bir iqtisodiyotdan boshqasiga erkin oqib o‘tish imkoniyatlarining ochadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda yangi ish joylarini yaratish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatini beradi.

**Monitoring (xo‘jalik)** - jami iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kuzatish va statistika ishlov berish jarayoni.

**Monopoliya** - biror narsaga nisbatan favqulodda huquq. Masalan, tovarlar ishlab chiqarishga, savdo qilishga, tashqi savdoga, xizmatlar ko‘rsatishga va boshqalar.

**Mutlaq ustunlik** - xo‘jalik sub’ektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish xarajatlari miqdorining turlichaligidan (masalan, bir jug‘rofiy sharoitga ega bo‘lmashlik) foydalanishi tufayli ko‘rgan foydasi.

**Narx** - tovarlarning ijtimoiy foydaliligi va qiymatining pul birligida ifodalanishi.

**Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK)** - 1960 yilda tashkil topdi. 1993 yilda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 13 mamlakatini (Jazoir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Eron, Iroq, Katar, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Ekvador) birlashtirdi.

**Nisbiy ustunlik** - xo‘jalik sub’ektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish xarajatlari yig‘indisidagi nisbiy farqdan foydalanishi tufayli ko‘rgan foydasi.

**Nou-xau** - mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalangan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

**Oziq-ovqat xavfsizligi** - milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

**Osiyo** - Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti – tashkilot 1989 yilda tashkil topdi. Yangi Zelandiya, Gonkong, Xitoy, Avstraliya kabi davlatlar tashkiloti bo'lib, shu hududdagi 11 mamlakatni, Yaponiya, ASEANga a'zo 6 mamlakatni (Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin, Tailand, Bruney) birlashtiradi.

**Osiyo rivojlanish banki (ORB)** - 1966 yili BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining (ESKATO) qaroriga ko'ra tashkil topdi (1968 yildan boshlab kredit faoliyatini boshladi). Aksioner jamiyati asosida ish yuritadi. Unga 45 dan ortiq davlat a'zo. Vazifasi Osiyodagi rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy va savdo munosabatlariga homiylik qilish, ularga moliyaviy va texnik, iqtisodiy yordam ko'rsatish, iqtisod sohasida mintaqaviy hamkorlik qilishdir. ORBning shtab-kvartirasi Manila shahrida joylashgan.

**Oferta** - aniq shart-sharoitlar asosida bitim tuzish taklifi.

**Offshor hududlar** - bu jaxon iqtisodiyotida milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu yerda xorijiy mamlakatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

**Ochiq hisob** - hisob-kitob tovar importyor tomonidan olingandan so'ng amalga oshiriladigan forma. Bunda eksportyor importyorga hisob-fakturani hujjatlar bilan birgalikda pochta orqali banklar ishtirokisiz yuboradi.

**Panjaralash (хеджирование)** - valyuta xatarlarini sug'urtalash usullarining majmuasi.

**Paritet** - turli mamlakat valyutalarining oltinga aylangan holdagi nisbati yoki ularning xarid qila olish quvvatiga binoan nisbati.

**Portfel investitsiyalar** - xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo'yimlari.



**Proteksionizm** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga davlatning bevosita va bilvosita usullar orqali faol aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

**Ratifikatsiya** - shartnomalarni tasdiqlash.

**Revalvatsiya** - pul islohotini o'tkazmasdan turib, pul birligini inflyasiyagacha bo'lgan sotib olish qobiliyati va valyuta paritetini asta-sekinlik bilan tiklash. Revalvatsiyani amalga oshirishning muhim sharti - qog'oz pullarni chiqarishni qisqartirish, tovaroborotning o'sishini ta'minlashdir. Revalvatsiyaning boshqacha formasi qonunda ko'rsatilgan tartibda baho masshtabini ko'paytirishdir.

**Rezident** - fuqaroligi va pasport statusidan qat'iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs tushuniladi (bu mamlakatda shtab-kvartiraga ega bo'lgan diplomatik missiya ishchilari, harbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqari).

**Rollover kreditlar** - asosiy miqdor, qo'shimcha (marja) va komission to'lovlardan tarkib topgan foiz stavkasini qayta ko'rish mumkin bo'lgan holda ssuda berish.

**Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD)** - BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

**Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi** - mamlakatlar o'rtasida kelishilgan holda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

**Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Anjumani (YUNIDO)** - BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

**Svop** - forvard bitimi va spot sharti bo'yicha bitim asosida amalga oshadigan turli xildagi valyuta operatsiyalari

**Sindikatsiya** - monoplsitik birlashmaning kartelga nisbatan yuqoriroq shakli, bir hil ommaviy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining birlashmasi. Sindikat Fransiya va Rossiyada keng tarqalgan. Unda ishtirok qiluvchilar mustaqillikka ega bo'lishadi, biroq ishlab chiqarilgan mahsulot birlashmaning mahsuloti sifatida sotiladi.

**Spot** - bitimni imzolash paytida kontragentlar qayd etgan kurs bo'yicha valyutani darhol etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan kassa operatsiyalari.

**Stagnatsiya** - iqtisodiyotdagi turg'unlikni anglatadi.

**Sug'urta kafolati** - ma'lum bonus evaziga sug'urta kompaniyasining eksportyorlarni (kreditorlar)ga zararini qoplash haqida majburiyati.

**Tashqi qarzdorlik inqirozi** - davlat tomonidan tashqi qarzlar va zayomlarni to'lash grafigini buzilishi.

**Tashqi savdo siyosati** - eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

**TIFni tartibga solishning tarifli usullari** - soliq cheklashlari (bojxona yig'implari, bojlar, aksizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalari yig'indisi.

**TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari** - tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik sandartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

**Transmilliy korporatsiyalar (TMK)** - chet el aktivlariga ega bo'lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirishning ko'rinishi.

**Trest** - sanoat monopoliyalarining 20-yillardagi eng yuqori shakli. Unda mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, korxonalarining moliyasi to'la birlashtiriladi. Trest muayyan tarmoqda xukmronlik qiluvchi yagona ulkan shirkatchilik jamiyati bo'lib, AQSHda keng tarqalgan monopolistik birlashma, unga kiruvchilar o'zlarining ishlab chiqarish. Tijorat va yuridik mustaqilligini yo'qotadi. Bu esa, o'z navbatida kapitalni doiraviy oborotini tezlashtirish va foydani ko'paytirish imkoniyatini beradi. Trestlar 19-asrning 90-yillarida AQSHda vujudga keldi.

**To'g'ri investitsiyalar** - foyda olish bilan birgalikda kapital qo'yilayotgan ob'ektga o'zidan nazoratni ta'minlash huquqini beruvchi kapital qo'yilmalartushuniladi.

**To'lov balansi** - mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma'lum vaqt oralig'idagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarini sistemalashtirilgan holda qayd etilishidir.

**To'lov balansining asosiy moddalari** - tovar va xizmatlarda eksport-import, xorijiy investitsiya kapitali harakatini o'z ichiga oladi.

**To'lov balansining balanslovchi moddalari** - valyuta zahiralarning harakati, qisqa muddatli aktivlar hajmining o'zgarishi, davlat qarzlari va kreditlari, ikki tomonlama bitimlar hamda xalqaro tashkilotlar liniyasi bo'yicha moliyaviy yordamlarni aks ettiradi.

**Umumjahon banki** - o'zaro bir-biri bilan bog'liq beshta institutdan tarkib topgan ko'p tomonlama kredit beruvchi tashkilotdir.

**Umumiy bozor** - ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishini ta'minlanlovchi iqtisodiy integratsion ko'rinish.

**UST** - Umumjahon savdo tashkiloti - xalqaro savdoni institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi musaqil davlatlararo tashkilot.

**Faktoring** - bank yoki faktor-kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblar bo'yicha moliyaviy talabini, ya'ni qarzni keyinchalik xaridordan undirib olish yo'li bilan to'lash vositasidagi jami vositachilik operatsiyalar tushuniladi.

**FAO** - BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti, 1945 yilning 16 oktyabrida tashkil topdi. Hozirgi kunda bu tashkilotga rasman 160ga yaqin davlat a'zodir.

**Fiksing** - bu har bir valyutaga talab va taklif hajmini navbatma-navbat solishtirish orqali valyutalarning banklararo kursini aniqlash va qayd etish jarayonidir.

**Forward** - bitim imzolanganidan keyin ikki kun ichida qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug'urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo'yicha olib borilgan banklararo valyuta-moliyaviy operatsiyalar tushuniladi.

**Forfetirlash** - bir kompaniyaning tijoriy huquqlarini boshqa kompaniyaga naqd to'lov bilan ayirboshlashidir.

**Franchayzing** - bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanishidir.

**Fritred (erkin savdo)** - xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga davlatning eng kam darajada aralashuvi natijasida o‘z faoliyatini erkin ravishda tanlashini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosatdir.

**Fyuchers** - qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug‘urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo‘yicha fond birjasida bajariladigan tezkor muddatli valyuta-moliyaviy operatsiyalar tushuniladi.

**Xalqaro valyuta fondi (XVF)** - yirik hukumatlararo valyuta-moliyaviy tashkilot bo‘lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** - mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimidagi munosabatlar tushuniladi.

**Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi** - ishlab chiqarish bosqichlarining o‘zaro bir-birini to‘ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishidir.

**Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi** - mamlakatlar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti ko‘rinishi bo‘lib, unda o‘zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.

**Xalqaro kredit** - valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinch to‘lov shartlarida berishlikdir.

**Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)** - XTTBning shohobchasi sifatida 1956 yilda tashkil topdi, unga 165 mamlakat a‘zo (1995 y.). Maqsadi: rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash, korxonalarni kapital qo‘yilmalar yordamida moliyalashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish, iqtisodiyotni boshqarishga yordam berish.

**Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (XTTB)** - o‘z faoliyatini 1946 yilda boshladi. Bu tashkilotga faqat XVFga a‘zo mamlakatlar kirishi mumkin. XTTBning maqsadi: a‘zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo‘yilmalar berish hamda xususiy chet el investitsiyalarini rag‘batlantirish orqali

ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berish (25 yilgacha). XTTBning boshqaruv kengashida hal qiluvchi ovozga jahonning yetakchi mamlakatlari (yettilik davlatlari) ega hisoblanadi.

**Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU)** - XTTB ning shoxobchasi sifatida 1960 yildan beri faoliyat ko'rsatmoqda. Uyushmaning asosiy maqsadi kam rivojlangan mamlakatlarga yordam berishdir.

**Xalqaro savdo** - milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o'ziga xos shaklidir.

**Xalqaro tovar nomenklaturasi** - mamlakatlar o'rtasida kelishilgan, tasniflangan tovar pozitsiyalari ro'yxati bo'lib, har bir tovar pozitsiyasi kodlashtirilgan raqamlarga ega bo'ladi.

**Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR)** - eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

**Xalqaro hisob-kitoblar** - turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chiquvchi pul talablari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

**Xalqaro hisob-kitoblar banki** - davlatlararo bank. Markaziy banklar bilan tijorat muomalasini olib boradi, xalqaro valyuta hamkorligini tashkil qilishda qatnashadi. 1930 yilgi Gaaga konferensiyasiga muvofiq Angliya, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Italiya davlatlarining boshchiligida ta'sis qilingan. Hozirgi a'zolari: Yevropadagi 30 mamlakatning Markaziy banklari, shuningdek AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va Janubiy Afrika Respublikasi hisoblanadi.

**Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi** - valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy qiymati bilan aniqlanadi, u muomaladagi pul miqdoriga bog'liq. Jumladan, Dj. M. Keynsa tamoyiliga ko'ra, davlat tomonidan foiz stavkasini manipulyasiya qilib, mamlakatga xorijdan investitsiya oqimlarini quyidagicha o'zgartiradi: foiz stavkasi kamaytirilsa, tashqi qarzlar hajmi ortadi, foiz stavkasi oshirilsa, aksincha, kamayadi.

**Xeksher-Olin-Samuelson tamoyili** - mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagi ortiqcha ishlab chiqarish omillarining mavjudligiga asoslangan tamoyildir.

**Chek** - chek imzolaganning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida bankka bergan yozma farmoyishidir.

**Sharqiy Afrika bo'yicha iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKEA)** - tashkilotga Zambiya, Keniya, Mavritaniya, Molgash Respublikasi, Somali kabi davlatlar a'zo. 1966 yili BMTning iqtisodiy komissiyalaridan biri sifatida rasman tashkil topdi.

**Sharqiy Yevropa uchun rekonstruksiya va taraqqiyot Yevropa banki** - Sharqiy Yevropa mamlakatlariga, jumladan Rossiya Federatsiyasiga kredit berish orqali ularning taraqqiyotiga ko'maklashuvini ko'zda tutgan Yevropa banki. 1990 yilning yanvarida tashkil topgan. Mazkur bank 12 davlat ishtirokida tuzilgan.

**Shimoliy Amerika mamlakatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA)** - tashkilot 1989 yilda tashkil topdi. Shimoliy Amerikaning 3 yirik davlatini (AQSH, Kanada, Meksika) birlashtirgan.

**EKOVAS** - BMTning iqtisodiy komissiyalaridan biri bo'lib, rasman 1973 yilda tashkil topdi. G'arbiy Afrikaning 16 davlatini birlashtirgan.

**Eksport kvotasi** - mamlakat eksporti qiymatining yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

**Embargo** - alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlayin ta'qiqlash siyosati.

**Erkin iqtisodiy hududlar** - mamlakatning shunday hududiki, bu erga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan keng foydalaniladi.

**Erkin savdo hududlari (ESH)** - preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

**ESKATO** - BMTning iqtisodiy komissiyalaridan biri hisoblanadi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida joylashgan mamlakatlarning (31 ta davlat) iqtisodiy hamkorlik jamiyati. ESKATO 1947-74 yillarda Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari hamjamiyati ham deb yuritilgan. Unga RF, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya (Shveysariya konsultativ statusga ega) kabi davlatlar ham a'zodir.

**“Yung plani”** - Germaniya uchun ikkinchi reparatsion to'lov (xarbiy to'lovlar) rejasi bo'lib, Daues rejasining hammualliflari O.Yung tomonidan ishlab chiqilgan. Rejaga ko'ra Germaniya g'olib davlatlarga 113,9 mlrd. marka tovon to'lashi ko'rsatilgan edi. Jahon kapitalizmining umumiy iqtisodiy krizis yillarida (1929-1933) bu reja amalda bajarilmadi. Lozanna konferensiyasi esa “Yung plani”ni mutlaqo bekor qildi (AQSHning roli katta bo'ldi). Germaniyada harbiy va og'ir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish juda katta tezlikda rivojlanish davriga qadam qo'ydi.

**YUNKTAD** - bu tashkilot 1964- yilning 30- dekabrda tashkil topgan bo'lib, unga BMTning barcha a'zo mamlakatlari va boshqa davlatlar ham kiradi. Vazifasi: xalqaro savqdoning rivojlanishiga xomiylik qilish, uning xuquqiy asoslarini ishlab chiqish, xalqaro savdo va shuningdek xalqaro savdo bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

**Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** - ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

**“Yangi industrial mamlakatlar” (“YaIM”)** - iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhidir.

**Qarz konversiyasi** - qarz majburiyatlarini ikkilamchi bozorda likvidli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga aylantirish.

**Qarzga xizmat ko'rsatish me'yori** - qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar va milliy eksport orasida nisbatdir.

**Qarzni diskontlash** - kreditor va qarz beruvchi o'rtasida kredit summasini yoki uning bir qismini o'chirishni tushirmoq kerak.

**Qarzni restrukturizatsiyalash** - kreditni to'lash muddatlarini, foizlarni to'lashni orqaga surish orqali cho'zishdir.

**Qimmatbaho qog'ozlar bozori** - daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlar - aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit, sertifikatlarning oldi-sotdi qilinishi. Qimmatbaho qog'ozlar bozori amalda fond birjalari, auksionlar va banklardan iborat bo'ladi. Bozorda ham sotuvchilar, ham xaridorlar o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular o'rtasida maklerlar-brokerlar (dallollar) vositachilik qiladi. Qimmatbaho qog'ozlar bozori milliy va jahon bozorlaridan iborat.



A.A. Isadjanov, N.S. Ismailova

## JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI

O‘quv qo‘llanma

*“IQTISODIYOT” – 2019.*

*Muharrir*  
*Mirhidoyatova D.*

*Musahhih*  
*Matxo`jayev A.O.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Terishga berildi 8.10.19. Bosishga ruxsat etildi 20.10.2019. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset bosma. Ofset qog‘ozı. Shartli bosma tabog‘ı 9,0. Hisob nashr varag‘ı 8,7. Adadi \_\_\_ nusxa.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.  
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.